



KONFERENSIYA

**"ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN
KREATIV G'OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR"**

www.bestpublication.com |

@bestpublication |     | Street: Alisher Navoiy

FARG'ONA 2020

«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA
QARATILGAN KREATIV G‘OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 3-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-NOYABR, 2020-YIL

3-QISM

**“DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND
CREATIVE IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-
LINE CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"**

15 NOVEMBER 2020

PART-3



INDEX  COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

doi digital object
identifier



Ushbu to‘plamda “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 3-sonli Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasiga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan.

Mazkur ilmiy-amaliy on-line konferensiyada zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiya materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Maqsudov Ulug‘ek Qurbonovich

Mas’ul kotib

Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li

Marg‘ilon shahar 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o‘rinbosari

Nashrga tayyorlovchi

Xakimova Aziza Xaydaraliyevna

Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 1-umumiy o‘rta

ta’lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Tahrir kengashi a’zolari

Mo‘minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O‘zbekiston xalq artisti, professor

Nikadambayeva Hilola Batirovna

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnikafanlari nomzodi, Dotsent

Otaqulov Fozil Sobirovich

FarDU, bo‘lim boshlig‘i

Aslanov Xakimjon Ro‘ziboyevich

*FarDU, Harbiy ta‘lim fakulteti Umumqo‘shin tayyorgarligi sikli
boshlig‘i, podpolkovnik*

Karimov O‘lmasbek Umaraliyevich

TATU Farg‘ona filiali o‘qituvchisi

Xudoyberddiyev Elyor Xatamovich

*O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi
boshlig‘i o‘rinbosari, “Shuhrat” medali sohibi*

Mamatqulov Muzaffar Odiljon o‘g‘li

*O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi
bo‘lim boshlig‘i,*

MUNDARIJA/ TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ		
IJTIMOIIY-GUMANITAR		
1.	Davronqulova Parvina Davlatovna DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE IDEAS, PROPOSALS AND SOLUTIONS AIMED AT IT	10
2.	Адизкулова Раъно Мамасидиковна ОИЛАДАГИ ОТА – ОНА ТАРБИЯСИНГ ФАРЗАНД КАМОЛОТИДАГИ АХАМИЯТИ	13
3.	Barnoxon Jumayeva Qurbonali qizi ZAMONAVIY TA’LIM – YOSHLAR YUTUG’I	15
4.	Dadaxo’jayeva Matlubaxon Maxammadjonovna ONA TILI DARSLARIDA BADIYY MATN YORDAMIDA O’QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH	18
5.	Makhmudova Sarvinoz Xojimurodovna DEVELOPING READING SKILLS	21
6.	Eshonqulova Barno Bahramovna BUGUNGI KUN O’QITUVCHISI QANDAY BO’LMOG’I LOZIM?	24
7.	Xosiyat Boltayeva GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIYA AMALIY MASHG’ULOT DAFTARINING AHAMIYATI	30
8.	Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o’g’li To’xtanazarov Ilhom Ibragimjanovich HARBIY XIZMATCHILARDAGI TEMPERAMENT VA XARAKTERLAR	33
9.	Ro’ziyeva Madinabonu Baxodirjon qizi O’ZBEKISTON-KOREYA XALQARO UNIVERSITETI	38
10.	Malika Husenova Sur’at qizi FARZANDLAR O’RTASIDAGI MUNOSABATLAR FARZANDLARARO QIZG’ANISH MUAMMOSINI QANDAY HAL ETISH MUMKIN?	41
11.	Allaquliyeva Noila Rinatovna BUYUK ALLOMLAR BESHIGI.MARKAZIY OSIYO-----ILM-MA’RIFAT O’CHOG’I,DUNYO SIVILIZASIYASI MARKAZLARIDAN BIRI	44
12.	Mavlonova Shohida Habibullayevna	50

	ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O’QITISHDA MASOFAVIY TA’LIMNING O’RNI.	
13.	Muyassarov Shaxriyor Turob o’g’li Sadullayev Mehroj Sayfulloyevich. “YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH” KONSEPSIYASI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI.	53
14.	Nazarova Munisa Sodiq qizi THE STRUCTURE OF ANTITHESIS IN PROVERBS	58
15.	Xalillayeva Muborak Boltaboyevna ONA TILIM – O’Z TILIM	61
16.	Qayipnazarova Aziza Sayipnazar qizi O’ZBEKISTON-MENING BAXTIM, MENING KELAJAGIM!	64
17.	Talabjonov Bunyod Saidahmad o’g’li YANGI DAVR TA’LIMIDA O’QITUVCHI VA O’QUVCHINING RO’LI	66
18.	Temur Turdibekov JAMIYATDAGI HAMKORLIK - YUKSALISH ASOSI	68
19.	Sapayeva Iroda Kadamovna TIL - MILLAT KO’ZGUSI	70
20.	Жўрабоев Салимжон Иброҳимжон ўғли ҲУҚУҚИЙ ТАФАККУР ВА БАДИИЙ АДАБИЁТ	73
21.	Yuldoshev Faxriddin Normo’min o’g’li DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUV ORGANLARIDA ELEKTRON HUJJAT ALMASHISH TIZIMI HAQIDA	78
22.	Yusupova Gulmira Nuriddin qizi TA’LIM JARAYONIDA O’QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI	82
23.	Мадалиева Муслима Рахматовна. МАКТАБДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЯНГИ ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАРИНИНГ ЎРНИ	85
24.	Махкамова Дилдора МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ	88
25.	SULTANOVA SAVONAT BAXTIYAROVNA МИЛЛИЙ ҒОЯ ТАРҒИБОТИДА ЁШЛАРНИ МАФКУРАВИЙ ХУРУЖЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ, УЛАР ҚАЛБИДА ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	90

26.	Джурабекова Сурайё Тахировна Нормухаммедова Манзура Махсатулло кизи ФАКТОРЫ РИСКА, ЭТИОЛОГИЯ НЕРАЗВИВАЮЩЕЙСЯ БЕРЕМЕННОСТИ	93
27.	Обидов Расул Абдулхаевич РЕАЛИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	97
28.	Шерхон Қораев, СУЛТОН ҲУСАЙН БОЙҚАРО АДАБИЙ БАЗМЛАРИ (Алишер Навоийнинг “Хамса” дostonлари асосида)	101
29.	Ахбаева Луиза Ўткировна ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.	106
30.	Худайберганова Наргиса Курбонбаевна БЎЛҒУСИ ЎҚИТУВЧИЛАРДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА	109
JISMONIY MADANIYAT, SAN’AT VA TARIX		
31	Xaydarov Muxammad Raxmonovich YOSH VOLEYBOLCHILARNI OYOQ KUCHI VA HARKATLARINI O’RGATISH YO’LLARI	112
32	Nasriddinova Nozima Xayrullaевна SURXON VOHASIDA SHAKLLANGAN FOLKLOR ETNOGRAFIK SAN’ATI	114
33	Nishonova Nafisa Olimovna MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA VATAN MADHI	117
34	Suyundiqova Mahliyo Bobosher qizi MUMTOZ ADABIYOTDA XIZR	120
35	Fattoyeva Feruza Hamid qizi MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O’RGATISHDA INTERFAOL USULLAR.	122
36	Hasanov O’ral Jo’raqulovich MUSIQA MADANIYATI O’QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI.	124
37	Normuradova Dinara Ilmuradova SHAXS KAMOLOTINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TARBIYASINING ROLI	126
38	Болтаев Навфал Содик ўғли. Мўминова Латофат Нуриддин кизи	128

	ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДА МУСИҚАНИНГ ЎРНИ	
39	Ибрагимова Чарос Шодмоновна, РАҚС САНЪАТИ – ИНСОН МАЪНАВИЯТИ ОЗУҚАСИ	133
40	Ж.Ибрагимов З.Касимова ДИН ПСИХОЛОГИЯСИ ФАНИДА ВАҚТ БОШҚАРУВИ ФЕНОМЕНИНИНГ ТАҲЛИЛИ	138
41	Равшанхон Иброҳимов ҚУРЪОНИ КАРИМ МАЪНО ТАРЖИМАЛАРИ: ДУНЁДА ВА БИЗДА	141
42	Ashirmatova Nargiza Inombayevna NAVOIY IJODINING TAHLILI	146
43	Murtazoyev Matlubxon Mustafoxon o'g'li. JIZZAX UYEZDINING BOSHQARUV TARIXI MANBASHUNOSLIGI	150
44	Musirmonov Tolib Ravshan o'g'li AMIR TEMUR-MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI.	153
45	Ниёзматов Анвар Баҳодирович АБУ НАСР ФАРОБИЙНИНГ ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ТЎҒРИСИДАГИ НАЗАРИЯСИ.	156
46	Iskandarova Dilafró'z SADOQATDAN SABOQ BERGAN ZULFIYA	160
47	Karimova Muqaddam TARIXSIZ KELAJAK YO‘Q!	163
48	Tursunova Gulnoza Dadaxonovna GERAMANIYANING ERFRUT UNIVERSITETIDA DINSHUNOSLIK FANLARINING O‘RNI	166
49	Гофурова Фарида Тохир кизи, МАКТАБДА ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КЎРГАЗМАЛИ ҚУРОЛЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ	170
50	Жалолиддин Холмўминов ИМОМ АБУЛ МУЪИН НАСАФИЙНИНГ АҚОИД ИЛМИ СИЛСИЛАСИДАГИ ЎРНИ	173
51	Муҳибуллаев Саид-Маҳмадхон Довудхон-ўғли МОТУРИЙДИЙ ОЛИМ БАЁЗИЗОДА	177

DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE IDEAS, PROPOSALS AND SOLUTIONS AIMED AT IT.

Davronqulova Parvina Davlatovna

Student of SamSIFL, Samarkand, Uzbekistan

Abstract: *In this article discusses a modern education system in Uzbekistan.*

Keywords: *State school, private school, higher education, tuition fees, face to face classes, distance learning, to take a year out, a graduation ceremony, obtain knowledge, a fresher, technical colleges, exams, to get a university degree, take a postgraduate student.*

The 21st century can be characterized as a digital revolution. It is the moment when technology has been embraced and integrated into most parts of our lives. We use technology to communicate faster, in our workplace, for entertainment, and to purchase goods. Thus, it comes as no surprise that technology had a major impact on the education field too. Nowadays, students and educators use different types of devices including computers, tablets, smartphones, and smart boards to get and offer an improved learning experience.

Technology in the classroom has completely changed the way teachers teach and the way students learn. It helps teachers to improve their traditional text-based learning methods and allows students to engage better in a practical way of learning. Here are the major impacts that technology had on today's modern education.

Customized learning experiences

Traditional teaching and learning methods can rarely cover all the educational needs of all students. Every student has a different way and pace of learning compared with their peers. The learning experiences shouldn't be exactly the same for everyone in order for them to be effective. Each student should have the chance to get a learning experience that will efficiently contribute to their set of skills and knowledge.

Thanks to today's educational technology, modern education relies on customized teaching and learning methodologies. A multitude of devices, interfaces, apps, and tools help teachers to create a unique learning experience for their students based on their needs, preferences, and pace of learning. Instead of the one-size-fits-all educational system, technology has empowered teachers and students to take advantage of a new way of need-based learning.

Online learning

Having access to education is a right that all individuals should have, no matter their financial status, their social status, or their location in the world. Thanks to technology, nowadays, everybody can have access to education at any time from

anywhere in the world as long as they have a computer or a smartphone and an internet connection.

Technology has paved the way to a different type of learning method through virtual and online learning. The brick and mortar school institutions and the traditional teaching methodologies have been replaced with a virtual interface where teachers and students interact.

Online learning brings a multitude of benefits to modern education including flexibility, reduced costs, access to education to anyone, and a more interesting way of learning. Online learning encompasses a multitude of learning opportunities including dual enrollment, credit recovery, summer school programs, and virtual learning materials. It allows students to connect with specialists and educators from all around the world and continue their education in the comfort of their own home.

Nowadays, most reputable universities from all around the world have embraced the benefits of online learning and are now offering courses in the virtual world too. Not only that it helps them to attract more students and to reduce their operational costs, but it also allows students from all around the world to study at the best universities without having to worry about the relocation costs.

Visual learning

According to a multitude of medical studies, most people are visual learners because our brains can retain information 60.000x times faster when it is seen in a visual form compared to written text. Visual aids including maps or images have been used in the classroom since forever. However, technology has taken the use of visuals to a completely new level. Nowadays, teachers can use a multitude of visual aids such as graphics, videos, images, or diagrams to help their students understand and retain information a lot easier.

Visual aids in the classrooms also help educators to engage their students in the learning process a lot easier because they help with retaining their attention and make learning seem fun. For example, instead of using a hard-to-read textbook that may bore students, professors can play them a video which will engage them to actively participate in class.

Improved communication

Efficient communication in education is paramount. Students can't learn unless the message is properly transmitted to them by their professors. Technology also had a major impact on eliminating the communication gaps that existed in the classroom. For example, technology allows students and professors to have a virtual collaboration where teachers can assign them projects and the students can easily ask for further clarifications. Moreover, students can also easily interact with each other in real-time and work together on their tasks.

Effective research

Long gone are the days when students had to spend hours in the library with a huge pile of books to do research for their assignments. Nowadays, with a simple click on the mouse, information is just a few seconds away. Everybody can find out the answer to any question they might have in just a few seconds simply by searching on the internet where there is an unlimited amount of information and data. Students can have access at any time to books, researches, videos, studies, and a multitude of learning resources. Thanks to the internet and technology, doing research is very effective and no longer time-consuming.

Learning made fun

One of the biggest challenges that teachers can face is retaining the attention of their students. Students tend to get bored with their classes really fast if they don't feel motivated to actively engage in the learning process. Luckily, with the help of technology, educators can make their classes really engaging and entertaining for their students. For example, displaying videos, movies, or images can help with retaining and engaging students. Also, educators can use interactive learning interfaces that will engage and encourage students to actively participate in class.

Thanks to the multitude of benefits it brings, educational technology is here to stay and develop in the academic field. It empowers educators with a multitude of pedagogical resources and helps students understand and retain information more efficiently. Today's modern education has really become accessible to everyone thanks to the involvement of technology which is why plenty of schools and universities have already embraced it to offer students improved learning experiences.

REFERENCES:

1. <https://unesdoc.unesco.org/images/0023/002312/231288e.pdf>.
2. Selevko G.K. Modern educational technology: textbook. n. special. - M: Public education, 1998.
3. Author: Charles Hummel. Education today for the world of tomorrow.

ОИЛАДАГИ ОТА – ОНА ТАРБИЯСИНГ ФАРЗАНД КАМОЛОТИДАГИ АХАМИЯТИ.

Адизкулова Раъно Мамасидиковна

Навоий вилояти, Навоий шаҳар

18-умумтаълим мактаби

Тарбия фани уқитувчиси

Аннотатсия: *Тарбия бу бизнинг ўтмиши ва келажакни боғлаб, ҳозирги ҳолатимизни кўрсатадиган кўринмас ҳисдир. Тарбия бу биз учун жуда муҳимдир. Ушбу мақолада тарбия ҳақида атрофлича сўз юритилган.*

Калит сўзлар: *Тарбия, оила, тарбиявий асарлар, ҳадис, тараққиёт.*

«Тарбия биз учун ё ҳаёт ё мамот, ё нажот ё халокат, ё садокат – ё фалокат масаласидир».

Абдулла Авлоний.

Тарбия шахсда муаян жисмоний рухий, ахлокий, маънавий сифатларини шакллантиришга қаратилган амалий педагогик жараён, инсоннинг жамиятда яшаш учун зарур бўлган хусусиятларга эга бўлишни таъминлаш йулида қурилган чора тадбирлар йигиндисидир. Шахс онгини муаян жамиятининг мақсад ва вазифаларга мувофиқ равишда таркиб топтириш ва ривожлантириш жараёни, кишиларнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаётида фаол иштирок эттиришга қаратилган барча таъсирлар мажмуи ҳамдир.

Тарбиянинг асосан иккита тури бор. Оила тарбияси ва ижтимоий тарбия. Қадимдан шахс тарбияси ва қамолотида оиланинг, оилавий тарбиясининг роли юқори қўшилган, айниқса шахснинг ақлий ва ахлокий қамолотида оиланинг урни, ота-она ва яқин кишиларнинг йўналтирувчи ва тарбияловчи вазифаларга алоҳида эътибор берилади.

Оила тарбияси оилада ота-оналар, бобо ва бувилар умуман ёши улуг кишилар томонидан болаларни тарбиялашади. Оиладагина ривожлантириш мумкин бўлган хислатлар: ҳалоллик, поклик, мардлик, сузомонлик, меҳрибонлик, ҳақгўйлик каби фазилатларни барча сифатлардан юқори қўйишлари билан бирга инсондаги инсоний муносабатларда намоён бўладиган юксак фазилатлар аввало ота онадан болага ўтиши ва уларнинг жамият тараққиётига ижобий таъсири каби қимматли фикрлар бу борадаги амалий қўрсатмаларни ўз фалсафий-этноик, социологик ва психологик қарашларида ифода қилиб берганлар.

Маълумки Ислам динининг муқаддас манбалардан ҳадисларда одоб ахлоқ, болалар тарбияси, оила юритиши масалаларига кенг ўрин берилган. Ҳадислар

такидланганидек, « Фарзанларингизни иззат икром килиш билан бирга ахлоқ одобини ҳам яхшилангиз», 38 хадис. «Хеч бир ота уз фарзандига хулку одобдан буюкрок мерос беролмайди», 138 хадис.

Абу Али Ибн Синонинг педагогик ва психологик карашларида бола тарбиясининг амалга оширилишида болани каттик тана жазосидан кура, шахсий ибрат оркали тарбиялаш маъқуллиги уктирилган. Унинг фикрича, агар оила бошлиги тажрибасиз булса, у уз аъзоларини яхши тарбиялай олмайди, охир окибат у ижобий натижаларга эриша олмайди, ёмон таърбия нафакат ушбу оила, балки кушниларга, маҳалла куйга ҳам ёмон таъсир килиши мумкин .Оиладаги бола тарбияси ота-онанинг жамиятда тутган мавкеидан катъий назар, уларнинг бирламчи вазифасидир, деб ҳисоблайди Ибн Сино хазратлари. Ота она давлат бошлигими, еки оддий фукароми, барибир, у бола тарбияси хусусида барчага ибрат булмоклари лозим.Унинг фикрича тарбиячи, яъни ота-она, ёнланган шахс «нафакат суз билан, балки амалда ҳам бола руҳига таъсир курсатмоғи лозим» .

Кайковуснинг «Кобуснома» асарида асосий гоё- ёшларни ота-онага ҳурмат килишга, эъозлашга чакириш ҳисобланади. Унинг бу борадаги фикрлар пандномасинг «Ота-она ҳаққини билмок зикрида» бобида баён этилган. « Гар бир фарзандки ,окил ва доно булса,ота-она меҳр-муҳаббатини адо этмокдин бош тортмагай».У бу борада «Нима эксанг,шуни урасан» деган мақолни ишлатиб, у оилада бола тарбиясининг куйилиши анна шу ақида асосида олиб борилса, мақсадга мувофиқ булишини уктиради.

Буюк мутаффакир ва шоир Юсуф Хос Ҳожиб узининг « Кутадгу билиг» - « Саодатга бошловчи билим» китобида ёзилишича, фарзанд куриш ва унга тарбия бериш ҳар бир инсон учун буюк бахтдир, уларсиз ҳаётнинг маъноси йук. Лекин бу нарсa ота-онага жуда ката маъсулият юклайдики, унинг уддасидан чикмок, ҳар бир ота-она учун ҳам фарз, у оилавий тарбияни бола ахлокий тараққиётнинг асоси деб ҳисобланган: « Агар боланинг хулқи ёмон булса, бунда боланинг айби йук, ҳама га пота-онасида».

Демак, оила мукаддаслигини ва бардавомийлигини сақлашда юкорида келтирилган маънавий меросимиздан фойдаланиш фарзанд камолотида катта урин тулади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ал жоме Ас Саҳих иншолар туплами.
2. Ибн Сино ҳикматлари ва угитлари.
3. Кайковус Кобуснома 2016 й.
4. Kitobxon.com

ZAMONAVIY TA’LIM – YOSHLAR YUTUG’I

Barnoxon Jumayeva Qurbonali qizi

*Farg’ona viloyat axborot- resurs markazi kutubxonachisi,
Parvoz adabiy-badiiy to’garak rahbari.*

“Yurt qudrati yoshlar bilan”.

Kamol Hidoyat

Annotatsiya: *ushbu maqolada muallif, Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyani yuqori bosqichlarga ko’tarish bo’yicha olib boriladigan ishlarga o’z munosabatini va takliflarini bildirganligi, Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyani yaxshilash orqali kelajagimiz mevalari bo’lmish yosh avlodni bilimli bo’lishlari yangi O’zbekistonimizning kelajagini buyuk, jahondagi rivojlangan davlatlar qatorida bo’lishiga e’tiborini qaratganligi haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *maktabgacha ta’lim, to’g’rilik va halolik, yaxshilik va yomonlik, pedagogik mahorat, ta’lim, tarbiya, zamonaviy ta’lim.*

Maktabgacha ta’lim bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy hamda intellektual shaxsiy fazilatlarini shakllantirish jarayonida, ular bilan bog’liq pedagogik-psixalogik muhim bosqich sanaladi. Qolaversa, shu davrda yosh avlodning inson sifatida shakllanish jarayoni boshlangan bo’ladi. Shuning uchun ham muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev kelajagimiz bo’lmish yosh avlodning ta’lim tarbiyasiga bolalikdan e’tibor berishga chaqirayotgani be’jis emas. Umid biland ekan bog’bon qarovi sust bo’lsa, o’z vaqtida parvarish qilinmasa, kutilgan mevani bermaydi. Mehr bilan shaklangan ko’chat bog’ning ko’rki bo’lishi va undan odamlar bahramand bo’lishi hech kimga sir emas. Masalani ma’na shu jihatdan olganda, bolalar bog’chasi murg’ak go’dak hayotidagi ilk saboq oladigan kichik jamoa sanaladi. Biroq jamonaviy ta’lim avvalo oiladan boshlanishini unutmaslik kerak. Ota-bobolarimiz be’jizga “Katta qayoqqa boshlasa, kichik shu yoqqa yuradi”- deb aytmagan. Oilada ota-ona o’z farzandiga qanchalik o’rnak bo’lsa, bola shunchalik ibrat oladi. Shunga qarab fe’l atvori shakllanadi. To’g’rilik va halolik, yaxshilik va yomonlik mana shunga bog’liqliki, “Qush uyasida ko’rganini qiladi”- deb bekorga aytmaydilar. Holbuki, shunday ekan, qadrli, mehribon ota-onalar Alloh tomonidan berilgan aziz dilbandning dunyoqarashi shakllanishiga, keng fikrli bo’lishga, bilimdon va zukko bo’lib yetishishiga, jisman va ma’naviy yetuk inson bo’lib kamol topishida birlamchi ma’suldir. Bizning fikrimizcha, turli shart-sharoit baxonasida bolani bir yoshdan bog’chaga borishi ijobiy natija bermaydi. Birinchidan, ota-ona o’zi bilmagan xolda farzandiga befarq bo’lib qoladi.

Ikkinchidan, farzand hayotida ham ota-onaning oʻrni boʻlak. Ular beradigan mehrni hech kim bera olmaydi. Bir yoshdan bogʻchaga borgan bolaning ota-onaga talpinishi bora-bora kentik boshliqqa aylanadi. Salomga yarasha alik boʻlganidek, bola tarbiyasidagi nuqsonlarning avvali shundan boʻlsa ne ajab. Zero, uch yoshgacha boʻlgan bola tarbiyasida ota-ona tomonidan beriladigan saboq va har borada namuna boʻlish muhim rol oʻynaydi. Bola asta-sekinlik bilan dunyoni, etayotgan ishini anglab borar ekan, uning uchun hammasi boshlanishiga qiyin va murakkab kechadi. Ana shunday paytda unga dalda boʻlish, hamma narsa boshlanishida ogʻir tuyulsada, keyin oson va joʻn boʻlishini tushuntira olishi lozim. Urushib “Sendan olim chiqmaydi” yoki “Hech vaqoga yaramaysan”-deb koyish toʻgʻri emas. Illo hech bola daho boʻlib tugʻilmaydi, yoki oʻz-oʻzidan buyuk, taniqli inson boʻlmaydi. Tushunish va sabr toqatli boʻlib, toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltiruvchi ota-onalar albatta oʻz bogʻining mevasini bahramand boʻlishga erishadi. Yoʻqsa, keyingi urinishlar bekordir. Bilingki, bola qalbi yozilmagan qordek oppoq bir sahifa. Unga oʻz xatti-harakatingiz bilan barcha insoniy fazilat, xusni xat ashorlarini yozsangiz hidoyatga inoyat topasiz. Aksi boʻlsa, “Dod” deb kimga chopasiz. Mana zamonaviy taʼlim nimaga kerak? Oʻylang. Mushohada qiling. Maʼlumki bola bogʻchaga borganida ilk bor oʻzi uchun yangi dunyo kashf etadi. U bu yerda nimani koʻrsa, uni qalbiga muhrlaydi. Xodimlarning yurish-turishi, ustozlarining pedagogik mahorati ham bola ruhiyatiga qarab muomila qilishi, shaxsini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. “Ustoz bola ruhiyatining injeneri”- deb berilgan taʼrif shunchaki taʼrif emas. Shunday boʻlgach biz ,avvalo, oʻz oldimizga quyidagi dolzab muamolarni hal etishni qoʻyishimiz kerak. Birinchidan, maktabgacha taʼlimni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun barcha taʼlim markazlardagi muhit va sharoitni yanada yaxshilash lozim. Ikkinchidan, pedagoglar oʻz imkoniyatlaridan kelib chiqib, tajribalarini muttasil oshirib borishi ham muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, taʼlim markazlaridagi maishiy jihozlar zamon talabiga muvofiq, sanitariyaga mos holda boʻlishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Toʻrtinchidan, ustoz-murabbiylar ham zamonaviy bilim salohiyatga ega boʻlishi, jahon standart oʻqitish bilim koʻnikmasiga ega boʻlib borishi kerak. Beshinchidan, bolaga zamonaviy taʼlim berishda bolani darslarga muntazam qiziqitira olishi zarur. Zamonaviy taʼlim tarbiya berishda oʻqituvchining pedagogik faoliyati hamisha bosh mavzu boʻlib bu taʼlim - tarbiya hisoblanadi. Taʼlim - arabcha soʻz boʻlib, oʻrgatish, oʻqitish, ilm olishni oʻrgatish demakdir. Tarbiya ham arabcha soʻz boʻlib, rivojlantirish, parvarish qilish, sayqallamoq degan maʼnolarni beradi. Oʻqituvchi birinchi oʻrinda iqtidoridan kelib chiqib, maqsadli, reja tuzgan boʻlishi shart. Zero, bir soatlik dars katta bir hayot kitobidir. Ustoz taʼlim berish jarayonida guruhdagi har bitta bola tarbiyasi bilan shugʻullanishi, dars faoliyati davomida oʻzini anglashi uchun iroda erkinligini taʼminlashi lozim. Kerak boʻlsa bu oʻrinda mahoratli aktyor boʻlsa yana soz. Erinmay javob berayotgan oʻquvchining ijodiy fikrini eshitib, kerak boʻlsa ragʻbatlantirib, oʻquvchining javobini oʻz fikrlari bilan toʻldirsa, nur ustiga aʼlo nur boʻladi. Oʻquvchi

javobiga hurmat bilan qarasa, xato bo’lsa to’g’rilab qo’pol muomila etmaslik, sodir etgan xatolarini kechirish ustoz burchidir. Shuningdek ota-onalar bilan doimiy aloqada bo’lsa, o’quvchining qiziqishlari va uning o’rab turgan tashqi muhitdan doimo xabardor bo’lishi ham o’qituvchi faoliyatini yaxshilashga juda katta yordam beradi. Ularning hammasi zamonaviy ta’limda qo’l kulluvchi omillardir.

Muhit tarbiyani o’qituvchi qanday tashkil etishiga kelsak eng avvalo u o’z mutahassisligi bo’yicha ta’lim beradigan fanidan pedagogik-texnologiyalarga asoslangan ma’ruza, seminar, amaliy va nazariy mashg’ulotlarni o’tkazishda ko’z bo’yamachilikka yo’l qo’ymasligi lozim. Tekshiruvchidan cho’chib uzoq tayyorgarlikdan so’ng o’tkaziladigan bunday namunali darslar o’quvchining tiniq fikrini loyqalashtiradi. Buning o’rniga darslar tabiiy va qiziqarli, o’quvchi ongida uzoq muddat qolishi uchun har xil intermediya, komikslardan, turli xil yangi g’oyalarni o’ylab topish va foydalanishiga nima yetsin. Mashg’ulotlarni kompyuter texnika vositalaridan foydalangan holda ya’ni yangi pedagogik-texnologiya asosida o’tilishi maqsadga molik. O’quv faoliyatini faolashtiruvchi metodlarni qo’llash, noan’anaviy usullardan foydalanish va axborot-texnologiyalarning so’nggi yutuqlarini uyg’unlashtirib dars o’tishni oldiga maqsad qilib qo’yagan ustozga “Balli”. O’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olib darsda qo’llaydi. Xullosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim yoshlarni online o’qish sistemasi, modernizatsiyalashaytogan davrda yashar ekanmiz, hoxlaymizmi yo’qmi bunga ko’nikish, malaka oshirish, kerak bo’lsa atrofimizdagilarga yordam qo’lini cho’zishimiz kerak. Zamonaviy aloqa vositalarni chuqur o’rganishimizda keng omaga xavfsiz va qulay yo’lini ko’rsatish burchimizdir. Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlagandek, “Men yoshlar bilan bo’ladigan har qanday uchrashuv va jonli muloqatlardan cheksiz rohat olaman. Sizlarda kuch katta, sizlarda ilhom katta, rejalarining kata”. Biz yoshlar shu ishonchdan rag’bat olib katta orzular sari olg’a borishimiz shart. Zamonaviy ta’lim-tarbiya yoshlarni o’sib, ulg’ayib, komil inson bo’lishida bugungi kun talabi bo’lgan “Yangi O’zbekiston” ning ilk poydevoridir.

ONA TILI DARSLARIDA BADIY MATN YORDAMIDA O’QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Dadaxo’jayeva Matlubaxon Maxammadjonovna

Andijon viloyati, Jalaquduq tumani

48-umumiy o’rta ta’lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda badiiy asarlardan foydalanishning zarurligi haqida ko’nikmalar berilgan.*

Kalit so’zlar: *til hodisasi, ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, sintaktik qurilmalar, badiiy matn, so’z shakllari.*

Bugungi kunda ona tili ta’limi oldiga qo’yilayotgan asosiy talablardan biri – o’quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur talabni amalga oshirishda “Ona tili” darsliklaridagi madaniy, ma’rifiy, badiiy-estetik matnlar muhim rol o’ynaydi. Lekin, ta’kidlash lozimki, ko’pgina mashq shartlarida matnning til xususiyatlarini tahlil qilish emas, balki mavzu bo’yicha o’rganilayotgan til hodisasini aniqlash va izohlash so’raladi. Darslikdan chetga chiqmay ish olib boradigan ona tili o’qituvchilari mashq shartida berilgan topshiriqlarni o’quvchilarga bajartirish bilan kifoyalanib qoladi. Bu narsa badiiy matndan nutq madaniyatini rivojlantirishda beriladigan imkoniyatlardan foydalanmaslikka sabab bo’lmoqda. O’z ishiga ijodiy yondashadigan o’qituvchilargina ta’lim oluvchilarni matndan ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli va boshqa so’zlarni topish hamda ma’nosini izohlash bilan bog’liq ishlarga undaydilar. Shuning uchun ona tili darsliklarida berilgan badiiy matnlar tiliga xos bo’lgan bo’yoqdor, emotsional-ekspressiv, sintaktik qurilmalarni va badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishning ahamiyati benihoya katta.

Ona tili darslarida darslikda taqdim etilgan badiiy matnning til xususiyatlari ustida ishlashda ularning o’rganiladigan nazariy bilimlarga yaqin-uzoqlik xususiyatiga ko’ra turli darajada murojaat qilish taqozo etiladi. Jumladan:

- boshlang’ich sinflarda mavzuga oid o’rganilgan bilimlardan foydalanish;
- 5-sinfdan e’tiboran o’rganilgan mavzularga doir bilimlarga tayanish;
- o’tilayotgan bilim, undagi biror mavzu materiallariga murojaat etish;
- o’rganilmagan mavzuga doir til hodisasini leksik planda tushuntirib o’tish.

Ona tili darslarida badiiy matn yuzasidan berilgan mashqlarning asosiy shartlari bajarilib, parcha ifodali o’qilgandan so’ng til xususiyatlarini sanab ko’rsatilgan yo’nalishlardan biri bo’yicha o’rganish ishlariga qisqa vaqt ajratish taqozo etiladi. Ushbu jarayonda ayrim so’z va so’z shakllarining badiiy matnda namoyon qilgan go’zalligini, nafosatini, qudratini, emotsional-ekspressiv so’zshakllari, leksik vositalarning

ahamiyatini qadam-baqadam anglab, o’zi uchun so’zning yangi qirralarini kashf etib beradi

Matndan uning badiiy qiymatini yaratishda qatnashgan til hodisalarining barchasi bir yo’la tahlil qilish shart emas. Faqat o’tilayotgan grammatik mavzu bilan bog’liq shakllarga e’tibor qaratish kerak. Shunday bo’lganda, bir tomondan, besamar takrorlardan qochilsa, ikkinchi tomondan, asosiy mavzuning o’rganilish jarayoniga putur yetkazmaslikka va bu jarayonning samaradorligini ta’minlashga erishiladi.

O’qituvchi ona tili darslarida ham darslikdan o’rin olgan badiiy matnlarda yozuvchi va shoirlarning so’z va so’zshakllarini qo’llash mahoratiga o’quvchilarning e’tiborini qaratishi lozim, bu ham ularda ijobiy fazilatlar shakllanishiga yordam beradi. “So’zlarning turli ma’nolarini anglash, o’quvchilarning his etish, idrok va tasavvur qila olish malakalarining darajasi bilan bog’liq, chunki, so’zning xoslangan ma’nolari asosan hissiyot orqali idrok etiladi va anglanadi.

Ona tili darslarida asar ma’no-mazmuniga kirib borish tilni o’rganishdek, so’z ishlatish mahoratiga tomon qarab boradi, ya’ni asosiy e’tibor matndagi til hodisalariga: fonetik, so’ziasalish, leksik-grammatik vositalariga qaratilib, shu yo’l bilan obraz, sujet, g’oyani aniqlashga o’tib boriladi.

Matn ustida ishlashda o’quvchilar bilan faqat darslikda berilgan matnlardangina emas, balki boshqa yozuvchi shoir asarlaridan ham mavzuga doir misollar to’plash mumkin. Bunda yozuvchining so’zishlatish mahoratiga ham qaratiladi. 5-sinfda takroriy so’zlar, so’zning o’z va ko’chma ma’nolari kabi bir qator mavzular o’tilayotgan paytda, ularning badiiy matndagi ahamiyatini ko’rsatish ishlari bajariladi. Shu tariqa darsdan-darsga yozuvchining so’z ishlatish mahorati bilan tanishiladi. Bunday ishlar o’quvchilarni so’zdan kelgusida bajaradigan amaliyijodiy ishlarda foydalanishga undashi tabiiy.

Maktabda o’quvchini badiiy asardan olingan kichik matnni ham uqib o’qishga, so’zning sig’imi, matnning fikrga boyligini ilg’ashga va o’zida ham shunday boyligni to’plashga imkoniyat yaratadi.

O’quvchilarni matn va uning tiplari, birliklari, badiiy matn va uning mazmuniy turlari, badiiy matnda intellektuallikning ifodalanishi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar badiiy matnning fonografik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida badiiy matndan o’tilayotgan mavzuga doir til hodisasini aniqlash va izohlash mashqlari bilan kifoyalanmasdan, qo’shimcha ravishda muayyan reja asosida ularning til xususiyatlarini ham tahlil qilish o’quvchilarningnutq madaniyatini rivojlantirishdan tashqari so’z qo’llashning uslubiy qoidalarini ham amaliy egallashlariga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. Toshkent, “O’zbekiston”, 2008.
2. To’xliyev B., Shamshiyeva M., Ziyodova T. “O’zbektili o’qitish metodikasi”.
3. Rahmatullayev Sh. “O’zbek tilining frazeologik lug’ati”. Toshkent, “O’qituvchi”. 1992.

DEVELOPING READING SKILLS.

Makhmudova Sarvinoz Xojimurodovna

Bukhara region Bukhara district

English teacher School № 15

Annotation: *The theoretical value of this article lies in the analysis of teaching reading methods at the elementary levels*

Key words: *proficient reader, methods, spelling defects, textbooks, monotonous process, individual letters, situational teaching,*

Reading is one of the key language skills that students should acquire in the process of learning a foreign language. Moreover, it is not only the goal of education but also a means of learning a foreign language as while reading students review sounds and letters, vocabulary and grammar, memorize the spelling of words, the meaning of words and word combinations i. e. they polish their foreign language knowledge.

Reading skills are the cognitive processes that a reader uses in making sense of a text. To become a proficient reader language learners should master automatic letter and word recognition and the ability to use context as an aid to comprehension.

To make teaching reading effective it is advisable to focus on one skill at a time, explain the purpose of given tasks, establish connection with the previously acquired knowledge and skills, make usage of visual and audio aids, discuss problematic issues etc. Teachers should also keep in mind that reading is not a passive skill, make students engaged with what they are reading, encouraged them to respond to the content of a reading text not just to the language, to make sure that tasks correspond to the topic and level of the students etc.

All in all, there are six important methods of teaching reading and they are as follows:

1. the alphabetic method / ABC method / spelling method, v
2. the phonic method, v
3. the word method,
4. the phrase method,
5. the sentence method,
- 6 the story method.

The pros of alphabetic method are that it gives the students sufficient opportunity to see words and helps them to build up the essential visual image. However, as it is a dull and monotonous process it appears to be a difficult and lengthy method that does not expand the eye-span. The phonic method is based on teaching the sounds that match letters and groups of letters of the English alphabet. It is linked with speech training and

helps to avoid spelling defects. Nevertheless, the drawback of the method lies in the facts that meaning is not given priority in this method, additionally, it may delay the development of reading words as a whole. The word method, otherwise known as Look and say" method, teaches to read words as whole units, rather than breaking the word down into individual letters ,or groups of letters. It is an easy and natural direct method that facilitates oral work but at the same time it encourages the learner the habit of reading one word at a time.

The phrase method lies midway between the word method and the sentence method. It helps in extending the eye span. This method has the same limitations as the word method has. It places emphasis on meaning rather than reading.

The sentence method or look and say method in other words is often used in situational teaching. It perceives the whole sentence as the minimum meaningful unit. The procedure goes as follows: sentence - > phrase-> words-> letters. Readers find it difficult to read a sentence without the knowledge of words and letters. Thus, it is rather a time consuming method.

The story method is the most advanced one. The teacher tells the story in four or five sentences illustrated through pictures. The children first memorize the story and then read it. Before-teaching-practices should not be neglected with this method. Scholars recognize six word recognition strategies, namely, context clues, morphemic analysis, word analysis, ask a friend, skip the word, phonics. Activating or building background knowledge, using sensory images, questioning, making predictions and inferences, determining main ideas, using fix-up options, synthesizing are the seven reading comprehension strategies.

The procedure of introducing new vocabulary to students may take the following route: step 1: word introduction → step 2: student-friendly explanation → step 3: illustrative examples → step 4: checking understanding.

Teachers should be very reasonable and careful with error correction and choose the most suitable for the case as it may psychologically influence learners. The correction may be made by the teacher or another student during or after reading. All the things considered, reading is a language activity and ought not to be divorced from other language activities. To read effectively

In English second-language students need to learn to think in English. The methods of any teaching reading lesson should be chosen according to the learners level of skill development. Teaching reading is a job for an expert who has to create conditions whereby learners can learn and develop their reading skills.research is only a modest contribution to the issue of teaching reading methodology and thus further investigation into the sphere is highly recommended.

LIST OF LITERATURE:

- 1..Alyousef H. S. Teaching Reading Comprehension to ESL/EFL Learners / H. S. Alyousef // The Reading Matrix. - 2005. - №2. - P.143-154.
- 2.Archer A. L. Before Reading Practices / A. L. Archer. - Curriculum Associates, Skills for School Success. - 56 p. .Beatrice S.
- 3.Teaching reading in a second Language / S. Beatrice, E. D. Mikulecky. - London: Pearson Education, 2008.

BUGUNGI KUN O’QITUVCHISI QANDAY BO’LMOG’I LOZIM?

Eshonqulova Barno Bahramovna

Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahar,

4-umumiy o’rta ta’lim maktabining

tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya. *O’zbekiston Respublikasida o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’ymoqda. Ushbu maqolada ham, aynan hozirgi kunda o’qituvchi qanday bo’lishi kerakligi, qanday talablarga javob berishi lozimligi aytib o’tilgan. Bundan tashqari o’qituvchi o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqur, puxta bilimga ega bo’lishi, o’z ustida tinimsiz izlanishi lozimligi haqida ham ta’kidlab o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *Tarbiyachi, Zamonaviy o’qituvchi, pedagogik mahorat, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika, Pedagogik qobiliyatlar, Didaktik qobiliyat, Akademik qobiliyat, Pertseptiv qobiliyat, Nutqiy qobiliyat, Tashkilotchilik qobiliyati, Obro’ga ega bo’lishlik qobiliyati, Kommunikativ qobiliyatlar, Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati, Diqqatni taqsimlash qobiliyati, Konstruktiv qobiliyat, Gnostik qobiliyat.*

O’qituvchining faoliyati. O’qituvchi - odamlarga nur, ziyo, go’zallik baxshida etuvchi INSON. O’qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo’yiladigan talablar. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog’liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo’lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O’zbekiston Respublikasida o’qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo’ymoqda. Chunonchi, bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo’lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o’stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo’lishi kerak»

1. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o’qituvchisi shaxsiga nisbatan qo’yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o’qituvchi qanday bo’lishi zarur?

O’qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo’nalishlari bo’yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatuvchi shaxs sanaladi.

O’qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro’y berayotgan o’zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o’quvchilarga to’g’ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

Zamonaviy o’qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo’lishi talab etiladi.

O’qituvchi o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqur, puxta bilimga ega bo’lishi, o’z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

O’qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

O’qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo’lmog’i lozim.

O’qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo’lishi shart.

O’qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo’l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o’zlashtirib olishga erishishlari lozim.

9. O’qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o’zlashtirishga erishishi.

10. O’qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o’rnak bo’la olishi lozim.

O’qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o’zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to’g’ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqqa olishi zarur. O’quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan mulohot jarayonida fikrini aniq va to’la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so’zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o’quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o’qituvchining so’zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylilik, do’stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko’tarinki kayfiyatda bo’lishi zarur. O’qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o’quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o’rtasida obro’-

e’tibor qozonishini ta’minlaydi. Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional- irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri- biri bilan hosil qiladi.

Yirik o’zbek olimi S.R. Rajabov va uning yuzlab shogirdlarning ishlari ham o’qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatlarini o’rganishgan. Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o’qituvchining pedagogik qobiliyatlarini qo’yidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Didaktik qobiliyat- bu oson yo’l bilan murakkab bilimlarni o’quvchilarga tushuntira olishdir.. Bunda o’qituvchining o’quv materialini o’quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o’quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg’ota olishi ko’zda tutiladi. O’qituvchi zarurat tug’ilgan hollarda o’quv materialini o’zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat- barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo’lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo’lgan o’qituvchi o’z fanini o’quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o’z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan- texnika, ijtimoiy- siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko’p narsalarni o’rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat- qisqa daqiqalarda o’quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o’quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o’quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog’liq bo’lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o’qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo’lmagan tashki belgilar asosida o’quvchi ruhiyatdagi ko’z ilg’amas o’zgarishlarni ham faxmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat- ixcham, ma’noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo’lgan nutq; shuningdek, o’qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg’uga rioya qilishi . Qobiliyatli o’qituvchining nutqi darsda hamisha o’quvchilarga qaratilgan bo’ladi. O’qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o’quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma’qullayotgan yoki qoralayotgan bo’lsa ham uning nutqi hamisha o’zining ichki kuchi, ishonchi, o’zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o’quvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo’ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati- sinf- guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste’dodi. Tashkilotchilik o’quvchilarni xilma- xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o’quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo’lsa, ikkinchidan, o’z shaxsiy ishini to’g’ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro’ga ega bo’lishlik qobiliyati- o’zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro’ orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat

turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro’ga ega bo’lish o’qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadililigi, chidamliligi, qat’iyligi, talab talabchaligi va xakazo) shuningdek, o’quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish ma’suliyatini his etishga, bu ishonchni o’quvchilarga ham etkaza olishiga bog’liq bo’ladi.

7. **Kommunikativ qobiliyatlar**- muomala va mulokot o’rnata olish, bolalarga arlashish qobiliyati, o’quvchilarga to’g’ri yondoshish yo’lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqati nazardan samarali o’zaro munosabatlar o’rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. **Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati**- isnonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o’z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko’rishda, o’quvchining kelgusida qanday odam bo’lishi xakidagi tasavvur bilan bog’liq bo’lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarining taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizga tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bog’liq bo’ladi.

9. **Diqqatni taqsimlash qobiliyati**- bir necha ob’ektlarga bir davrning o’zida o’z munosabatini bildirish. O’quvchi, o’qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari-xajmi, uning kuchi, ko’chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etgan bo’lishi muhimdir.

10. **Konstruktiv qobiliyat**- o’quv- tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o’quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o’quv-tarbiya mazmunini, shuningdek, o’quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

11. **Gnostik qobiliyat**- tadqiqotga layoqatlilik bo’lib, o’z faoliyatini, bu faoliyat jaroyonini va uning natijalarini tekshirish hamda o’rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir. huningdek zamonaviy o’qituvchi o’zida aqli donishlik qobiliyati, iymon- e’tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo’naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlari bo’lishi zarurligi ko’zda tutilmoqda. Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o’rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his- tuyg’usi va iroda sifatlarning namoyon bo’lishidan iborat ekanligini ko’rsatadi.

Har bir o’qituvchi o’ziga xos individual- psixologik xislatlarga ega bo’ladilar. Ulardan ba’zilar harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba’zilar qattiqo’lroq, boshqalari yumshoqroq bo’ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo’lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan o’qituvchiga his-tuyg’ular, emotsiyalar yot narsa bo’lishi kerak, degan ma’no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g’azablanishi ham, qayg’uga tushishi ham, xafa bo’lishi ham mumkin va lozim. Bu erda gap o’qituvchining qandaydir bir anjozadagi (qolipdagi) shaxsga barovlashtirish zarurligi to’g’risida emas, balki uning o’z individual sifatlaridan ustalik

bilan foydalanishi, o’zida shaxsning zarur xislatlarni tarkib toptirishi, o’z kamchiliklariga barham berishi to’g’risida boradi.

Pedagogik mahoratni egallash yo’llari. O’qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo’lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, etuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o’zining munosib hissasini qo’shishi zarur. Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o’zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to’g’riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni barataraf etish yo’llarini topish imkoniyati mavjud.

Kasbiy mahoratni oshirish yo’lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo’l qo’yilgan yoki qo’yilayotgan xatolardan holi bo’lish, o’quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Mustaqillik yillarida O’zbekiston Respublikasida malakali (mahoratli) o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahoratli o’qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko’rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, «Yil o’qituvchisi» Respublika ko’rik-tanlovi ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o’qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo’lsa, «Yil maktabi» Respublika ko’rik-tanlovi o’qituvchilarga jamoa asosida ta’lim muassasasida qo’lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko’rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, respublika miqyosida pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo’lga kiritgan o’qituvchilar ta’lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O’zbekiston Respublikasi Xalq o’qituvchisi ko’krak nishoniga sazovor bo’lmoqdalar.

Xulosa o’rnida shuni qayd etish joizki, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O’zbekiston respublikasida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohalar mazmunini o’zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo’lib, istiqbol uchun yo’llanmadir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarining amaliyotga tadbiiq etilishi O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayoti uchun muhim sanalgan bir qator holatlarning qaror topishiga olib keladi.

O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g’oyalarini amalga oshirish jarayonida o’qituvchi kadrlar muhim rol o’ynaydilar. Komil inson va etuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o’qituvchilarning o’rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma’naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo’la olishi maqsadga muvofiqdir. Pedagog o’quv faoliyati shakllarini

tanlashda quyidagi savollarga javob topishi kerak: didaktik jarayon ishtirokchisi kim (o’quvchi, talaba, tinglovchi) va u qanday boshqarilishi kerak (o’quv faoliyatini o’qituvchi boshqaradi, avtomatlashgan sinf yordamida yoki boshqa texnik vositalar yordamida: kino-diafil’m, komp’yuter, modeli ta’lim va hakazo). Bu yo’nalish PTning mavjudlik shartlaridan biridir.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIYA AMALIY MASHG’ULOT DAFTARINING AHAMIYATI.

Xosiyat Boltayeva

Xorazm viloyati Bog’ot tumani

8-son umumiy o’rta ta’lim maktabi geografiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi fanini o’qitishda amaliy mashg’ulot daftarini yaratishdan maqsad va bunda o’quvchi geografik bilimlarini izchillikda o’rganishi, ta’lim samaradorligini oshishishi va o’z milliyligimizga ega bo’lgan milliy geografiya daftarlarini yaratishda xizmat qilishi haqida fikr yuritildi.*

Kalit so’zlar: *geografik qobiq, geografik nom, kontur, taqqoslash, kartasxema va jadvallar, fakt va raqamlar.*

Ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy shart sharoitlardan biri o’quvchilarning o’qishga ijobiy munosabatni rag’batlantirish turli tuman ta’lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu vositalar ichida ilg’or pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari muhim o’rin tutadi. Yer haqidagi fanlardan eng qiziqarlisi materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi hisoblanadi. Bu daftarda kiritilgan hamma ma’lumotlar 6-sinf uchun maktab dasturi talablariga javob beradi. 6-sinf materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o’rganishda 6-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darsligidan foydalanilgan. Bu daftarda turli vazifalar, savollar sxemalar, topishmoqlar, karta sxema va jadvallar taklif qilinadi. Ular shunday tuzilganki qiziqarli ma’lumotlarni o’quvchilarni qiziqtiruvchi hususiyatlar bo’lishi bilan ajralib turadi. Bunday vazifalar daftarimizda yulduzcha bilan berilgan

Maktab geografiya darslarida amaliy mashg’ulot daftaridan foydalanish ma’lum vazifalarni ko’zlaydi. Bu vazifalarni odatda 2qismga bo’lamiz. Ya’ni birinchidan, o’quvchilarni mustaqil ishga undaydi (Irodani, Xotirani, idrokni yuksaltirish). Ikkinchidan, tarbiya berish (O’quvchilarni to’g’ri dunyoqarashga o’rgatish) vazifalarni. Bu geografiyani amaliy mashg’ulot daftari geografik qobiq tuzilishini, materiklar va umuman yer sharining tabiiy hususiyatlari bilan materiklar tabiatini mustahkamlab o’rganishga undaydi. Bu geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari yuqorida ko’rsatilgan ikkita vazifaga munosib bo’lishi uchun, geografik nom va terminlarni qup-quruq yodlab olishga aylantirib yubormasligi uchun geografiyadan amaliy mashg’ulot daftaridan foydalanish mumkin. Bu daftar orqali geografik nomlarni, ob’ektlarni daftardan konturga tushurish, hamda undagi savollarga javob yozish, mavzu bo’yicha geografik nomlarni, terminlarni ongli ravishda aniqlashga undaydi:

O’qituvchi va o’quvchilar geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarining ahamiyati nimadan iborat ekanligini ochiq ravshan bilib olishlari zarur. Bu daftarning tarbiyaviy ahamiyati dastavval shundan iboratki o’quvchilarning materialistik dunyo qarashini bilib olishga yordam beradi. Undan tashqari o’quvchilarni tabiat hodisasiga har taraflama va muassal ravishda qarashga o’rgatadi. Bu amaliy mashg’ulot daftarida berilgan kartasxema va jadvallarni to’ldirilishi o’quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyatini yuksaltirishda yordam beradi. Geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarida turli nom fakt va raqamlarning ko’pligi uchun bu dafarda taqqoslash metodidan ham foydalanilga. Masalan; Afrika va Avstraliya materiklarining o’xshash va farqli tomonlarini jadvalda aks ettirishi kerak. Taqqoslash orqali bir hududning ikkinchi bir hududdan farqini bilib oladi. Bu esa o’quvchilar xotirasini o’stiradi. Materiallarini qoida tarzida emas, boshqa har turli taqqoslash yo’li bilan esda saqlashga o’rgatadi. Bu daftardan foydalanish kundalik hayotda ahamiyati nihoyatda katta. Chunki o’quvchilar materiklar va ularning tabiatini mustaqil o’rganishi ularning aqliy saviyasini kengaytiradi, hamda ularga har qadamda zarur bo’lgan bilimlarni yanada mustahkamlaydi. O’quvchi keyinchalik qanday kasbni egallamasin unga geografik bilimlar hamisha kerak bo’ladi. Bu daftar geografik bilimlarni yanada kengaytirib chuqurlashtiradi. O’qituvchi geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarini o’quvchilar uchun shunday katta ahamiyatini doimo tushuntirib borishi ammo umumiy gaplar bilan emas, balki aniq misollar bilan isbotlab berishi lozim. O’qituvchi hamisha shu narsani esda tutsin, shunda daftar orqali geografik bilimlarni mustahkamlaydi va egallagan bilimlarni turmushda kerak bo’ladigan predmeti deb qaraydilar. Agar ba’zan o’qituvchilarning umid qilganlari va kutilgan natijalari bo’lmay qolsa, unda bu predmetning aybi emas, balki o’qituvchining aybidir.

Geografiya ta’lim metodikasi nuqtai nazardan qaraganda geografiyadan amaliy mashg’ulot daftaridan foydalanish bu quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Biror mavzuni mustaqil o’zlashtirish uchun xizmat qiladi.
2. Geografik hodisalarni mukammal bilib olishga yordam beradi.
3. Amaliy mashg’ulot daftari ta’limda psixologik va pedagogik vazifalarni bajaradi.

Ya’ni uning yordamida bilimlarning egallanishi, esda qolishi va ma’lum bir tizimga tushishni yengillashtiradi. Yuqoridagi vazifalar geografiyadan amaliy mashg’ulot daftarini o’rganishda bilimlar bir-birini to’ldiradi.

Shunday qilib geografiyadan amaliy mashg’ulot daftari bilan ishlash turli xil usullar yordamida o’qitish jarayonining barcha bosqichlarida materialni o’zlashtirishning, bilimlarini mustahkamlash, o’zlashtirish darajasini tekshirishda, mustaqil bilim egallash ko’nikmasini shakllantirishdagi ro’li kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qurbonniyozov R , Matsaidova S, Egamberdiyev Sh
“Materiklar va okeanlar tabiiy geografiasini o’rganish metodikasi”
Urganch 2000-yil 28.
2. Элькин Г.М , Габочая тетрадь по географии материков и океанов. Санкт – Петербург «ПАРИТЕТ»2006 г

HARBIY XIZMATCHILARDAGI TEMPERAMENT VA XARAKTERLAR

To’xtanazarov Ilhom Ibragimjanovich

Farg’ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti

uslubiy tayyorgarlik sikli o’qituvchisi

Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o’g’li

Farg’ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti talabasi

Odamlar bilan muloqotda bo’lib, ularni kuzatib shu narsaga guvoh bo’lish mumkinki, ularning ba’zilar xotirjam, boshqasi harakatchan, uchinchisi kamgap va xafaqon, to’rtinchisi quvnoq bo’lishadi. Odamlar o’rtasidagi qanday tafovut ular temperamentlaridagi har xillik bilan izohlanadi. (Temperament tushunchasi lotincha «temperamentum» so’zidan olingan bo’lib, «aralashma» yoki «qismlarning nisbati» degan ma’noni bildiradi). Temperament psixika va xulq-atvor dinamikasini ifodalaydi.

His-tuyg’ularning paydo bo’lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo’ladigan individual-psixologik xususiyatlarning majmui *temperament* deb ataladi. U shaxsning tug’ma sifati hisoblanadi.

Temperamentlar har xilligining sabablarini mashhur rus fiziolog olimi I.P.Pavlov o’zining oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta’limotida tushuntirib beradi. Unga ko’ra temperamentning asosi bo’lib, bosh miya yarim sharlari qobig’ining faoliyati hisoblanadi. Bosh miya qobig’ida kechadigan qo’zg’alish va tormozlanish jarayonlari har xil odamlarda turli xil kuch bilan namoyon bo’ladi, shuningdek, ushbu jarayonlar harakatchanlik va barqarorlik xususiyatlariga ham ega bo’ladi.

Nerv qo’zg’alishlarining kuchi quyidagi sifatlar bilan belgilanadi:

- faollik;
- diqqatlilik;
- chidamlilik;
- emotsional barqarorlik va noqulay sharoitlarda ham ish qobiliyatining birday saqlanib turishi.

Barqarorlik xulq-atvorning bir tekisda namoyon bo’lishida o’z ifodasini topadi. Nobarqarorlik, o’zini tuta olmaslik, o’z-o’ziga nisbatan nazoratning yo’qligi kabi sifatlar bilan belgilanadi. Ko’nikma va odatlarni tezda o’zgartira olish, shuningdek, yangi sharoitlarga yengil moslashish kabilar harakatchanlik belgilaridir. Nerv jarayonlari kuchsiz bo’lganida insonda tez charchash, emotsional nobarqarorlik hamda og’ir vaziyatlarda o’zini tuta bilmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Nerv jarayonining bu xususiyatlari o’zaro birlashib, nerv sistemasi tiplarini tashkil qiladi. Bu tiplar o’z navbatida mos ravishda 4 ta temperamentning fiziologik asosini tashkil qiladi.

Kuchli, ko’zg’aluvchan, tajang, g’ayratli, aniq imo-ishoralar va mimikaga boy, nobarqaror tipga temperamentning **xolerik** turi to’g’ri keladi; kuchli, xarakatchan, tuyg’ularning beqarorligi – **sangvinik** temperamenti; kam harakatchan, inert tip – **flegmatik** temperamenti, flegmatik kishini uning uchun odatiy bo’lib qolgan tinch holatdan olib chiqish oson emas. U harakat va gapirishda ham shoshilmaydi, uning mimikasi kam ifodali, harakatlari sust; kuchsiz tipga esa **melanxolik** temperamenti mos keladi, u tuyg’ularning nisbatan kam xilma-xilligi bo’lgani holda ularning sekin paydo bo’lishi bilan ajralib turadi. Tashqi tomondan deyarli tuyg’ular ko’zga tashlanmaydi. Melanxolik kishini ko’p narsa bezovta qilmaydi, lekin his-tuyg’ular paydo bo’lganda u, odatda chuqur, davomli va ancha kuchli bo’ladi. Melanxolik kishining kayfiyati ko’pincha g’amgin bo’ladi.

Temperament shaxsning barqaror xususiyati hisoblansa-da, ammo insonning hayoti va faoliyati jarayonida o’zgarishi mumkin. Barqaror xarakterni shakllantirish, o’z temperamentini boshqara olish kabilar temperamentni rivojlantirishning asosiy shakllari hisoblanadi. O’quv va tarbiyaviy ishlarda harbiy xizmatchilardagi temperamentni e’tiborga olish kerak. O’z qo’l ostidagi askarlarning temperamentlarini bilish komandirlarga askarlarning xulq-atvorlarini, hatti-harakatlarini tushunishlarida, shuningdek, tarbiyaviy ta’sir vositalarini to’g’ri belgilashda yordam beradi.

O’z vaqtida amalga oshirilgan tarbiyaviy ta’sir va askarlar faoliyatini to’g’ri tashkil etish u yoki bu temperamentning ijobiy tomondan namoyon bo’lishiga yordam beradi. Masalan, flegmatiklarda javob reaksiyasini oshirish, xaleriklarda esa nobarqarorlikni yo’qotish, melanxoliklarda o’z kuchiga ishonch hissini hosil qilish mumkin. Bular o’zini boshqarishga nisbatan kunikma, odat, malakalar paydo bo’lishi bilan shakllanadi. Harbiycha hayotga sangvinik va xolerik temperament tiplarining tezroq moslashishini, flegmatik va melanxolik tiplarining esa, aksincha, qiyinchilik bilan ko’nikishini tadqiqotlar ko’rsatdi. Misollarga murojaat qilamiz.

Xolerik temieramentidagi askarga nobarqarorlik, o’zini tuta olmaslik, reaksiyalarning tezligi, jonli mimika va harakatchanlik xos.

Xolerik I.P.Pavlovning fikricha aniq jangovar tip, u oson va tez qo’zg’aladi. Qiyinchiliklarsiz yangi hayot sharoitlariga moslashadi, atrofdagi kishilar bilan oson muloqotga kirishadi. U yangi sharoitlarda paydo bo’ladigan tusiqlardan qo’rqmaydi, jo’shqin faoliyat sohibi ekanligini va ixtirochiligini namoyon etadi, shuningdek, tezda jamoa lideriga aylanadi.

Bunday odam ishni faol boshlab, uning oxirida sovib qolishi mumkin. Uni bir tekisdagi sekin harakatlar toliqtiradi. U jo’shqin va keskin harakatlarga moyil. Tajribalar shuni ko’rsatadiki, xolerik temperamentli odam biron topshiriqni bajarishdan oldin keragidan ortiq hayajoilanadi. Bu esa o’q otish mashg’ulotlari, jangovor navbatchiliklarda salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Sangvinik temperamenti vazmin odamlarga xos. Uning harakatlari xolerikka qaraganda sekinroq, ammo bunday tip yangi sharoitlarga tezda moslashadi. Askar – sangvinik o’zining optimistligi va amaliyotchiligi bilan jamoaga tezda qo’shilib ketadi. Xizmatdoshlari bilan tezda tanishib, o’rtoqlik munosabatlarini o’rnatadi.

Flegmatik temperamentidagi odam vazmin, kam harakat qiladigan va xotirjam bo’ladi. Unga kuchsiz emotsional qo’zg’aluvchanlik xos. U bo’lg’usi harakatlarni uzoq o’ylaydi, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, hayotniig yangi sharoitlariga qiyinchilik bilan va sekin moslashadi. Ammo ishda qat’iylilik va chidamlilik ko’rsatadi. Flegmatik o’rtoqlikka moyil emas, ya’ni ko’proq yolg’izlikni ma’qul ko’radi.

Melanxolik temperamentidagi odamga esa boshqalarga qo’shilmaslik va tashabbus ko’rsatmaslik xos. Unda ko’nikish jarayoni qiyinchilik bilan kechadi. U bir-ikkita o’rtoqlar orttirish bilan qanoatlanib, o’ziga nisbatan amalga oshirilgan qo’polliklarga ularni ichiga yutish bilan javob beradi. Ular xafagarchiliklarni uzoq vaqt o’zlarida saqlab yuradilar va uzoq davom etadigan his-tuyg’ular bilan yashaydilar.

Shaxsdagi o’z-o’zini baholash, o’z-o’zini sevish, o’z-o’zini tushunish, mustaqillikka intilish, jamoatchilik kabi xislatlarga temperament katta ta’sir ko’rsatadi. Inson xarakteri qanchalik kuchli bo’lsa, uniig jamoaga yoki alohida kishilarga bo’lgan munosabati shunchalik aniq namoyon bo’ladi.

Temperamentni o’zgartirish mumkinmi?

Temperamentni o’zgartirishning ehtimolligi axloqiy va boshqa sifatlarni shakllantirishga nisbatan juda ham kam. Bu holat temperamentning nerv sistemasi tiplariga bog’liqligi bilan izohlanadi. Nerv sistemasi tiplari esa qariyb o’zgarmaydi.

Xarakter va uni harbiy xizmatchilarda tarbiyalash muammolari ham dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shaxsning yo’nalishi, temperamenti, qobiliyatlari kabi xususiyatlar ichida xarakter alohida o’ringa ega. Bu esa aynan xarakterda inson psixologiyasining barqaror xususiyatlari sintezlashgani bilan izohlanadi.

Shaxs xususiyati sifatida xarakter – bu barqaror ruhiy jihatlarining yig’indisi bo’lib, u inson xulq-atvorining hamma tomonlariga ta’sir etadi hamda uning individual o’ziga xosligini ifodalaydi.

Xarakter tarkibida axloqiy jihatlar alohida ajralib turadi:

- jamoatchilik;
- to’g’rilik;
- haqiqatparvarlik;
- muloqotga tez kirishuvchanlik;
- emotsional jihatlar;
- ishonch;
- fidoiylilik;
- hayrat;
- hayotsevarlik;

- irodaviy jihatlar;
- bosiqlik;
- qat’iylilik;
- mustaqillik;
- intizomlilik;
- aqliy sifatlar;
- tezda tushunib olish;
- topqirlik va hokazo.

Inson xarakteri ko’plab jihatlariga ega bo’lib, ularni ma’lum bir tartibda tasniflash (klassifikatsiyalash) mumkin.

Birinchi guruhga xarakterdagi jamiyatga, fuqarolik va harbiy burchga munosabat kabi jihatlarni kiritish mumkin: javobgarlik hissi, o’z vataniga nisbatan muhabbat, dushmanlarga nafrat.

Ikkinchi guruhga esa mehnat faoliyatiga nisbatan munosabat, mehnatsevarlik, vujudonlilik, intiluvchanlik, botartiblik yoki aksincha dangasalik

Uchinchi guruhga insonning boshqa kishilarga munosabati, muloqotga tez kirishishi, hushyorligi, insonparvarligi yoki qo’polligi.

To’rtinchi guruhga – insonning o’z-o’ziga munosabati, o’z-o’zini tanqid, kamtarlik yoki aksincha maqtanchoqlik va kekkayish kabilarni kiritish mumkin.

Xarakterlar kuchli va kuchsiz, jamoatchi va xudbin, maqsadli va ziddiyatli, indamas va dilkash kabi turlarga bo’linadi.

Har bir odamning xarakteri individual va umumiy jihatlarni o’z ichiga oladi. Umumiylik deganda alohida kishilar guruhiga, jamiyatga xos bo’lgan sifatlarni tushunamiz.

O’zbekiston Respublikasi fuqarolari xarakteriga xos bo’lgan umumiy jihatlar quyidagilar:

- Vatanga muhabbat;
- mehnatsevarlik;
- jamoatchilik tuyg’usi va hokazo.

Alohida odam xarakteriga xos bo’lgan umumiy sifatlari esa insonning hayot yo’liga, uni qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhitga, unga xos bo’lgan asab sistemasi tipiga va boshqa omillarga bog’liq bo’ladi.

Temperament va xarakter o’rtasida o’zaro aloqadorlik hamda o’zaro ta’sir hodisalari, alomatlari mavjud. Xarakterga xos bo’lgan ba’zi bir jihatlarning namoyon bo’lishi va rivojlanishi temperamentga bog’liq.

Masalan, xolerikda o’ziga ishonch tez rivojlanadi, flegmatikda esa faoliyatda to’xtab qolish yoki ikkilanish holatlari kuzatilishi mumkin.

Temperamentning alohida barqaror xususiyatlari o’z mohiyatiga ko’ra xarakter tarkibiga kiradi. Shu bilan bir qatorda xarakter ta’siri ostida temperament o’zgarishi

mumkin. Xarakterni qanday o’rganish mumkin? Tashqi ko’rinish har doim ham xarakterni ifodalaydimi? Aslo! Juda xotirjam, yumshoq odamda kuchli, ijtimoiy yo’naltirilgan xarakter bo’lishi, chiroyli so’zlar ostida esa kuchsiz, xudbin xarakter yashiringan bo’lishi mumkin. Insonning nigohi, qadam tashlashi, husnixati, imo-ishoralari, nutq ohangi, yuz ifodasi kabilar esa xarakterni o’rganish uchun faqatgina yordamchi «manba» bo’lishlari mumkin.

Inson xarakteri, eng avvalo uning xatti-harakatlarida o’z ifodasini topadi. Inson xulq-atvorini kuzatib va faoliyatini tahlil qilib, uning xarakteri to’g’risida gapirish mumkin.

Dala o’quv mashg’ulotlari jarayonida jangovar otishlar va hokazolarda ishtirok etish harbiy xizmatchilar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Komandir uchun esa o’quv-tarbiya ishlari, insonlarga rahbarlik qilish kabilar asosiy faoliyat bo’ladi. Shuningdek, insonning hayot yo’li, tarjimai holi, uning ijtimoiy axloqqa bo’lgan munosabatlari ham uning xarakteri to’g’risida ko’p narsalarni berishi mumkin. Xarakterga xos bo’lgan ba’zi bir kamchiliklar (dangasalik, intizomsizlik, noxolislik va hokazo) askarlarni milliy istiqlool g’oyalari ruhida tarbiyalash ishiga halaqit beradi. Xarakterdagi salbiy unsurlar harbiy xizmatgacha bo’lgan davrda ham, shuningdek, harbiy xizmat jarayonida ham ba’zi askarlarda paydo bo’lishi mumkin. Bunga o’qish va xizmatdagi muvaffaqiyatsizliklar omil bo’ladi. U yoki bu askar xarakteridagi kamchiliklarni yo’qotish tarbiyaviy ishlarning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunda inson xarakteri shunchaki alohida jihatlarning mexanik yig’indisi emasligini esda tutish lozim. Maqsadga yetishish uchun bo’ladigan izchil va qat’iy kurashda xarakter kuchi namoyon bo’ladi. Kuchli xarakterga ega askar o’zini uzoq vaqt davomida psixologik barqaror holatda ushlab tura oladi. Bunday askarda so’z va ish har doim bir bo’ladi.

Askarlarda xarakterni qanday tarbiyalash mumkin?

Inson xarakteri uning butun umri davomida shakllanadi. Harbiy xizmatchi xarakteri harbiy xizmat jarayonida amalga oshiriladigan jamiki tadbirlar ta’siri ostida chiniqib boradi.

Xarakter bir vaqtning o’zida ham barqaror ham nobarqaror tuzilma. Xarakterning barqarorligi uni tasniflash (klassifikatsiyalash), ya’ni u yoki bu guruhga ajratish imkonini beradi.

Xarakterni tiplarga ajratish zarurligini qadimgi grek olimlari ham tushunib yetishgan. Insonning atrofdagi voqelikka bo’lgan ongli munosabati nafaqat uning dunyoqarashi, e’tiqodi va fikrlarida, balki, uning xarakterida ham namoyon bo’ladi. «Xarakter» tushunchasini eramizdan oldingi IV asrda yashagan grek olimi Teofrast birinchi marta ilmiy iste’molga olib kirgan. U o’zining «Axloqiy xarakterlar» degan asarida xarakterni 31ta turga bo’ladi. Teofrast xarakterni jamiyat axloqiy hayotining shaxsdagi aksi sifatida tushungan.

O’ZBEKISTON-KOREYA XALQARO UNIVERSITETI

Ro’ziyeva Madinabonu Baxodirjon qizi

Farg’ona viloyati Fag’ona shahrida joylashgan

O’zbekiston-Koreya Xalqaro Universitetining

Maktabgacha ta’lim fakulteti 1-kurs talabasi

Ta’lim-bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Shu bois, hozirgi kunda yurtimizda xorijiy oliy ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Bu ta’lim muassasalaridan biri Farg’ona shahrida joylashgan O’zbekiston-Koreya Xalqaro universitetidir. Bu ta’lim maskani Jonubiy Koreya va O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimining yetakchi mutaxassislari hamkorligida professional, amaliyotga moslashgan va jahon talablariga javob beradigan iste’dodlarni yetishtirib chiqarish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi qaroriga asosan tashkil etilgan. Universitetdagi o’quv jarayoni Koreya oliy ta’lim muassasalari tajribasiga asoslangan. Joriy yilda mazkur xalqaro ta’lim dargohi uchun yangi bino qurib bitkazildi va buning uchun 10 million dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb etildi. Ushbu universitet 2019-2020-o’quv yilida 720 nafar talabani qabul qilgan bo’lsa, joriy o’quv yilida bu ko’rsatgich 1040 nafarni tashkil qiladi. Ta’lim dargohi 4000 nafar talabani qabul qilish sig’imiga ega. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham O’zbekiston-Koreya Xalqaro Universitetiga tashrif buyurib, universitet rektori Park Joon Ho va koreyalik o’qituvchilar bilan suhbatlashdilar. O’quv dasturlari va mazmun-mohiyati, yoshlarning fanlarni o’zlashtirishi bilan qiziqdilar. Natijada, mutasaddilarga Janubiy Koreya universitetlaridagi o’quv dasturlari va soatlarini o’rganib, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini qayta ko’rib chiqish, talabalarni amaliyotga maksimal yo’naltirish bo’yicha bir qator ko’rsatmalar berdilar. Universitet “3+1” (Maktabgacha ta’lim fakulteti uchun “2+1”) qo’shma o’quv dasturiga asosanlangan, ya’ni talabalar to’rtinchi yilni Koreyadagi universitetlarning birida davom ettirishlari mumkin. Bu borada ta’lim maskani Koreyadagi bir qator universitetlar bilan hamkorlik qiladi. O’qishni tamomlagan talabalar ikki tomonlama tan olinadigan ilmiy darajaga ega bo’ladilar. Universitet 2020-2021-o’quv yilida 11 ta bakalavriat yo’nalishlarini qabul qildi. Jumladan, bular quyidagi fakultetlardir:

Maktabgacha ta’lim fakulteti - bu yo’nalishning maqsadi ijodkor va professional kadrlarni tayyorlash, bolalar va o’spirinlarning rivojlanishi va o’sishini samarali qo’llab-quvvatlaydigan maktabgacha ta’lim o’qituvchilarini tarbiyalashga qaratilgan.

Turizm menejmenti fakultetining asosiy maqsadi-Markaziy Osiyoning kelajagiga yetaklovchi global turizm menejerlarini tayyorlashdir.

Menejment va kompyuterlashtirilgan buxgalteriya hisobi fakulteti-global davrda ijodiy professional menejerlarni tarbiyalash, kompyuterlashgan buxgalteriya hisobi, kompyuterlashgan soliq hisobi, kompyuter hisobi menejeri, sertifikatlangan menejment bo'yicha maslahatchi, ERP axborot menejeri, menejer, bank xodimi, buxgalter, bosh direktor, kompaniya ta'sischi lavozimlariga kadrlarni yetishtirib beradi.

Koreys tili va adabiyot fakultetida darajalarga bo'lingan til o'rgatish, ilm berish va madaniyat ta'limi orqali konvergensiya aloqasi qobiliyatiga asoslangan o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga va global ongga ega bo'lgan hamda kelajakni o'zi mustaqil qura oladigan global aloqa bo'yicha iste'dodlar rivojlantirishni maqsad qilgan.

Mashinasozlik muhandisligi fakultetining maqsadi-ijodiy fikrlash va g'ayratli ruhga asoslangan har tomonlama dizayn qobiliyatiga ega va global jamiyat uchun foydali qadriyatlarni yaratadigan iqtidorli shaxslarni tayyorlashdir.

Elektrotexnika va elektronika muhandisligi fakultetida esa inson hayoti uchun zarur bo'lgan va zamonaviy sanoatda hal qiluvchi rol o'ynaydigan elektr va axborot – kommunikatsiya tarmoqlarini birlashtirish orqali kelajakka yo'naltirilgan elektr va elektron sohada yetakchi rolni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Kelajak avtomobilsozligi muhandasligi fakultetining maqsadi-avtomobilsozlik sohasidagi so'nggi tajribaga asoslangan holda xalqaro sanoat ishalarini faol ravishda bajara oladigan malakali avtomobil muhandislarini tayyorlashdir.

Qurilish muhandisligi fakulteti- kasbiylik, javobgarlik va ijodkorlik mafkurasiga asoslanib, ijtimoiy infratuzilmani qurishda muhim rol o'ynaydigan professional qurilish muhandislarini tayyorlaydi va aholini tabiiy ofatlardan himoya qilish uchun tabiiy ofatlarning oldini olish bo'yicha mas'ul mutaxassislarni yetishtiradi.

Arxitektura muhandisligi fakulteti-to'rtinchi sanoat inqilobiga yetakchilik qiladigan va kelajak me'morchiligini yaratadigan xalqaro innavatsion shahar, hamda zamonaviy Koreyaning madaniy o'ziga xosligi va O'zbekistonning bog'liq madaniyatini o'zida mujassam etadigan aqlli binolar yaratish tizimini maqsad qilgan.

Kompyuter muhandisligi fakultetining asosiy vazifasi-modernizatsiya sohasida yetakchi IT-yetakchilarini qo'llab-quvvatlash uchun ijodiy konvergensiya bo'yicha mutaxassislarni jalb qilishdir.

Energetika va kimyo muhandisligi fakulteti esa energiya va resurs muammolarini samarali hal qilish uchun Energetik texnologiyalari, AKT(axborot va aloqa texnologiyalari), material muhandisligi va kimyoviy muhandislik va NT(Nano Texnologiyalar), BT(Bio texnologiyalar) va IT(Axborot Texnologiyalar), ET(Atrof-muhit va energiya texnologiyalari) bilan bog'liq tadqiqotchi va professional iste'dodlarni tarbiyalaydi.

O'zbekiston-Koreya Xalqaro universiteti tomonidan qiymati 11,9 million dollarlik uchta loyiha amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Birinchi loyiha bu-universitet binosi qurilishi bo'lib, ushbu jarayon allaqachon amalga oshirilgan. Ikkinchi loyiha-amaliy

mashg’ulotlar uchun o’quv xonalari, elektron kutubxona va ovqatlanish xonasi bo’lgan yetti qavatli bino qurilishidir. Uchinchi loyiha doirasida esa universitet Farg’ona, Andijon va Namangan viloyatlarida to’rtta bolalar bog’chasini ochishni maqsad qilgan. Universitetda 27 nafar o’qituvchi ishlaydi, ulardan 12 nafari janubiy koreyalik mutaxassislardir.

Hozirgi kunda, O’zbekiston-Koreya Xalqaro universitetining barcha jonkuyar, fidoyi ustozlari, rektor Park Joon Ho, tashqi aloqalar bo’yicha prorektor Dilfuza Umrzoqova va ta’lim maskanining barcha xodimlari tomonidan, biz talabalarga, mana shu karantin davrida, online tarzda bilim olishimiz uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Tajribali va malakali professorlar tomonidan talabalarga sifatli ta’lim berilishi barchani birdek xushnud qilmoqda. Men mana shunday o’quv jarayoni barcha talab va mezonlarga javob bera oladigan, kelajakka qarab intiladigan shijoatli yoshlarni qo’llab-quvvatlaydigan, yuqori maqomga ega bo’lgan xalqaro universitetda grant asosida o’qiyotganimdan faxrlanaman, g’ururlanaman!

FARZANDLAR O’RTASIDAGI MUNOSABATLAR FARZANDLARARO QIZG’ANISH MUAMMOSINI QANDAY HAL ETISH MUMKIN?

Malika Husenova Sur’at qizi
Qashqadaryo viloyati
Qarshi shahar 19-sonli maktab
psixologi

" Oila men uchun muqaddas Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo’lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo’lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e’tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o’zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», — dedi u.

SH.Mirziyoyev

Annotatsiya: *Ushbu maqolada farzandlar o’rtasidagi munosabatlar mustahkamlash va qizg’anish muammosini hal qilish tarbiya jarayoniga alohida e’tibor berish, yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda qaysi mezonlarga e’tibor berish kerakligi xususida so’z yoritilgan.*

Kalit so’zlar; *Oila maktabdan boshlanadi, oiladagi muhit va ta’lim muassasalari. Yosh avlod metodik qo’llanmalar.*

Dunyoda har bir inson xech bir g’arazsiz o’zidan-da yaxshi bo’lishini istaydigan yagona borliq bu uning farzandidir. Darhaqiqat; har bir ota-ona farzandining aqlli zehnlilik bo’lishini yaxshi ta’lim olishini istaydi, Farzandining yaxshi ta’lim olishi va bekamu ko’st ulg’ayishi uchun ota-ona qo’lidan kelgancha harakat qiladi. Afrikaning Gana degan davlatida Asxanti qabilasi bor. Bu qabilada shunday bir odat bor ekan chorshanba kuni tug’ilgan bolalarga (Kuvaku) Quwaku deb ism qo’yishar ekan. Bu so’z “Tajovuzkor” degan ma’noni anglatar ekan shu so’z bilan bolalarga murojaat qilishar ekan. O’tkazilgan tadqiqot natijasiga ko’ra Ganadagi jinoyatchilarning 50% mana shu ism berilgan bolalar tomonidan sodir etilar ekan. Shu sababli farzandlarizga qo’yadigan ismlarimiz ular shaxsiyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaga yaxshi tarbiya berish, unga chiroyli ism qo’yish ota-onaning farzandi oldidagi muqaddas burchidir. Farzandlar o’rtasidagi munosabatlar demak bu qanday buladi Bolalar 3-4 yoshdan boshlab bolalar bog’chasida tarbiyalanishlari kerak. Oila tashqarisidagi ilk ijtimoiy muhitga ega maskan bo’lgani uchun xam ijtimoiy hayotga

tayyorlanadilar. Insonlararo munosabatni o’rganadilar. Farzandlar o’rtasidagi qizg’anish hissi insoniyat tarixi qadar qadimiy sanaladi. Insoniyat tarixida ilk jinoyat aka-uka o’rtasidagi hasad sabab yuzaga kelgani bu masalaga jiddiy qarash lozimligini ko’rsatadi. Insonda yomon tuyg’u bo’lmaydi, faqat u yaxshilikka yo’naltirilmagan bo’lishi mumkin. Oilada farzand to’ng’ich , o’rtancha va kenja bo’lishiga qarab uning shaxsiyati turlicha bo’lishi mumkin

To’ng’ich farzand

To’ng’ich farzand oilaning birinchi farzandi bo’lgani sabab katta e’tibor ko’radi . chunki u insonning ota-onalik hissini to’yishiga va bundan masrur bo’lishiga sababchi bo’ladi shuning uchun butun vaxtini to’ng’ich farzandga ajratishadi. Keyin tug’ilgan farzand albatta himoya qilinish lozim bu albatta to’ng’ich farzandga yoqmaydi avvalgidek e’tibor qilinmayotganini ko’rgan bola esa o’zini tark etilgan deb his qilishi mumkin. Farzandlar hech qachon bir-biri bilan taqqoslanmasligi lozim Farzandlardan birortasiga ko’proq e’tibor qaratish xam ular orasida qizg’anish xissini o’t oldiradi.

O’rtancha farzand

Ota-ona o’rtancha farzandga nisbatan iliqroq munosabatda bo’ladi. To’ng’ich farzandga qilingan xatolar o’rtancha farzandga takrorlanmaydi

Kenja farzand

Kenja farzand oilaning diqqat markazida turadi va eng ko’p erkanadi. U oilaning eng kichik a’zosidir Bu holat kenja farzandning xudbinlikning kuchli bo’lishiga sabab bo’ladi U o’zini dunyoning markazida deb o’ylaydi . Farzandlararo qizg’anish hissini qanday hal qilish mumkin?

Oilaga uka kelayotganini eshitgan daqiqadan boshlab katta farzandning ichida qizg’anish hissi paydo bo’ladi unga avvalgidek vaxt ajratolmaslik uni erkalab suyib olmaslik unga qattiq ta’sir qiladi Demak katta farzandning yangi tug’ilgan chaqaloqqa nisbatan tuyg’ularini ko’rib chiqaylik Yangi tug’ilgan chaqaloq uyga kirib kelgandan keyingi jarayonni o’rganish juda muhim. Masalan: “Ukang tug’ilganidan xursandmisan” “ chaqaloqni yaxshi ko’rasanmi” singari u xushlamaydigan hislarni kamroq ishlatganingiz ma’qul. Ko’proq katta farzandingizga haliyam uni juda yaxshi ko’rishingizni tez- tez eslatib turing Seni haliyam men juda juda yaxshi ko’raman “ ukang bilan ko’proq mashg’ul bo’lsamda seni undanda ko’proq yaxshi ko’raman deng Harakatlaringiz so’zlaringiz bilan farzandlaringiz holatini tushunayotganingizni ko’rsating,shunda bola qizg’anish tuyg’usining aslida yomon ekanligini bilib xotirjam bo’ladi va uzini aybdor his etmaydi ko’proq unga bolajonim ukangga sen ma’suliyat bilan qaraysan “ Men senda ukangga nisabatn ma’suliyat hissini ko’rib juda sevindim”

degan soʻzlarni ishlatib bu soʻzlar farzandlar oʻrtasidagi mehr- muhabbat sevgi tuygʻularini shakllanishiga sabab boʻladi

Farzandlar oʻrtasidagi janjal va tortishuvlardan uzoqroq boʻling. Oʻz muammolarini oʻzi hal qilishga oʻrgansin, chunki ota-onaning bunday tortishuvlarga aralashishi ularning oʻzaro munosabatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi Muammolarni hal etishda siz koʻproq ijobiy soʻzlardan foydalaning Masalan “ ikkalangiz xam bu muammoni hal etishingizga ishonaman” muammoga yechim topa olasiz degan soʻzlardan foydalaning. Farzandlaringizni bir-biriga qiyoslamang “ Nega ukangga oʻxshab xonagni yigʻishtirib qoʻymaysan?” “ Vazifangni oʻzing eslay olmaysanmi akangga biror marta xam eslatmagan edim” va hokazo

Farzandingizga shu shaklda muomala qilsangiz ularni ranjitib qoʻyasiz, Siz yoʻqotishga uringan qizgʻanish va raqobat hissi bunday qiyoslash oqibatida yanada zoʻrayib ketadi Bola oʻzligini topishga urinayotgan bir paytda uni birortasi bilan qiyoslab kamsitsangiz uni qalbini yaralagan boʻlasiz. Har bir farzandgizga alohida shaxs sifatida qarang. Soʻzim oxirida jinsiy tarbiya haqida gapirib oʻtmoqchiman Jinsiy tarbiya ota-onalar uchun eng maʼsuliylatli holatlardan biridir Jinsiy tarbiya faqat koʻpayish ilmi sifatida qaramaslik va baʼzi jihatlarga ahamiyat qaratish lozim savollarga yetarlicha javob ololmagan bola javobni boshqalardan qidiradi Bolaning ongsiz ravishda oʻz oʻrtoqlaridan olgan manbalari toʻgʻri – notoʻgʻri maʼumotlar olisi uning jismoniy va ruhiy deformasiyaga uchrashiga sabab boʻladi jinsiy tarbiyadan maqsad bolaning oʻz jinsiga koʻra hatti – harakatlarini normal va sogʻlom shaklda egallashga erishishdir, Farzandingizni oʻzingiz bilan birga olib yotmang, ota-oansi bilan birga yotadigan bola ularga bogʻlanib qoladi shu bois shaxsiyati rivojlanishi mushkullashadi. Bolaligida ota-onasi bilan sogʻlom munosabat oʻrnata olmagan yoshlar osonlik bilan atrofdagilarning taʼsiriga tushib qoladi. Farzandingizning savoliga javob berar ekansiz, qanday holatda ekaningiz muhim sanaladi. Agar siz oʻzingizni xotirjam tutib yumshoq ovozda javob bersangiz farzandingiz xam oʻzini xotirjam tutadi Soʻzimni oxirida birinchi prizidentimiz

Islom. Karimov soʻzlari bilan yakunlamoqchi man “ Odobli, bilimdon va aqlli ,mehnatsevar , imon-eʼtiqodli farzand nafaqat ota-onaning balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Sogʻlom odobli, aqlli farzandlari bor inson chinakam boydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.”Amaliy Psixologiya” Psixologiya fanlar nomzodi Narzulla Boymurodov
- 2.Karimov .I.A Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori T:1997
- 3.Maktab oiladan boshlanadi yangi asr avlodi Maʼmura Qutliyeva

BUYUK ALLOMLAR BESHIGI.MARKAZIY OSIYO-ILM-MA’RIFAT O’CHOG’I,DUNYO SIVILIZASIYASI MARKAZLARIDAN BIRI.

Allaquliyeva Noila Rinatovna

Xorazm viloyati Xonqa tuman 3-sonli maktab

Markaziy Osiyoda kamolga yetgan allomlar bugungi zamonaviy fanlar arxitektura, astronomiya, tibbiyot, falsafa, geometriya, huquqshunoslik, tasavvuf fanlari rivojiga katta hissa qo'shdi. Jumladan Ahmad al-Farg'oniy ham shular qatoriga kiradi. Ahmad al-Farg'oniy (to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy) (taxminan 797, Farg'ona –865, Misr) – astronomiya, matematika, geografiya boshqa ilmiy o'nalishlarda faoliyat ko'rsatgan

o'zbek qomusiy olimi. Sharqda Al-Farg'oniy, Yevropada Alfraganus (Alfraganus) taxalluslari bilan mashhur. Ahmad al-Farg'oniy hayoti, ilmiy izlanishlari va kamoloti Abbosiylar sulolasi hukm surgan, Arab xalifaligi jahonning eng yirik saltanatlaridan biriga aylanib, uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan kelgan ko'plab mutafakkirlar muhim o'ringa ega bo'la boshlagan tarixiy davrda kechdi. Al-Farg'oniy Xalifa Xorun ar-Rashid (786–809) vorislari al-Ma'mun (813–833), Mu'tasim (833–842) va Mutavakkil (846–861) hukmronlik qilgan davrda yashadi hamda avval Marv, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida ilmiy hay'at (falakiyotshunoslik, astronomiya), riyoziyot (matematika) va jug'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi hamda qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. Ahmad al-Farg'oniy dastavval (taxminan 811-yil) Farg'onadan Marvga kelgan. Ilk o'rta asrlarda yoq Marv O'rta Osiyoning yirik madaniy va ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan, bu maskanda o'sha davrlarda yoq Movarounnahr, Xorazm va Xurosondan ko'plab olimlari fozillar va mutafakkirlar to'planib, Ajamning madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etganlar. Hatto 651 yilda so'nggi Sasoniylar shahanshohi Yazdigard III ibn Shahriyor (632–651) arablar to'qibidan qochib, poytaxt kutubxonasidagi kitoblarni o'zi bilan Marvga olib kelgan. Xalifalik qo'l ostiga o'tgach ham Marv o'zining qadimiy mavqeini yo'qotmay, nafaqat ilmiy va madaniy markazga, balki fath etilgan sharqiy viloyatlarning siyosiy markaziga aylangan. Bu davrda xalifalikda Horun ar-Rashid farmoni bilan bino qilingan ikkita rasadxona bo'y kutubxona bor edi. Abu Rayxon Beruniy ma'lumotiga qaraganda, rasadxonalardan biri Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinida Kasiyun nomli tog'da joylashgan edi. Rasadxonalarda Horun ar-Rashid asos solgan ilmiy markaz „Bayt ul-hikmat“ („Donishmandlar uyi“) olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borardi. Ular orasida al-Farg'oniy ham bor edi. Al-Farg'oniy avval Bag'doddagi rasadxonada ish olib bordi, so'ngra al-Ma'mun topshirig'iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha „Zij“ yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Al-

Farg‘oniy yunon astronomlari jumladan, Ptolemeyning „Yulduzlar jadvali“ asarida berilgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish hamda o‘sha davrdagi barcha asosiy joylarning jug‘rofiy koordinatalarini yangitdan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etdi. Shu munosabat bilan arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir ishlarni, xususan, falakiyot, riyoziyot va geografiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda ham Al-Farg‘oniyning xizmati katta. Bulardan tashqari, u ayrim astronomik asboblarni ixtiro etish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlang‘ich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham muhim hissa qo‘shdi. 832–833 yillarda Al-Farg‘oniy Shom(Suriya) shimolidagi Sinjor dashtida Tadmur va ar-Raqqa oralig‘ida yer meridian bir darajasining uzunligini o‘lchashda qatnashdi. Al-Farg‘oniyning hayoti va ilmiy hamda amaliy faoliyati to‘g‘risidagi eng so‘nggi ma’lumot 861 yilga mansubdir. O‘sha yili Abbosiy xalifa Abul Fazl Ja‘far al-Mutavakkil (hukmronlik yillari 847–861) buyrug‘iga binoan Nil daryosidagi suv sathini o‘lchaydigan inshoot barpo etish uchun Misrning Qohira yaqinidagi Fustat shahriga keladi. Ilmiy-texnik va me’moriy jihatdan g‘oyat ulug‘vorbu qurilma Nil daryosining Sayyolat ul-Rod mavzesida hozirga qadar saqlanib qolgan. Al-Farg‘oniy haqida ma’lumotlar juda oz bo‘lsada, ammo o‘rta asrlarda sharq ilmiy dunyosida uning nomi mashhur bo‘lgan. Ibn Annadim (X-asr), Ibn al-Kiftiy (XII–XIII asrlar), Abul Faraj Bar-Ebrey (XIII-asr) va Xoji Xalifa (XVII-asr) kabi Musulmon mamlakatlari bo‘ylab safarga chiqqan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi ekspeditsiya a‘zolari 1997-yil 5-dekabrda MARda bo‘lishib, Al-Farg‘oniy hayotini o‘rganishlari natijasida Misrning Fustat shahrida vafot etganligi, Munattam tog‘ining sharqiy qismidan sal narida joylashgan Imom ash-Shofe qabristoniga dafn etilganligini aniqlashdi. Vaqt o‘tishi bilan uning qabri yo‘qolib ketgan. U yerdan olib kelingan tuproq Farg‘ona vodiysining Quva shahrida 1998-yil barpo etilgan ramziy qabrga qo‘yildi. Yozma manbalarda qayd etilishicha, Al-Farg‘oniy ilk o‘rta asr falakiyot, riyoziyot va geografiya ilmlari yo‘nalishida bir qancha ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirgan. Uning asosiy astronomik asari – „Kitob al-harakot as-samoviya va javomi‘ ilm an-nujum“ („Samoviy harakatlar va umumiy ilmiy nujum kitobi“). Bu asar „Astronomiya asoslari haqidagi kitob“ nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, 1145 va 1175 yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima etiladi. Shundan so‘ng ilmiy merosi Farg‘oniy nomi lotinlashtirilib, „Alfraganus“ shaklida G‘arbda shuhrat topadi. Uning „Astronomiya asoslari haqidagi kitob“ asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob o‘sha davr zamonasida astronomiya haqidagi eng muhim va zarur bo‘lgan bilimlarni o‘z ichiga olgan. Uning geografiyaga oid bo‘limi Yer yuzidagi mamlakatlar va shaharlar haqidagi eng boshlang‘ich va zaruriy bilimlarga bag‘ishlangan bo‘lib, „Yerdagi ma’lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida“ deb ataladi. Asarda falakiyot va geografiya ilmlarining asosiy mazmuni, vazifalari va qismlari tushunarli

dalillar asosida sodda qilib bayon etiladi. Xususan, Yerning dumaloqligi, bir xil osmon yoritqichlarining turli vaqtda ko‘tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko‘rinishi, masofalar o‘zgarishi bilan ularning ko‘rinishi o‘zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildiriladi. Umuman Al-Farg‘oniyning „Astronomiya asoslari haqidagi kitob“ asari o‘rta asr musulmon Sharqi mamlakatlaridagi, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Qadimiy yunon ilmi, jumladan, astronomik ilmlar ham birinchi bor arabchadan tarjima qilingan risolalar orqali ma‘lum bo‘ldi. Al-Farg‘oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda tosh bosma usulida nashr etildi. 1669-yil mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius Al-Farg‘oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so‘ng Al-Farg‘oniyning shuhrati yanada ortdi. Yevropa Uyg‘onish davrining mashhur olimi Regiomontan XV-asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir ma‘ruza larini Al-Farg‘oniy asarlari asosida o‘qigan. Al-Farg‘oniy nomi Dante (XIV-asr) va Shiller (XVIII-asr) tomonidan tilga olinadi. Yevropa olimlaridan D‘alamber, Brokelman, X. Zuter, I. Y. u. Krachkovskiy, A. P. Yushkevich, A. Rozenfeldlar Al-Farg‘oniyning ijodiga va qoldirgan ilmiy merosiga yuqori baho berganlar. Bizning davrimizgacha Al-Farg‘oniyning yettita asari saqlanib qolgan (lekin bular hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan). Asarlarning qo‘lyozmalari jahonning turli shaharlari – Berlin, Dushanba, London, Parij, Teyron, Toshkent, Mashhad, Patna, Rampur, Xalab va Qohiradagi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda. Ahmad al-Farg‘oniyning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin boshlandi. 1998-yil Al-Farg‘oniyning 1200 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Farg‘ona shahrida Al-Farg‘oniy nomi bilan ataladigan istirohat bog‘i va qadimiy Quva shahrida Al-Farg‘oniy haykali o‘rnatildi. YUNESKO ning 1998-yildagi tadbirlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Ahmad al-Farg‘oniy tavalludi ning 1200 yilligini nishonlash to‘g‘risida“ gi qarori (1997-yil 27-noyabr)ga ko‘ra alloma hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar, badiiy ko‘rgazmalar o‘tkazildi, yangi kitoblar nashr etildi, spektakllar dramaturg Hayitmat Rasulning „Piri koinot“, Yo‘ldosh Sulaymonning „Farg‘ona farzandi“, Nurulloxon hoji Abdulloh o‘g‘li „Bashar allomasi“ sahnalashtirildi, filmlar suratga olindi. Oydagi 20 kmli yirik kraterlardan biriga Ahmad al-Farg‘oniy nomi berilgan. Farg‘ona shahridagi maydon, ko‘cha, maktablarning biriga Al-Farg‘oniy nomi berilgan.

Farobiy (taxallusi; to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Farobiy) (873, Forob shahri —950, Damashq) — O‘rta Osiyoning ulug‘ Turkiy mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o‘zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgani uchun "al Muallimassoniy" ("Ikkinchi muallim", Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" nomlariga sazovor bo‘ldi. F. Sirdaryosohilidagi

Farobiy (O‘tror) degan joyda turkiy qabilagamansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topadi. O‘sha davrda Movarounnahrda Somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo‘lajak faylasuf boshlang‘ich bilimini O‘trorda olgandan so‘ng , o‘qishini Toshkent,Samarqand va Buxoroda davom ettiradi va ilmini yanada chuqurlashtirishmaqsadida Bag‘dodga yo‘l oladi. Olim yo‘l-yo‘lakay Eronning yirik shaharlari Ray ,Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo‘ladi. Bag‘dodda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to‘plangan edi. Bu yerda ko‘zga ko‘ringan olimu- fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o‘rgandi. Ba’zi tarixiy manbalardakeltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.Shunga qaramay , mavjud risolalariningo‘ziyoq uning bugok olim ekanligidan dalolat beradi.

Farobiy ilk o‘rta asrda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi,hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma’naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi.Bu davr qaramaqarshilik va adovatlardan

xoli emas edi. Farobiyningning falsafiy qarashlarida o‘sha davrning yutuq va kamchiliklari,murakkab va ziddiyatli jihatlari o‘z ifodasini topdi. Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. Farobiy eng avvalo,Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g‘oyalarining targ‘ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan shuningdek, Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy,Yevk lid, Ptolemey , Porfiriylar asarlariga ham mapjyap yozganligi ma’lum. Bulardan tashqari, Gippokrat, Epikur , Anaksagor , Diogen, Xrisipp, Aristipp, Suqrot, Zenon asarlaridan xabardor bo‘lgan.Olimning fikricha,fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o‘rganish asosida to‘planib boradi.Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi,balki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgan dir .

Farobiyning fanlari tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan,matematika,tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aql-zakovatini boyitishga xizmat qiladi, grammatika, she’riyat va mantiq esa fanlardan to‘g‘ri foydalanishni,bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya’ni aqliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat, axloqshunoslik va pedagogikaga oid bilimlar kishilarning jamoaga birlashuvi,ijtimoiy hayotning qonun va qoidalarini

o‘rgatadi. Xullas, Farobiyning ilmlar tasnifi to‘g‘risidagi ma’lumoti o‘rta asrda turli fanlarning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, keyingi davrlarda yashagan olimlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tadi.Farobiy dunyoqarashida ijtimoiy,siyosiy

va

axloqiy fikrlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Allomaning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil shahar aholisining fikrlari", "Baxtsaodatga erishuv yo‘llari haqida risola", "Buyuk kishilarningnaqllari", "Musika haqida katta kitob", "Fuqarolik siyosati" va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloqodob va ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan.

Farobiy Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo‘lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. O‘rta asr sharoitida jamiyattabiyy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi. U mukammal jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotida odamlarni turli guruhlariga ajratadi. Bunda u insonlarni qaysi dinga e’tiqod qilishiga, irqiga qarab emas, balki aqliy qobiliyati, bilimi, ilm-fanga qiziqishini inobatga oladi. Farobiy din-inson kamolotiga, ma’rifatga xizmat qilishi lozim, degan fikr

tarafdori edi. U islom diniga, Qur’onga katta hurmat bilan qaradi. Uni kishilarni xulq odobga o‘rgatuvchi manba deb bildi.

Farobiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o‘zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo‘ladi. Farobiyning talqinicha, fozil shaharlar yuqori madaniyatli bo‘ladi. Unda yashaydigan xalq o‘zi istagan kasb-hunarni egallaydi. Bunday jamiyatda to‘la erkinlik va teng huquqlilik hukm suradi. Farobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti uning axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan

chambarchas bog‘liqdir. U o‘zining ijtimoiy, falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad va muddaolarini o‘rganishni,

axloqiy kamolot va baxt-saodatga erishuv yo‘llarini ko‘rsatishni qo‘yadi. Axloqiy kamolot deganda, xayr ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni tushunadi.

Axloqiy kamolotga xalakit beruvchi salbiy hislatlarga dangasalik, bekorchilik, bilimsizlik, ongsizlik, kasbhunarsizlikni kiritadi. Farobiy aql, ilm va ma’rifatni baxtsaodatga erishishning asosiy vositasi deb bildi.

Uning qarashlari Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. O‘rta asr mutafakkirlari Ibn Xallikon, Ibn al Kiftiy, Ibn Abi Usabi’a, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun va boshqa Farobiyning ta’limotini chuqur o‘rganib, uni yangi g‘oyalar bilan boyitganlar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Dovoniy Farobiyning ijtimoiy, falsafiy, siyosiy va axloqiy ta’limotidan bahramand bo‘lganlar.

Farobiy ilgari surgan fikrlar XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy, falsafiy fikr taraqqiyotida sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

1966 yil Farobiyning falsafiy merosi hamda dunyoqarashiga bag‘ishlangan doktorlik

dissertatsiyasini himoya qildi va O‘zbekistonda Farobiyshunoslikka asos soldi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qomusiy olimning asarlari o‘zbek tilida chop etila boshladi, uning boy merosi xolisona, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida yoritila boshlandi Oliy o‘quv yurtlari, maktab va kutubxonalar , ko‘chalar uning nomi bilan ataladi.

ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O’QITISHDA MASOFAVIY TA’LIMNING O’RNI.

Mavlonova Shohida Habibullayevna

*Farg’ona viloyati Buvayda tumani 35-sonli umumta’lim maktabi
1-toifali ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz karantin davrida ona tili va adabiyot fanlarini masofaviy o’qitishning afzalliklari haqida so’z yuritamiz.*

Kalit so’zlar: *masofaviy ta’lim, texnologiyalar, global kompyuterlar, Keys texnologiyasi, gipermatn, tarmoq texnologiyalari, tutor.*

Insoniyat yigirmanchi asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o’zgarishlar, xususan axborot texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga bog’liq. Ta’lim, ishlab chiqarishning turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global kompyuter tarmog’ini rivojlanishi butun dunyo ta’lim tizimini takomillashtirishning yangi yo’nalishlarini ochilishiga sabab bo’ldi. Birinchidan, o’quv muassasalarining texnik ta’minotini keskin o’zgarishi, dunyoviy axborot resurslarga keng yo’l ochilishi o’qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Bugungi kunda internet tarmoqlari barcha sohalarda o’ziga xos salmoqli o’rin egallamoqda. Bu masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirishda o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida ko’prik bo’lib beminnat xizmat qilib kelmoqda.

O’qitishning bu yo’nalishi o’quvchilarni ma’lum fan bo’yicha, o’qitishniung mazmuni bo’yicha ilmiy dalillar va tushuncha hamda nazariyalar bilan qurollantirishni taqozo etadi.

Masofaviy ta’lim jarayonida teledars orqali olingan bilimlarni mustahkamlash uchun ustozlar ta’lim oluvchilarga internet tarmog’i orqali mavzuga mos rasmlar, chizmalar, videofilmlar vca ovozli xabarlar jo’natishi mumkin. Ona tili dars jarayonlarida yuqoridagilarga ijodiy matn tuzish, hikmatli so’zlar, va iboralar va maqollarni qo’shimcha tarzda berib, mazmunini tahlil qilishnin topshirish mumkin.

Ona tilini o’rganmasdan turib, hozirgi davr talabi bo’lgan chet tillarini o’rganishning imkoni yo’q. Ona tili o’qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o’quvchilarga ona tilidan so’zning ma’no va mohiyatini o’rgatishdan iborat

Masofaviy o’qitish g’oyasi, birinchi bo’lib G’arbda paydo bo’lgan bo’lsa, O’zbekistonda masofaviy ta’lim 2000-yillarda paydo bo’ldi. Bugungi kunda yangi bilimlarni olishning ushbu usuli juda ham dolzarb masalaga aylandi.

Masofaviy o’qitishning bir necha turlari mavjud bo’lib, har bir ta’lim muassasasi o’z texnologiyasiga ega. Quyida shulardan bir nechtasini qarab chiqamiz.

Keys texnologiyasi. Keys so’zi ingliz tilidan olingan bo’lib, case – “portfel” degan ma’noni anglatadi. Bu masofaviy o’qitishning eng keng tarqalgan shakli bo’lib, har bir o’quvchi yoki talaba o’rganilayotgan barcha fanlar bo’yicha o’quv va amaliy qo’llanmalar bilan ta’minlanadi. “Portfel”ga o’quv kompyuter diskleri, audio va video materiallar, oddiy kitoblar, shuningdek o’rganilayotgan mavzuning har bir qismi uchun savollar va testlar kiradi. Demak, kitobxonlar uchun bu juda katta qulaylik yaratadi. O’quvchilar birorta badiiy asarni audio, video, yoki oddiy kitob ko’rinishida topib o’qishlari mumkin. Bunda o’quvchi vaqtini mazmunli o’tkazadi. Badiiy asarlarni qanchalik ko’p mutoala qilsa, shunchalik dunyoqarashi kengayadi. Shuningdek, o’quv qo’llanmalar turlaridan yana biri - o’quv CD-diskleri ham zamonaviy o’quv jarayonida juda keng qo’llanilib kelmoqda. Bu materiallar har doim siz bilan birga bo’ladi (va ta’lim jarayoni oxirida ham yo’q bo’lib ketmaydi). Bunga qo’shimcha ravishda, elektron darsliklardan foydalanish qulay: ularga juda sifatli ovoz yozilgan va juda ko’p miqdordagi materiallarga ega. Bunday "kitob" dan foydalanish jarayonida tinglovchi yana bir qiziqarli rivojlanish imkoniyatiga ega bo’ladi, ya’ni bu gipermatn bilan ishlash.

Tarmoq texnologiyalari masofadan o’qitishning yanada rivojlangan usulidir. Har bir talabani “tutor” (ingliz tilida, o’qituvchi, repetitor) deb ataladigan o’qituvchiga “biriktirilib”, tanlangan mutaxassislik bo’yicha individual dars rejasini tuzishga yordam beradi, uning bajarilishini nazorat qiladi. O’qituvchi bilan aloqa odatda elektron pochta yoki messenjerlar orqali amalga oshiriladi. Ba’zi maktab va universitetlarda talabalarda o’qituvchilar bilan telefon yoki internet (VoIP texnologiyasi) orqali muloqot qilish imkoniyati mavjud. Ko’pgina imtihon va testlar elektron pochta yoki Internet orqali topsiriladi.

Bunday holda o’quv dasturini o’zlashtirish uchun kompyuter sizning asosiy vositangizdir. Internet sizning raqamli kutubxonalarangiz, interfaol darsliklar, test topshiriqlari, shuningdek sizning o’qituvchingiz bilan aloqaning asosiy vositasi bo’ladi. Siz onlayn konferentsiyalarda, seminarlarda, forumlar rejimida ishlashda va o’qituvchi va sinfdoshlar bilan munozaralarda ishtirok etishingiz kerak. Tarmoq va case texnologiyalari talabalar bilan ishlashda shunga o’xshash usullardan foydalanadi. Tarmoq texnologiyalarining asosiy kamchiliklari uning texnik yordamga to’liq bog’liqligi. Kam quvvatli kompyuter yoki sifatsiz aloqa sizning mashg’ulotingizni og’riqli va uzoq jarayonga aylantirishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2017 – 488 bet.
2. Ш.З. Валиев, В.Н. Стариков. Дистанционное обучение: Учебное пособие. – Уфа: УТИС, 1999. –151 с.
3. www.eduportal.uz
4. www.ziyonet.uz

“YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH” KONSEPSIYASI VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI.

Sadullayev Mehroj Sayfulloyevich.

Farg‘ona davlat universiteti.

Harbiy ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Muyassarov Shaxriyor Turob o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti.

Tarix va madaniy me’ros fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *maqoladamamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy tamoyil va ustuvor yo‘nalishlari asosida malumot berilgan, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi.*

Kalit so‘zlar: *vatanparvarlik, konsepsiya, tarbiya, huquqiy norma.*

Аннотация: *В статье представлена информация об основных принципах и приоритетах государственной молодежной политики в стране. решения, роль и значение государственных и негосударственных организаций, семьи, сообщества, образовательных учреждений в этом отношении, их взаимодействие с учетом национальных и международных правовых норм.*

Ключевые слова: *патриотизм, концепция, образование, правовая норма*

Annotation: *The article provides information on the main principles and priorities of state youth policy in the country, the current challenges of educating young people in the spirit of military patriotism in the current complex globalization, the rapid development of information and communication technologies. solutions, the role and importance of governmental and non-governmental organizations, family, community, educational institutions in this regard, their interaction, taking into account national and international legal norms.*

Keywords: *patriotism, concept, education, legal norm*

Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik- barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning

daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. O‘tib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo‘yicha burch tuyg‘usini shakllantirish borasidagi tadbirlar mamlakatimizda jadal suratlarda olib borilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari bilan O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori asosida 7 bobdan iborat bo‘lgan “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash” konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Mazkur konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga jismonan va ma‘nan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta‘lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, bugungi O‘zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. **Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma‘naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Umumta‘lim o‘quv muassasalarida, o‘rta maxsus va o‘rta kasb – hunar ta‘limi muassasalarida o‘quvchilarni, shu jumladan oliy ta‘lim dargohlarida ta‘lim olayotgan talaba – yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tayyorlash endilikda ta‘lim – tarbiya ishlarining barcha tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo‘lishni talab etadi. O‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko‘rsatayotgan ta‘lim muassasalarining asosiy o‘rin egallashi darkordir.** Konsepsiyaga muvofiq harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari asosan to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarga turli she‘rlar, kuy va qo‘shiqlar o‘rgatish, multfilm va turli o‘yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish;

ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog‘liq mavzulardagi she‘r va qo‘shiqlarni yod oldirish;

bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma’naviy rag‘batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o‘yinlar o‘tkazish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog‘liq madaniyat va istirohat bog‘lariga ekskursiyalar uyushtirish;

Ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar) o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, harbiy xizmatga va ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas’uliyat bilan bajarishga bo‘lgan havasini oshirish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, yoshlarning jismonan sog‘lom, kuchli va irodali ma’naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi.

zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, mavzuli kechalar va qo‘shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish;

o‘quvchi yoshlar ishtirokida “Vatanimni ko‘z qorachig‘idek asrayman”, “Yurt taqdiri — mening taqdirim” mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

sog‘lomlashtirish oromgohlarida “Temurbekning izdoshlari”, “O‘zbekiston farzandlari botir bo‘lur” kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusida badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar namoyish etish va ularning muhokamasini o‘tkazish;

darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to‘g‘risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

Temurbeklar maktablari, oliy harbiy ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlar va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida “Temurbek vorislari” harbiy-sport o‘yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga alohida ahamiyat berish

Uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o‘smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma’lumot berib borish;

To‘rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko‘nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o‘z ustida muntazam ishlash, sog‘lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

Mazkur Kontsepsiya yoshlar o‘rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, fuqarolik pozitsiyasi, Vatanni sevish va uni ko‘z qorachig‘idek asrashga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarni oshirish uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Talaba - yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida pedagogika va psixologiya qoidalaridan keng foydalanilish katta ahamiyat kasb etadi.

Harbiy ta’lim murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo‘lib, unda asosan quyidagilarini anglash lozim: talaba – yoshlarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish; ularda o‘z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy xislatlarni tarbiyalash; komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish va ular oldida turgan vazifalarni bajarishga va har xil vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish. Vaholanki, "Vatan hissi, Vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday muqaddas, pok va ulug‘" – deb ta’kidlagansilar muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy aytgan: "Fan - bu dunyo boyligi. Bilim – insonning oliy va muqaddas yutug‘i. Zero bilish ko‘zgu kabi, bizga dunyoga qarashimizni, intilishlarimizni ko‘rsatadi. Qilich kabi aqlimizni, fikrimizni o‘tkiraydi".g‘ideksepsiyaning amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim

va professional malakaga, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlar bilan to‘ldirib borish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.[23.02.2018](#)
2. [I.A.Karimov.”Yuksakma’naviyatyengilmaskuch”2008](#)
3. www.ziyo.net

THE STRUCTURE OF ANTITHESIS IN PROVERBS

Nazarova Munisa Sodiq qizi

NUU 2nd year master student

National University of Uzbekistan

Abstract: *The article focused on the structure of antithesis in proverbs. Proverb is a short sentence usually known by many people, stating something commonly experienced or giving advice. Proverb has different stylistic devices that scholars have identified a range of devices which operate in ensemble to effect the concept of proverbial style, amongst which the most important are parallelism, ellipsis, alliteration, rhyme, metaphor, personification, paradox, and hyperbole. As well as antithesis is a stylistic device which mostly used in proverbs.*

Key words: *stylistics, proverb, parallelism, parataxis, conjunction.*

There will be many occasions when there are likely to hear antithesis during everyday conversations. Any opposition will be based on the contrasting features of two objects. These contrasting features are represented in pairs of words which we call antonyms, provided that all the properties of the two objects in question may be set one against another, as 'saint' —'devil', 'reign'—'serve', 'hell'—'heaven'. Many word-combinations are built up by means of contrasting pairs, as up and down, inside and out, from top to bottom and the like. It is not only the semantic aspect of which explains the linguistic nature of antithesis, the structural pattern also plays an important role. Antithesis is generally moulded in parallel construction. The antagonistic features of the two objects or phenomena are more easily perceived when they stand out in similar structures. Parallel structure (also called parallelism) is the repetition of a chosen grammatical form within a sentence. Parallel construction is most frequently used in enumeration, antithesis and in climax, thus consolidating the general effect achieved by these stylistic devices. By making each compared item or idea in sentence follow the same grammatical pattern, that create a parallel construction. Parallel structure, means using the same pattern of words to show that two or more words or ideas are of equal importance. Words and phrases should not only match in structure, but also in tense. Writers use parallel structure to add clarity to their writing and to make it easier to understand. It also adds value to a writer's overall composition and shows that their writing is structurally and grammatically correct.

Parallel structure should be used when to connect clauses with coordinating conjunctions such as: for, and, nor, or, but, so, or yet.

Examples:

Speech is silver, but silence is gold;

One beats the bush, and another catches the bird

When to connect two clauses or phrases with a correlative conjunction: not only...but also, either...or, neither...nor, if...then, etc., use parallel structure.

Example: It is good to have some friends both in heaven and hell

In Phrases or Clauses of Comparison to connect two clauses or phrases with a word of comparison, such as than or as, use parallel structure.

Example: One father is more than a hundred schoolmasters.

There are comparison numbers and nouns. One against to hundred, father compares to schoolmasters. In other cases parallel construction emphasizes diversity and contrast of ideas.

Parataxis (equal para arrangement taxis) is one of the most frequently occurring syntactic features in proverbs. This term refers to the linking of constructions of the same grammatical and semantic level through juxtaposition or punctuation, instead of using formal conjunctions, either coordinating conjunctions or subordinating conjunctions.

The Parataxis used to refer to cases in which two sentences or clauses are adjacent to one another without any explicit indication as to the logical or temporal relationship between them. There are following examples:

The more haste, the less speed.

If somebody is hurry this man wastes his all energy and you he cannot achieve success in your work.

No pain, no gain. If one has A, then one gets B.

Nothing ventured, nothing gained. If there is A, then there is B.

Proverbs is one of example of parallel structure and it connected with antithesis. It comes together to make antithetical parallelism. According to Allen Ross, this type of parallelism emphasizes the importance of choosing the way of wisdom and avoiding the fate of a fool by setting “before the reader the choice between wise and profitable way versus the foolish and disastrous way. Antithetical parallelism provides an antithesis, or contrast. A verse containing antithetical parallelism will bring together opposing ideas in marked contrast. Instead of saying the same thing twice, it says one thing and then a different thing.

The more a man dreams, the less he believes.

The Antithetical Parallelism is one of common structure of proverbs. According to this examples antithesis helps to open the main ideas with antonymic words.

“The more — The less” They are comparative adjectives and it means who dreams a lot, it is impossible to make this man believe.

REFERENCES

1. . Galperin I.R. Stylistics. Moscow. 1971
2. Taylor, A. The Proverb. Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press; rpt. as The Proverb and an index to The Proverb.1931
3. Valdaeva, T. Anti-proverbs or New Proverbs: The Use of English Anti-proverbs and their Stylistic Analysis. Proverbium: Yearbook of International Proverb Scholarship 20, 379-390. 2001
4. Wales, K. A Dictionary of Stylistics (Second Edition). Essex, London: Pearson Education Limited. 2001
5. Whiting, B. J. The Nature of the Proverb. Harvard University Studies and Notes in Philology and Literature 14. 1936

ONA TILIM – O’Z TILIM

Xalillayeva Muborak Boltaboyevna

Ona tili va adabiyot o’qituvchisi

Qoraqalpog’iston Respublikasi

Amudaryo tumani 1-sonli maktab

Qancha ko’p tilni bilangiz shuncha yaxshi. Biroq odam o’z ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko’radi, ona tilida yig’laydi... O’limi oldidan onasini ona tilida yo’qlaydi. (O’tkir Hoshimov)

O’zbek tili O’zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Ilm-fan yutuqlari, urf-odat va an’analar davlat tili vositasida o’rgatiladi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to’plangan ijtimoiy tajriba ona tili orqali o’zlashtiriladi va o’rganiladi. Bola o’zining ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini ona tili yordamida yuzaga chiqaradi. U o’zini va o’zgalarni, atroddagi narsa-hodisalarni til vositasida taniydi va bilib oladi. O’zbek tili haqida gap ketganda Alisher Navoiyni tilga olmay ilojimiz yo’q. Navoiy o’zbek adabiy tilini taraqqiy ettirish, bu tilda katta badiiy asarlar yaratish, ularda mamlakat va xalq manaatlariga qaratilgan eng muhim, dolzarb masalalarini yaratish vazifalarini o’z oldiga qo’ygan edi. U o’zbek adabiy tilini kamsitgan, o’zbek yozuvchilarini mensimagan va o’zbek tilida go’zal badiiy asarlar yaratish mumkin emas deb da’vo qilgan kishilarga qarshi qattiq zarba berdi, xalqning jonli tilidan yanada keng va unumli foydalanib, o’zbek adabiy tilini boyitdi va ravnaq topdirdi. Navoiy ko’pchilik asarlarni o’zbek tilida yozib bu tilning badiiy durdonalar yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanini ko’rsatib berdi. O’zbek yozuvchilari oldiga o’z ona tilida ijod etish vazifasini qo’ydi. Ularga har jihatdan yordam berdi.

Bilamizki, o’zbek tili turli tarixiy va tuzumlar hukmronligi davrida turlicha – 1229-yilgacha arab yozuvi asosida, so’ng 1929-1940-yillar oralig’ida lotin yozuvi asosida, 1940-yildan boshlab to 1993-yilgacha krill yozuvi asosida, 1993-yildan boshlab esa yana lotin yozuvi asosida ishlatilib kelinmoqda.

Katta avlod vakillari hamon krill yozuvidan foydalanayotgan bo’lsa, maktab ta’limini 1994-yildan boshlagan va savodi lotin yozuvida chiqqan yosh avlod esa, tabiiyki, lotin yozuvidan foydalanib kelayapdi.

Til sofliğini saqlash, adabiy til qoidalari buzilishining oldini olish, davlat tilini boyitish, Vatan va millat taqdiriga befarq bo’lmagan har bir insonning burchi hamda vazifasidir.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo’yilgan. Shu tariqa o’zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog’i, gerbi,

madhiyasi qatorida turadigan qonun bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda o’zbek tilining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Hozirda mamlakatimizning barcha hududlarida “O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” qonuni qabul qilinganing 31 yilligi keng nishonlanmoqda”

Davlat tilini boyitish, yanada takomillashtirish, til madaniyatini yuksaltirish borasidagi sa’y-harakatlarni yanada kuchaytirish faqat biz o’qituvchilarning emas balki millat ertasini o’ylaydigan har bir ziyolining zinmasidagi ma’suliyat, vijdon amri ekanini unutmasligimiz kerak. O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlarini to’g’risida Prezident Farmoni qabul qilindi. Bu haqda “Huquqiy axborot” kanali xabar berdi. Farmonga muvofiq, 21-oktabr – “O’zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilindi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Departamentning asosiy vazifalaridan biri davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratini joriy etishdan iborat.

Farmonga ko’ra, davlat tili haqidagi Qonunning yangi tahriri ishlab chiqiladi, shuningdek ilmiy asoslangan yangi so’z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish bo’yicha Atamalar Komissiyasi tashkil etiladi.

Buni tashkil etishda atamalar asosan “O’zbek” tilida kiritilishini istardim, chunki hozir o’zbek tilimizga o’zlashgan so’zlar aynan ingliz, rus kabi tillarda ishlatilyapdi. Bobolardan qolgan so’zlar behuda aytilmagan, - “Qaysiki yurtni yo’q qilmoqchi bo’lsang avval uning ona tilini yo’q qil. Shunda u xalq o’z-o’zidan yo’qoladi.” Shuning uchun o’zligimiz ramzi bo’lgan ona tilimizning sofligini saqlaylik. Prezidentimiz davlat tili soligini saqlashga katta e’tibor qaratmoqda. Demak biz har birimiz bunga o’z hissamizni qo’shishimiz kerak xulosa qilib aytganda yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, yurtboshimiz omon bo’lsin. Davlatimiz doimo ravnaq topsin, zurriyotlarimiz texnologiyalarni yanada puxtaroq egallab bundanda aqlliyoq, zukkoroq, bilimdonroq bo’lib yetishsin va bizdan ko’ra baxtliyoq yashasin! Jahonda o’zbek tili va o’zbek elining obro’si tobora oshib boraversin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Uzluksiz ta’lim bo’g’inlari uchun ona tilidan muqobil dasturlar” – Toshkent O’qituvchi 1994-yil
2. “Adabiyotshunoslikka kirish” – N.Mallayev 372-bet
3. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” – O’.Hoshimov Sharq nashriyoti Toshkent 2015

INTERNET-RESURLAR

1. W.W.Uzbekem Baasiy.in – “Milliy tiklanish”

O’ZBEKISTON-MENING BAXTIM, MENING KELAJAGIM!

Qayipnazarova Aziza Sayipnazar qizi

9-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi

10-sinf o’quvchisi

Kim o’z yurtini sevmasa, u

hech narsani seva olmaydi.

(Jorj Bayron)

Vatan – kindik qonimiz to’kilgan, jonga jondosh, qalbga sirdosh eng ulug’ kalom. Vatan – muqaddas dargoh, mo’jizali maskanlari bilan yuraklarga jo bo’lgan, har qarich yeri-yu kaftdek tuprog’i zar, ko’zga gavhardir. Ona yurt misli qimmatli olmos kabi Vatan ichida yashaguvchi farzandlar uchun shunchalik ardoqlidir. Bulbul o’z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamzot ham o’z ona tuprog’ida baxt osmonini quchmog’i mumkin. Bu maskanning na bahosi, na qiyoslanuvchi qudrati bor. Vatan azaldan muqaddas sanalgan. Demak bu yurt uchun har bir farzand jon kuydirmog’i, kelajagi uchun oz bo’lsa ham nafi tegadigan bo’lib yashamog’i lozim. Samimiy insonga boshqa inson dost bo’lishga talpinganidek, or – nomusli farzandi bo’lmog’i uchun Vatan ham ona kabi intilaveradi, farzandini asrab- avaylaydi. Bu maskan qadrini faqat bir soniya bo’lsa ham musofir bo’lgan insongina tushinadi, Vatan ta’rifini aytmog’ga kalom, yozmog’ga qalam ojiz. Ona kabi jonga jondosh, ota kabi qonga qondosh bo’lguvchi kuchni aynan Vatan bera oladi. Har kim uchun Vatan yagona va takrorlanmas mo’jiza. Quyosh erta tongdan nafis nurini, iliq sehrini baxshida etayotgan mahali har bir inson qabida ajib bir tuyg’u tug’yon uradi. Ayni shunday unutilmas xotiralarni ulashguvchi shu buyuk maskan jigargo’shasi ekanligidan faxr etib, go’yoki osmonlarni zabt etgandek bo’ladi inson. Ha, shu maskan bizniki, barchamizniki.

Qalbi olov bo’layotgan ertaning egasi yosh avlod ezgu orzulari bilan O’zbekiston kuchiga kuch qo’shmoqda. Yurtimiz bugungi kunda yanada ko’rkamlashmoqda, qadamlarini katta va mustahkam tashlab bormoqda. Vatanimiz, O’zbekiston onajonimiz kabi qadrdon, ko’ngilimiz tojidir. Shunday ekan, shu yurt uchun barcha metin yurak bilan qo’rqmay orzular sari intilmog’i va har onni mustahkam poydevor bilan qurmoq uchun dadil odimlamog’i darkor.

Biz yoshlar kuchli, bilimli, sog’lom hamda yuksak ma’naviyatli bo’lib ulg’ayishimiz, ona xalqimiz va Vatanimizga mehr – u muhabbatni yuksak tuyg’u deb, yurt ravnaqini ta’minlashga hissa qo’shishni esa sharaf deb biladigan komil inson sifatida voyaga yetishimiz zarur.

Alloha shukurki, biz yashayotgan yurt jannatmakon, osmonimiz musaffo, hamma joyda tinchlik. Shu o’rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so’zlari yodga keladi:

“Mening istagim shu- xudoning o’zi yurtimizni, xalqimizni yomon ko’zlardan, hasadlardan asrasin! Shu yurtda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi inson, yurtdoshimiz baxtli bo’lsin, tinchlik va omonlik ularga hamisha yor bo’lsin”.

Albatta, biz o’qib –o’rganib, o’z iqtidorimizni yurtimizning gullab yashnashi uchun sarflashimiz, ko’ngildagidek keng, shinam xonalarda tahsil olishimiz uchun Vatanimiz tinch va osuda bo’lmog’i lozim. Zero, yurt tinchligi masalasi birinchi o’rinda turadi. Chunki, tinchlik dunyodagi eng buyuk boylik hisoblanadi. Agar tinchlik bo’lsa, hamma erkin nafas oladi, nimaiki ezgu niyat bo’lsa, ularning barchasini amalga oshirish imkoniyati paydo bo’ladi.

O’zbekiston. Ustoz shoir Oybek ta’biri bilan aytganda “Tuprog’ida oltin gullagan o’lka”. Eng shirin tushlar, eng yorqin tuyg’ular, eng go’zal orzular diyoridir bu. Mehnat, ijod va yasharish yurtidir bu:

Boshim uzra ko’rkam bir olam,

Ko’m-ko’k moviy feruza osmon.

Misoli bir tengi yo’q sanam,

Bu muazzam, bu - O’zbekiston.

Ona Vatanim - O’zbekistonim! Senga oshno bo’lganimdan beri sirdoshim o’zingsan. Orzu-yu armonlarimni, kelajagimni senda ko’raman. Quyosh o’z maskani bo’lmish osmonni tark etsa-da, ko’zlarimni yumsam-da, nursiz kunlarimda ham sen qalbmida porlab turaverasan. Ko’ngil ozorlarimni yashirib, dardlarimga malham bo’lasan. Hamisha botmos quyosh singari umr yo’llarimni yoritib, hayotimga iliqlik baxsh etasan. Vatanim, senga oshnoman, senga shaydoman. Eng pokiza hislarim sen ila totli. Sen meni hech aldamading. Sen bilan hech adashmadim. O’zinga bo’lgan ishonch, kelajakka umid - bularning barchasini anglashimga yolg’iz sen sababkorsan. Men baxtiyorman! Sababi, buyuklar yurti –O’zbekiston farzandiman!

O’zbekiston yuragim ko’zgusi, orzularim belanchagi, yuksaklarga porlab turgan umidim yulduzi, hayotimdagi eng bebaho maskan.

Mening kelajagim sen bilan, ona Vatanim!

Xulosa qilib aytganda, Vatan - ilk bor ko’zlarimni ochib ko’rgan maskan. Iliq mehri ila siylagan zamin. Qalbimning tub-tubidaga yaqin joy. Unda kechagi kunimiz, bugunimiz va ertamiz mujassam. Mening Vatanim-mening faxrim. Har bir go’shasida mustaqillik sabosi yelib, istiqlool nafasi ufurib turgan betakror diyorum. Sen mening faxrimsan, baxtimsan, kelajagimsan, aziz O’zbekiston!

YANGI DAVR TA’LIMIDA O’QITUVCHI VA O’QUVCHINING RO’LI

Talabjonov Bunyod Saidahmad o’g’li

Quvasoy shahar 27-umumiy o’rta ta’lim maktabi

tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *O’zgarayotgan ta’lim davrida o’qituvchilarga tavsiyalar berilgan. Mamlakat uchun ta’limning nechog’lik muhimligi.*

Kalit so’zlar: *ta’lim tizimi, pedagog, multikulturalizm, rivojlanish, interfaol, kreativ.*

Ta’lim sohasi boshqa sohalarga qaraganda o’zining murakkabligi bilan ajralib turadi. So’nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ta’lim sohasi ham chetda qolmayabdi. Ta’lim tizimi dunyoning turli mamlakatlarida xar hil ko’rinishda olib boriladi. Misol uchun Sharq davlatlarida ta’lim berish jarayoni qat’iy tartib-intizomga asoslangan. Yaponiyada o’quvchilar 1-sinfdan to 4-sinfgacha asosan tartib- intizom,maktab qoidalariga amal qilish hamda tozalikka rioya qilishga o’rgatiladi. Singapurda esa ta’lim berish jarayonida maktab qonun-qoidalarini buzgan o’quvchilarga jismoniy jazolar berishga ruxsat berilgan.Ko’plab G’arb davlatlarida buning aksini ko’rishimiz mumkin. Ularda ta’lim jarayonida ham shaxs erkinligi birinchi o’rinni egallaydi.So’nggi yillar dadunyoda ta’lim tizimi bo’yicha birinchi o’rinda turgan Finlandiya ta’lim tizimi buning yorqin misoli bo’la oladi. “Biz o’quvchilarni yo hayotga tayyorlaymiz, yoki imtihonga. Biz birinchisini tanlaymiz” bu shior Finlandiya ta’limining asosiy go’yasi. O’qituvchi ustozalar har doim uzoq o’tmishdan to hozirgi zamonaviy davrgacha ta’lim amaliyotida qo’llanilgan pedagogik metodlarni , interfaol usullarni muhokama qilib kelganlar. Ular darslarni o’qitishning global ijtimoiy kontekslarini o’rganish va zamonaviy ta’lim sohasidagi xilm-xillik va multikulturalizmni targ’ib etishga harakat qiladilar.

O’qituvchilar va o’quvchilar ijtimoiylashgan bilimlarni kuzatib , egallayotgan, bir paytda pedagogik metodlar ijtimoiy hodisa hamda ta’lim amaliyoti tarixini ta’kidlovchi sifatida namoyon bo’ladilar. Mening fikrimcha zamonaviy ta’lim jarayonida yuqori madaniyat va intizomga javob beradigan o’qitish va multikulturalizmni o’rganish, deb nomlangan ta’lim maqsadlariga erishish bo’yicha mulohazalar har bir zamonaviy o’qituvchi uchun keraklidir.

XXI asrda dunyoni ko’plab yangi texnologiyalar egallab olayotgan bir davrda kadrlar masalasiga qo’yilgan talab ham o’zgarib bormoqda. Kuchli xotira ,tez yodllab olish,ko’plab ma’lumotlarni biladigan kadrlardan ko’ra mavjud axborotni tahlil qila oluvchi, mustaqil qaror qabul qilaolish, vaziyatga to’g’ri yonadashuchvi kadrlarga bo’lgan talab ortib bormoqda.Chunki, hozirgi texnologiyalardan foydalanib, harqanday ma’lumotni tezlik bilan bilib olishimiz va yetarlicha manbalarga ega bo’lishimiz

mumkin. Buning uchun qo‘limizdagi mobil qurilmaga bizga kerakli bo‘lgan ma‘lumotni kiritib qidiruvga berishimiz kifoya. Hozirgi axborotlashgan davrda bi rvoqea hodisaning minglab talqini yuzga keladi. Ko‘plab axborotlar ichida xolislik bilan yoritilgan, mantiqan to‘g‘r i axborotni ajratib oladigan kadrlar tayyorlash davrning muhim talabiga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda pedagogik metodlarning turli xil shakllari yaratilgan va ta‘lim endi rasmiy ta‘limning vakolatlari emas. O‘qituvchi va o‘quvchilar ijtimoiy va jismoniy chegaralaridan holi.

Ular nimani o‘qiyotganliklari haqida ko‘proq o‘ylashlari mumkin.

Bu zamonaviy dunyoda madaniy javob beradigan ta‘limni yaratish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar eng muhim shaxslardir.

Biroq, ular buni amalga oshirishda eng muhim yetakchidirlar.

Biz g‘aroyib davrda yashayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez sur‘atlarda, tanib bo‘lmas darajada o‘zgaryapti. Suning uchun, o‘shib kelayotgan avlod bilan ishlayotgan o‘qituvchilarga tayyor bo‘lish kerak:

- O‘zgarish
- O‘z xatolarini tan olish . Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O‘qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq.
- Rivojlanish
 1. Bolalarga hurmat
 2. Tolerantlik
 3. O‘qituvchi o‘zining xizmat ko‘rsatayotganini tushunishi
 4. Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo‘lishga tayyor turish.
 5. Chegarani his qilish
 6. O‘z vazifasini tushunish
 7. O‘z-o‘zini tanqid qilish
 8. O‘z-o‘ziga sha‘ma qilish
 9. Kreativ bo‘lish

O‘zbekistonda ham shunday kadrlarni tayyorlash uchun ta‘lim tizimida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunday vaziyatda esa o‘qituvchi va o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgaradi. Endi o‘qituvchilar ta‘lim berish jarayonida olinayotgan bilimlar nafaqat test ishlash uchun yoki imtihonlardan a‘lo baho olish uchun emas, balki hayotda qo‘llayolishga o‘rgatishga yana ham ko‘proq e‘tibor qaratish lozim. Bunda fanlarning xususiyatidan kelib chiqib turli usullarga ajratish mumkin. Albatta, hislatlarning bariga ega bo‘lish oson emas. Lekin, idealga, puxta mukammallikka qarab intilish zarur.

JAMIYATDAGI HAMKORLIK - YUKSALISH ASOSI

Temur Turdibekov

*SamDU Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va
huquq talimi yo’nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada harakat, ongli munosabat, dahldorlik tushunchalarini to’g’ri tushunib olish, zolimlar qo’lida qo’g’irchoq bo’lish, chalingan kuyga raqisga tushish o’zbek farzandlariga munosib ish emasligi haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *adolat, sifat, tarbiya, javobgarlik, daxildorlik.*

Muhtaram yurtboshimiz SHavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek: “Haqiqiy ahvolni gapirgan inson bizga do’st”. Bu ayni haqiqat, biz bunga muhtojmiz, bizni yetmish yildan ziyod parazitdek qonimizni so’rgani yetadi, bizga ichki dushman kerak emas, insonlar ko’zimizni ochaylik taraqqiyot davridamiz, yuksalish zamonida yashayapmiz, qachongacha javobgarlikdan qochib yashaymiz. Zamongamas, zamonni o’zimizga moslashtirishimiz qadriyatlar, an’analar asosida barpo etishimiz bizni oldimizdagi vazifalarda biri, eng muhimi barchamiz “shaxsiy javobgarlik” jumlasini mag’zini yaxshilab ongli ravishda bir mushohada qilib ko’raylik shunda qanchalik ona vatanimizga munosib bo’lyapmiz unga biron nima bera olyapmizmi yoinki miskanadek ro’l ijro etyapmizmi, jamiyatni ruhlantiradigan, harakatga keltiradigan, uyishtiradigan yuqori kursida o’tirganlar qanchalik harakat qilmoqda, harakatlar amalda bo’lsa samaradorlik qay darajni tashkil qiladi. Ularda ayni damda ma’sulyat bilan o’z kasbida mustahkam tursa barcha rejalashtirilgan ishlarga qiyinchiliksiz erishgan bo’lardik, ularning ayrim qilayotgan ishlari odamlarni o’ylantirib qo’yadi, ishonchsizlik keltirib chiqaradi, ular uchun barcha inson teng huquqlimi, jamiyatning barcha qatlamini bir xil ko’zda ko’ra olyaptimi, bizni nazarimizda jamiyatni chekkasi yo’q bunda barcha inson teng huquqli, barchani birdek harakatga keltira olishlari zarur uddalay olmadimi marhamat yoshlarga yo’l bo’shatsa maqsadga muvofiq bo’lardik. Jamiyatni ongli qilish madaniyatli, ilmiy qilishni xohlashadimi yoki buning aksimi yoinki o’zlari hali yetarli bilim ko’nikmaga egamasmi. Hozirda bir tashkilotni emas tashkilotdagi barcha shaxslarni boshliqdan tortib farrosh, qorovulgacha tanqid ostida nazorata bo’lishi, raqobatbardosh bo’lishi kasbini sevishi lozim, barcha o’z vazifalarini sitqidilda bajarsa kamchiliklar bu darajada bo’lmasdi. Hozirgi yashab turgan davrda qancha inson o’z ammallari bilan jamiyat hayotiga aralashayapti nimadir beraolyaptimi faqat olish, foyda ko’rish bilan ovorami shunday insonlar bor nimagadir erishish o’ylantirmaydi men nogronlar, nafaqahorlar, voyaga yetmaganlarni nazarda tutmadim. Insonda ishtiyoq bo’lsa ishlaytgan ishida unim baraka bo’lad. Insonlarda jamoa mulki tushinchasini to’g’ri shakllantirish kerak, kerak bo’lsa shaxsiy mulkdan ziyodroq ko’rsin, ko’proq

o’quv dasturlarini takomilashtirish zarur, bugun o’zgartirib erta yana almashtirsak bu bekorchilarni ishi bo’lib qoladi chuqur o’ylangan, amalda natija beradigan usul bizga suvdek zarur ta’lim jarayonlarni uzliksiz ta’minlay olsak ta’lim, tarbiyada yutuqlarga erishamiz. Bizga avvalo tarbiya uni orqasidan o’zi adolat,ta’lim,kuch-qudrat ilmoqlanaveradi qulay vaqt hozir, keyin bo’lmasligi mumkin harakat qilgan odam real hayotni ko’ra oladi. Hayotni hayot bilan adashtirmaylik inson barcha narsani o’zi belglaydi halollik, poklik bizning kambag’al bo’lib tug’ilishimiz bizni aybimiz emas, ammo hech narsaga erisholmay xor-u zorlikda, nolishda kun o’tkazadigan bo’lsak bu bizni aybimiz imkon doimo topilgan xohish bo’lsa bo’lgani sizni chetga surmoqchilar qanday qilib chetda qolganini bilmay qoladi, bizga nima zarur tarbiya yaxshi ta’lim butun dunyoda hamisha raqobat ketadi bu raqobatdan aynan sen g’alaba qozonishing kerak. Bill Geytsning shunday gaplari bor ‘‘Iste’dodli odamlar salohiyati o’ziga o’xshash kishilar blan ishlashni istaydi’’ bu bizni muhitga to’g’ri keladimi, bizni ayrim masabdorlarimiz iste’dodlilar oldida paydo bo’lsa ayrimlar tagiga suv quyishni rejalashtiradi bunday salohiyat egalari hamma joyda ham topilavermaydi. Amir Temur ish tajribasidan ‘‘Ochiq yuzlilik , rahm- shafqat bilan xalqni o’zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr zulmdan uzoqroqda bo’lishga intildim’’. Adolat davlatni muhim belgisi ekan, barcha fuqarolarimizdan talab qilinadigan narsa hamisha adolat yo’lidan yurishlikdir. Albatta ta’lim- tarbiyani to’g’ri qabul qilgan har qanday shaxs adolatli yo’ldan odimlaydi unda vatanga, oilaga, kasbga va eng muhimi atrfdaglargalarga adolat nazari bilan dunyoni kashf etadi.

TIL - MILLAT KO’ZGUSI

Sapayeva Iroda Kadamovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

3-son IDUM davlat tili fani o'qituvchisi

1989-yil 21-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasining muhokamasidan so‘ng o‘zbek tili davlat tili deb e‘lon qilindi va bu tarixiy hodisa mustaqillikdan ikki yil oldin ro‘y berdi. Bu ulug‘ maqsadga erishish va tarixiy voqelikning ro‘yobga chiqarilishida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov bevosita rahbarlik qilganlar.

1992-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yildi. Yurtboshimiz aytganlaridek, «Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi».

Mustaqillik-yillarida o‘zbek tilining jamiyatimizning barcha sohalarida keng qo‘llanilayotganligi, xalqaro miqyosda kompyuter va internetda foydalanilayotgani ham ijodiyot va idoraviy ish yuritishda o‘z samarasini berib kelmoqda. O‘zbek tili xalqaro miqyosda keng va faol muloqot vositasiga aylanib, uning xorijiy davlatlar rahbarlari bilan olib borilayotgan muzokara va uchrashuvlarda, yuksak darajadagi rasmiy tadbirlarda qo‘llanilayotganligi barchamizda g‘urur-iftixor tuyg‘usini uyg‘otishini davlatimiz rahbari Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» nomli asarida alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning ushbu asarida: «...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili — bu millatning ruhidir» — deya ta’kidlab o‘tilgan.

Nafaqat mamlakatimizda, hattoki xorijiy mamlakatlarda adabiyot va san‘at yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan taniqli tilshunos olimlar, turkiy tillarning boyligi va xususiyatlari, jumladan, o‘zbek tilining jahon tillari orasida eng go‘zal va nafis til ekanligi, tarixiyligi bilan ajralib turishi haqida ko‘p yozganlar. Turli anjumanlarda ona tilimizning boy til ekanligi haqida odilona-xolisona fikrlar bildirganlar.

Mirzo Ulug‘bekning «Tarixi arba’ ulus» (To‘rt ulus tarixi») kitobida quyidagilar bayon etilgan, ya’ni: Sulton Muhammad O‘zbekxon o‘zining el ulusi bilan ilohiy saodat va fazilatga yetishgach, hazrati Sayid Otaning g‘ayb ishorati va ollohning inoyati bilan ularning barchasini Movarounnahr diyori sari olib keldi. Hazrati Sayd Otaga quloq

solishdan bo‘yin tovlaganlar bu saodatdan bebahra holda u yerda (Dashti Qipchoqda) qoldilar va «qalmoq» degan nomga mansub bo‘ldilarki, buning ma‘nosi «qolgan» demakdir. Hazrati Sayd hamda Sulton Muhammad O‘zbekxon bilan hamrohlikda Movarounnahrda kelgan kishilardan: «Bu kelgan kishilar kim?» deb so‘rardilar. Ularning sardori va podshohi O‘zbekxon bo‘lgani uchun ularni «o‘zbek» deb atadilar. Shu sababli o‘sha zamondan boshlab Movarounnahrda kelgan kishilar «o‘zbek» deb atala boshlandi.

XVI asr boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi qavmlarning Movarounnahrda kirib kelishi bilan mahalliy aholi tarkibida «o‘zbek»larning nufuzi yanada ortgan va asta-sekin bu nom turkiy aholining umumiy nomiga aylangan. Bu esa turkiy tilning tobora kengayishi va nufuzi oshib borishiga keng imkoniyat yaratib bergan.

Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra, turkiy tillar eramizning IV asrida uch guruhga bo‘lingan hamda qarluq, qipchoq, o‘g‘uz guruhlarini vujudga kelgan. Bular orasida eng qadimgi yozuv tili qarluq guruhi zaminida shakllangan azaliy o‘zbek tilidir. Tarixda eng ko‘p adabiy va ilmiy asarlar ham shu tilda ijod qilingan. Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur singari so‘z ustalari ijodi bilan bu til yanada sayqallangan va rivojlangan.

Taniqli rus tarixchisi A.P.Grigoryev shunday deb yozgan: «O‘sha paytda (XIII-XIV asrlar) Oltin O‘rdada so‘zlashuv va yozuv tili sifatida qipchoq lahjasi qo‘llanilgan bo‘lsada, rasmiy yozishmalar va adabiy matnlarda Chig‘atoy lahjasi, ya‘ni eski o‘zbek tili qo‘llanilgan».

Xulosa qilib aytganda, Oltin O‘rdaning rasmiy va adabiy tili turk tilining Chig‘atoy lahjasi, ya‘ni o‘zbek mumtoz adabiy tili bo‘lgan. Ajdod va avlodlarimizning asrlar osha say’-harakati bilan ona tili — o‘zbek tilida samarali ijod qilib, tilni qadrlab, adabiy tilni rivojlantirib, boshqa el-ulus, millat va elatlar o‘rtasida keng mushohada qilish hamda o‘zaro muloqot o‘rnatib, til madaniyatining ta’sirchanligi va nufuzini oshirib kelganlar.

Ma’rifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: «Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur»- degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi.

Abdulla Avloniyning ona tili va adabiyotni buzish, boshqa tillar bilan aralashtirib, mazmun-mohiyatini o‘zgartirish, pirovard natijada, bir tilning boshqa tildan ustun turishiga, tilning ruhiyatini buzishga qaratilgan har qanday urinish va zid harakatlarga qarshi chiqqanligi quyidagi purma’no so‘zlarida yaqqol isbotlanadi. «Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadir. Bobolarimizga etishg‘on va yaragan muqaddas til, adabiyot bizga hech kamlik qilmas. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilmoqdan iborat».

Ushbu dalillar shundan dalolat beradiki, ajdod va avlodlarimiz tomonidan yaratilgan o‘zbek tili asrlar osha rivojlanib, turkiy tillik millat va elatlar orasida keng

tarqalib, yanada sayqallashib, yuksak madaniy tilga aylanganligi va o‘zining tarixiyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida juda qizg‘in, ba’zida keskin, murossasiz bahs-tortishuvlar bo‘lganini Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarida ifodalangan va yana bir bor yodimizga soladi.

ҲУҚУҚИЙ ТАФАККУР ВА БАДИИЙ АДАБИЁТ

Жўрабоев Салимжон Иброҳимжон ўғли

Тошкент давлат юридик университети 2-босқич талабаси

Аннотация: *Мақолада ҳуқуқий тафаккур ва бадиий адабиёт билан боғлиқ масалалар муҳокама қилинади. Шунингдек, жаҳон бадиий адабиёти дурдоналарида ҳуқуқий тафаккур акс этган жараёнлар ҳам таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *ҳуқуқий тафаккур, бадиий адабиёт, “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури”, “Жараён”, “Ўлимга ҳукм қилинган кишининг сўнгги куни”, “Клод Гё”, “Венециялик савдогар”.*

Ҳуқуқий тафаккур ва бадиий адабиёт тушунчалари бир қарашда бир-бирига алоқаси йўқдек, лекин уларни чуқурроқ таҳлил қиладиган бўлсак, улар ўртасидаги боғлиқликни ва муҳим жиҳатларини кўришимиз мумкин бўлади. Жумладан, ҳуқуқий тафаккур ва бадиий адабиёт назариясига оид барча муаммолар атрофлича ўрганилиши зарур. Чунки ҳуқуқий тафаккур акс этган бадиий асарларни ўрганиш чоғида китобхонда назарий билимлар мустаҳкамланади, илмий моҳияти, ўқув жараёнининг қулайлиги ошади, адабиёт ва ҳуқуқшунослик ўртасидаги боғлиқлик амалга оширилади. Шу билан бирга ҳар бир муайян ҳолатларда тафаккурнинг турлича кўринишларини тушунишга қатъий белгиланадиган у ёки бу жиҳати устун бўлади. Чунончи, ҳуқуқий ҳаётда маърифатпарварликни шаклланишини таъминлашда инсон омилини ошириш нуктаи назаридан ёндашилганда авваламбор эътиборни ҳуқуқий тафаккур ва ҳуқуқий маданиятнинг мазмунига қаратиш зарурлиги намоён бўлади. Жамиятнинг ҳуқуқий тафаккури, маданияти ва ҳуқуқий онг қонунларни такомиллаштириш ва ҳуқуқий тажрибанинг муайян даражасини акс эттирадиган ҳамда инсоният ҳуқуқ соҳасида яратилган бутун бойликларни қамраб оладиган ижтимоий маданиятнинг бир тури сифатида кўрилади. “Жамият давлат тараққиётининг ҳозирги ҳолати ҳуқуқий муносабатлар барча иштирокчиларининг ҳуқуқий маданиятини, ҳуқуқий саводхонлигини ҳар томонлама оширишни талаб қилмоқда. Ҳуқуқий тафаккур, ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий билим, ҳуқуқий эътиқод ва изчил амалий фаолият мажмуи сифатида жамият ва давлат олдида турган вазифаларни муваффақиятли ҳал этишни таъминлайди”. [1:25 б.]

Қонунийлик аҳолининг маданий даражаси, билан, давлат органлари, жамоат бирлашмалари, мансабдор шахслар ва фукароларнинг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий тафаккури билан боғлиқ бўлади. Кишиларнинг ҳуқуқий тафаккури қанча юқори бўлса, Қонунни бузиш ҳоллари шунчалик кам бўлади. Аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини ривожлантириш учун Ўзбекистон Республикаси Олий

Мажлиси 1997 йил 29 августда «Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури» тугрисида махсус қарор қабул қилди. Мамлакатимизда иқтисодиёт, сиёсат, давлат қурилиши, ҳуқуқий тизим ва жамият ҳаёти маънавий-маърифий соҳаларида кенг кўламли ислохотлар ўтказилмоқда. Бу ислохотларнинг қонуний асоси яратилди. Шунинг учун қарорда ҳуқуқий таълим ва ҳуқуқий тарбия тизимини такомиллаштириб, кенг халқ ўртасида ҳуқуқий тарбияни мустаҳка- лаб, аҳоли маданий даражасини кўтариш вазифаси қўйилди.[2:23-33 б.]

Шундай қилиб шахснинг ва жамиятнинг ҳуқуқий тафаккури ва маданияти умуминсоний қадриятлар тушунчаларининг ва инсоният умумдемократик ютуқларининг муҳим натижасидир. Ҳуқуқий тафаккур ҳуқуқий давлатнинг ажралмас қисмидир.

Юқорида ҳуқуқий тафаккур тўғрисида атрофлича фиклар янгради. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, бадиий адабиёт ҳуқуқий тафаккурнинг бир қисми дейишга асослар етарлича топилади. Мисол учун, дунё тан олган адабиётшунос ёзувчиларнинг ҳаёти ва ижодига назар ташлайдиган бўлсак, уларнинг асарларида айнан ҳуқуқий тафаккур акс этган томонлар ҳам яққол намоён бўлади. Айниқса, Виктор Гюго, Вильям Шекспир ва Франц Кафка асарларини чуқур таҳлил қиладиган бўлсак бунга гувоҳ бўлишимиз мумкин. Жумладан, Франц Кафканинг «Жараён» романи ҳақида бирдан-бир қолипга сиғадиган фикр юритишга киши қийналиб қолади. Бири ҳақида гапирилаётганда, иккинчиси чеккага сурилаётгандай ҳолатни сезмаслик мумкин эмас. Бу роман ҳам рамзий, ҳам психологик, ҳам фалсафий, қолаверса, ҳуқуқий атамалар ва жараёнларга бой бўлган асар. Муҳими чигал, ўзгараётган дунёда жаҳолатнинг янгиланаётгани, дақиқа бир ҳаракатга эврилаётгани, энг азалий инсоний борлиққа дарз солаётгани, Аллоҳ берган яшаш ҳуқуқини тортиб олаётгани фош этилган. Бу турли-туман фикр йўналиши билан тадқиқ этишга киришилар экан, “тўхтатиб қолинган жараён” қиссасигина эмас, ҳаракатини бошлаган, жуда ҳам зимдан тобора хуфиялашиб, махфийлашиб борган залолатнинг шитоблашуви ҳақидаги асардир! [3:432 б.]

Бу дунёга Худонинг марҳамати билан келган инсоннинг энг олий ҳуқуқи – яшаш ҳуқуқи эмасми? Ўзлигини намоён этиладиган чегара, имконияти эрк туйғуси экан, эрки унинг ўзида бўлиши керак-да! «Жараён» романида ана шу бош шарт қайси мезон бўйича ҳал қилина бошланганини гувоҳи бўламиз. Бу жараён бениҳоя аянчли, ҳақсиз, сирли ва машъум.

Ўз асарларида ҳуқуқий тафаккур ва бадиий адабиётни чамбарчас боғлаб, уни атрофлича баён қилган ҳамда ўлим жазосига қарши бўлган қарашларини илгари сурган Виктор Гюго ҳам бу борада етарлича ижод қилган. Виктор Гюгонинг ҳуқуқий таълим олганлиги ҳақида деярли маълумот йўқ. Лекни француз Гюгошунос олимаси Жозетта Аше(Josette Acher) “Гюго Садоси”(“Echo Hugo”)

журналида чоп этилган “Виктор Гюго: ҳуқуқ – юридик тилга қарши” номли мақоласида Виктор Гюгонинг 1818 йилда ҳуқуқшунослик факультетига кириб таҳсил олганлиги ва Наполеон кодексларини жуда чуқур ўрганганлиги ҳақида қайд этган. [4: 129-147 б.]

Ўлим жазосига қарши илғор қарашлари Виктор Гюгонинг ижодида йирик кўламдаги мавзу ҳисобланади. Чунки у болалигидан бошлаб ўлим жазоси ижросининг шоҳиди бўлган ва ана шу жазо турини бекор қилиш бўйича бутун ижодий ва сиёсий кучини сафарбар этган. Ўлим жазосининг адолатсизлиги, шавкатсизлиги ва бефойдалиги муаллифнинг ёшлигида ёзилган асосан иккита асарида “Ўлимга ҳукм қилинган кишининг сўнгги куни” ва “Клод Гё”да ўз аксини топган. Ҳусусан, Гюгонинг “Ўлимга ҳукм қилинган кишининг сўнгги куни” асари сўзбошиси қуйидаги жумлалар билан якун топган: “Ўтмишдаги ижтимоий тизим учта устунга, яъни, руҳоний, қирол ва жаллодга асосланарди. Худолар ўтарлар, дея қандайдир овоз янграганига анча бўлди. Яқинда эса, қироллар ўтарлар, дея яна қандайдир овоз туриб, жаллодлар ҳам кетсин, дейиш вақти келди!

Шу аснода эски жамиятнинг тошлари бирин-кетин қулай бошлайди. Худоларга раҳми келганларга – Худо қолади, -дея олишди. Қиролларга раҳми келганларга – Ватан қолар. Жаллодларга раҳми келганларга эса – айтишга гап йўқ. Аммо жаллод билан тартиб ҳам йўқолади, деганига ишонманглар. Келгуси жамият гумбази ушбу даҳшатли калитсиз қуламайди”. [5: 227 б.]

Гюгонинг яна бир жиҳати борки, у инсон ҳуқуқларига оид фикрлар ва қарашлардан иборат. Унинг фикрича: “Жабр-зулмин ёмон кўраман. Ерда эса мустамлака халқлар босқинчилар зулми остида эзилиб ётибди. Туркия оёғи остидан Греция эзилганин, қонга беланган Ирландиянинг тугаётганини, Австрия ўзининг ҳассаси билан шармандаларча венециан шерни синдиришни, Вена тирноқлари билан Миланни ушлаб тураётганини кўрсам, мен ҳамма тиранларни лаънатлайман. Мен шоирни судья деб ҳис қиламан. Ўшанда мен ёқимли кўшиқларни ташлайман ва ўзимнинг лирамга мис торини кўшаман”, деган ғояларни илгари сурган. [6: 212-213 б.]

Вильям Шекспирнинг “Венециялик савдогар” комедик асарида ҳам ҳуқуқий тафаккур ва бадиий адабиёт уйғунлигини кўришимиз мумкин. Комедияда, Антонио исмли ёш Венециялик савдогар йигит хасис ва судхўр кекса Шайлок исмли яҳудийдан қарз олади. Ҳазил тариқасида, агар қарз қайтарилмаса, у ўз танасидан бир фунт¹ гўшт кесиб олишим мушқинлиги қайд қилинган тилхатга имзо чекишга рози бўлади. Буни қарангки, у айтилган муддатда пулларни қайтара олмайди. Шунда судхўр Шайлок Антониодан ваъдасини бажариш фурсати етганини таъкидлаб, судда улар ўзаро имзо чеккан тилхатни кўрсатади. Ҳақиқатдан ҳам Шайлок ҳақ эди, чунки Антонио тилхатга имзо чеккан эди. Судда

¹ 454 граммга тенг оғирлик ўлчови

ҳакамлик қилаётган Венеция герцоги Шайлоқдан шафқат қилишини сўрайди. Лекин у раҳм-шафқат керак эмаслигини айтади ва адолат истаётганини айтиб, менга бир фунт гўштимни беринг, дея гапида қатъий туради. Қасос онлари жуда яқин қолганини сезиб, у ўзи билан олиб келган узун пичоғини қайрай бошлайди.

Аммо шу пайт бошқа шаҳардан малакали ёш ҳуқуқшунос шу ишга ҳакамлик қилиш учун келади. Ёш ҳуқуқшунос Герцогнинг ҳуқуқшунос дўсти ёзган илтимосномани судьяга топширишади. Илтимосномада ёш ҳуқуқшунос бу ишни кўриб чиқишга ваколатли эканлиги айтилган. [7: 594-619 б.].

Воқеалар кескин тус олган пайтда, ҳуқуқшунос ўзининг тафаккури билан вазиятдан ўта оқилона йўл билан чиқиб кетади. Яъни, бу гаров хатида бир томчи қонни ҳам тўкиш ҳуқуқи йўқлиги ва Антонионинг бир фунт гўштини бир томчи қон оқизмасдан олишини айтиб, Шайлоқни довда қолдиради. Шу тариқа, бир фунт гўштни талаб қилган Шайлоқ, ҳуқуқшуноснинг тафаккури туфайли ҳеч вақосиз қолади. Албатта ижодкорнинг маҳоратига қойил қолмасликнинг иложи йўқ. Сабаби ижодкор ҳам бадиий адабиёт ҳам ҳуқуқий тафаккурни шундай ўзаро боғлаганки, ҳар қандай замон учун ёрқин мисолдек қолаверади.

Ҳа, бир қарашда оддийдек туюлган эди, лекин Ф.Кафканинг инсониятнинг қисмати, яшаш ҳуқуқи, эрки, кадр-қиммати, дахлсизлиги тўғрисида унинг ўзи билганларидан ташқари яна ҳам мураккаброк, яна ҳам чигалроқ мулоҳазакор асарлари, Виктор Гюгонинг ўлим жазосига қарши илғор қарашлари, инсоннинг биринчи эҳтиёжи, биринчи ҳуқуқи, биричи бурчи – Озодликдир, деган қарашлари ҳамда Вильям Шекспирнинг комедия ва драмаларида тирикликнинг устунлиги — яхшилик, меҳр-оқибат, ишонч, одамийлик, вафо, муҳаббат ва инсон эркинлиги ҳамда адолат эканлиги ўз аксини топгани ва буларнинг барчаси ҳуқуқий соҳага жуда ҳам зарур эканлигидан далолатдир.

Демак, юқоридаги фикрларни умумийлаштириб шуни айтиш мумкинки, юридик таълим даргоҳларида талабаларни ҳуқуқий адабиётлар билан таништириш ва янги ўқув методикасини жорий қилиш ҳамда юридик фанларда ўқитиш воситаси сифатида бадиий адабиётлардан ҳам бевосита фойдаланиш ёш юристларни маънавитини бойитади ва дунёни тўлиқ кўришга ўргатади. Сабаби адабий жараёнларни таҳлил қилиш ва вазиятга тўғри ҳуқуқий баҳо бериш талабаларда шахснинг маънавий-ахлоқий салоҳиятини, шунингдек, келажакда юрист сифатида касбий маҳоратини ривожлантиришга шак-шубҳасиз ёрдам беради. Чунки адабиёт асарларига асосланган муаммоли вазиятлар талабанинг билим, ижодий фаолиятини фаоллаштиради. Энг асосийси шуни англашимиз керакки, адабиётдан ҳуқуқ, ҳуқуқдан эса адабиёт яратиш — буюк ижодкорликдир. Шундай экан, ҳуқуқий тафаккур ва бадиий адабиёт уйғунлашиши туфайли ҳам ҳуқуқ ҳам адабиёт соҳасида янги ёналиш пайдо бўлиши ҳеч гап эмас.

АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. И.А.Каримов Хозирги босқичда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари. “Ўзбекистон” 1996 25-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, Тошкент, 1997, № 9, 23-33-бетлар.
3. Франц Кафка, “Жараён”. “Янги аср авлоди”, 2016 йил, 432 бет.
4. Josette Acher. Victor Hugo: le droit contre la langue juridique. //L Echo Hugo, Bulletin de la Societe des Amis de Victor Hugo, 2003, 3, p.129-147.
5. Philippe Malaurie. Droit et litteratura. Une anthologie. – Paris: Editions Cujas, 1997. – p. 227.
6. Иванов Г.Б., Калюжная Л.С., 100 великих писателей. – М: Вече 2006. С. – 212-213.
7. Вильям Шекспир, “Венециялик савдогар”. “Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1983 Тошкент, 594-619 бетлар.

DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUV ORGANLARIDA ELEKTRON HUJJAT ALMASHISH TIZIMI HAQIDA

Yuldoshev Faxriddin Normo’min o’g’li

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston

Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: *Hozirgi kunda davlat tashkilotlari o’rtasida hujjatlar o’zaro elektron tarzda aylanish tizimlari ko’p ishlatilmoqda. Bunga asosiy sabab shaffoflik va tezlikni oshirish hisoblanadi. Hujjatlarni online tarzda harakat qilishi uchun albatta kalitlardan foydalaniladi. Bu kalitlar ochiq va yopiq holatda bo’ladi. Ochiq kalit yordamida hujjatga imzo qo’yiladi va yopiq kalit yordamida bu imzo haqiqiy ekanligi tekshiriladi.*

Kalit so’zlar: *elektron hukumat, elektron hujjat, imzo, sertifikatlar, texnologiya, ochiq kalit, yopiq kalit.*

“Elektron hukumat” tizimi mutaxassislarining fikricha, davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi iqtisodiyotning rivojlanishini tezlashtirish imkoniyatini yaratadi, ma’muriy buyruqbozlik asosida kelib chiqadigan sarf-xarajatlarni kamaytiradi, davlat tashkilotlarining ish unumi va samarasini oshiradi, aholining turli axborotlarga bo’lgan ehtiyojini qondirish hisobiga fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo’yicha imkoniyatlarni kengaytiradi, davlat xizmatlarining faoliyatidagi shaffoflikni yaratadi va byurokratik to’siqlarni kamaytiradi.

“Elektron hukumat” tizimining muhim belgisi – oflayn xizmatlar o’rniga onlayn xizmatlarning joriy qilinishi. Ma’lum bir hujjat uchun yana boshqa o’nlab idoradan hujjat to’plashga chek qo’yilishidir. Qanday qilib? Davlat idoralarining ma’lumotlar bazasi va axborot tizimlarini integratsiya qilish, ularni o’zaro bog’lash orqali. Ayniqsa, biznes jarayonlarini qayta injenering qilish orqali qisqartirish kerak. Odamlarga onlayn tarzda ariza topshirish va xizmatlarni olish, ma’lumotlar, ariza topshirish va hokazo xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratish axborotlashgan jamiyat omillaridir.

Shunday qilib, “Elektron hukumat” tizimi quyidagi asosiy maqsadlarni o’z ichiga oladi: aholi va biznesga davlat xizmatlarini ko’rsatishni optimallashtirish; aholini davlat boshqaruvidagi ishtirok etish darajasini oshirish; fuqarolarning o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish imkoniyatlarini kengaytirish va qo’llab-quvvatlash; geografik joylashish ta’sirini kamaytirish. “Elektron hukumat” tizimini yaratish arzon va samarali ma’muriy boshqaruvga olib kelishi bilan, jamiyat bilan davlat o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tubdan o’zgartiradi, buning natijasida hokimiyatning xalq oldidagi mas’uliyati oshadi.

Shunday ekan mazkur ish O’zbekiston Respublikasi "Elektron hukumati haqidagi" qonuni muvofiqligida, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat

elektron xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tartibini takomillashtirish to’g’risidagi” 2016 yil 02 iyundagi 184-sonli, "Elektron hukumat to'g'risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirishni davom e'ttirish chora tadbirlari haqidagi" 2016 yil 3 iyundagi 188-sonli qarorlarini va ushbu qarorlar ijrosini nazorat qilish bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 03 iyundagi 08/1-832-sonli rejalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining tasdiklangan jadavaliga asosan 2017 yilning 14 va 28 mart kunlari “Elektron hukumat” markazida xo’jalik boshqaruvi organlarining AKT bo’yicha ixtisoslashgan tarkibiy bo’linmalari rahbarlari uchun mo’ljallangan navbatdagi “Xaftalik kollegial seminarlar”ning 1 va 2 sonli bayonnomalarida belgilangan ayrim vazifalarni bajarishga qaratilgan.

Korxonalarda uzoq muddatli saqlashga mo’ljallangan yoki uzoq muddatli saqlashni nazarda tutadigan hujjatlarni yaratadigan ko’plab tizimlar mavjud: ERP, HR, ECM. CRM va boshqalar. Lekin barcha tizimlarda talablarni bajarish uzoq va qimmat.

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma’lumotlarga) ega bo’lgan axborot elektron hujjatdir².

Bizning tizimimiz ham aynan Elektron hujjat texnika vositalaridan, axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Odatda hujjatlarni *an’anaviy* tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o’ynaydi. Chunki pochta xizmatining asosiy vazifasi jo’natmalarni o’z manzillariga etkazib berishdan iboratdir. Ushbu holatda hujjatlar konvertga solinadi va aloqa bo’limiga topshiriladi. Shundan so’ng pochta xizmati xodimlari tomonidan hujjat kerakli manzilga jo’natiladi va yetkaziladi. *Elektron hujjatlarni almashish tizimi* esa an’anaviy hujjat almashish tizimidan biroz farq qilinadi. Bunda hujjat elektron ko’rinishda kompyuter, telekommunikatsiya va Internet tarmog’i orqali uzatiladi. Elektron hujjatlarni almashish jarayonida maxsus ixtisoslashtirilgan tizimlardan (E-hujjat) yoki elektron pochta xizmatidan foydalaniladi.

Elektron hujjat almashish tizimlarida hujjatlarni uzatish juda tezkor amalga oshiradi.

Imzo – hujjatning haqiqiylikini va yuborgan jismoniy shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlaydigan insonning fiziologik xususiyati. Imzo orqali insonning shaxsi hamda u yozgan hujjatning haqiqiylikni aniqlanadi.

Muhr – hujjatning haqiqiylikini va biror bir yuridik shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi isbotdir. Muhrlar o’zining alohida shakliga ega bo’lib, asosan hujjatlarning va undagi imzolarning aslligini tasdiqlaydi.

² O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to’g’risida”gi 2004 yil 29 apreldagi 611-II son Qarorida shunday ta’riflanadi.

Elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini *elektron raqamli imzoning* yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo³.

Elektron raqamli imzo - xabar yoki hujjat yaxlitligini va muallifining haqiqiylikini tekshirishda qo‘llaniladigan va shaxs imzosini to‘laligicha o‘rnini bosa oladigan hujjatga tegishli isbotdir. U axborot - kommunikatsiya tizimlari orqali uzatilayotgan hujjatlarni va axborotlarni haqiqiylikini tekshirishda qo‘llaniladi.

Elektron raqamli imzodan muhr o‘rnida ham foydalanish ham mumkin, bunda faqat va faqat hujjatga tegishli elektron raqamli imzo hujjatdagi barcha o‘zgarishlarni yoki o‘zgartirishlarni ko‘rsatib beradi. Buning uchun elektron raqamli imzo yuridik shaxs nomiga, ya’ni kompaniya va tashkilotlar nomiga ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Elektron hujjatning rekvizitlari. Elektron hujjatning rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- elektron raqamli imzo;
- jo‘natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jo‘natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- jo‘natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Qonun hujjatlari asosida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvida boshqa rekvizitlar ham belgilanishi mumkin.

Elektron kalitlar va sertifikatlar. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - bu faqat hujjat muallifiga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni hosil qilish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti bu elektron hujjatning kim tomonidan yuborilganligini aniqlash va uni haqiqiylikini tasdiqlashda qo‘llanilishi mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi.

Elektron sertifikatlar - bu sertifikatsiya tizimi qoidalariga binoan belgilangan talablarga ko‘ra elektron raqamli imzo vositalarining muvofiqligini tasdiqlash uchun hamda elektron raqamli imzo kalitining sertifikati elektron raqamli imzoning ochiq kalitining elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga ro‘yxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjat.

Elektron hujjat almashish tizimlari - elektron hujjatlarni axborot-kommunikatsiya tizimi orqali jo‘natish va qabul qilish jarayonlari yig‘indisi⁴. Elektron hujjat aylanishidan

³ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi 2003 yil 11 dekabrda 562-II son Qarorida shunday ta’riflanadi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi 2004 yil 29 aprelda 611-II son Qarorida shunday ta’riflanadi va faoliyat yuritadi.

bitimlar (shu jumladan shartnomalar) tuzish, hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin. Turli kompaniyalarning avtomatlashtirilgan tizimlari orasida standartlashtirilgan shakldagi ish hujjatlarining (buyurtmalar, hisob raqamlari va h.k.) ma’lum shakldagi elektron almashinuvi elektron hujjat almashinuvi tizimini belgilaydi.

Ularni boshqarish yoki funktsional imkoniyatlarini ta’minlash maqsadida axborot dasturiy ta’minotlar, avtomatlashtirilgan tizimlar kabi masalalar zamon talabi bo’lib qolmoqda va Respublikamiz tomonidan ustivor yo’nalishlaridan biri bo’lib kelmoqda. Ushbu tatqiqot aynan shu yo’nalishga bag’ishlangan bo’lib va mavzu dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi.

- ✓ Elektron hujjat almashish tizimlarning xususiyatlari va muammolarini aniqlash.
- ✓ Elektron hujjat aylanish tizimini tashkil qilish uchun agent yondashuvini tanlashni asoslash va agent texnologiyasidan foydalangan holda (Elektron Hujjat Almashish) yaratishning ratsional sxemalarini o’rganish.
- ✓ Elektron hujjat aylanish tizimni tashkil qilish modelini ishlab chiqish va dasturiy texnologiyalaridan foydalangan holda ish oqimi va uning xususiyatlarini o’rganish.

Shuningdek:

- ✓ Hujjatlarni yuborish va qabul qilish.
- ✓ Hujjatning imzosini tekshirish.
- ✓ Hujjatlar holatini kuzatish.
- ✓ Hujjatlarni saqlash va ularning xavsizlik masalalari.
- ✓ Hujjatlarni qidirish.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Yusupova Gulmira Nuriddin qizi

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani

19-umumta’lim maktabi biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirish yo’llari haqida tushunchalar keltirib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *kompetensiya, innovatsiya, metod, interfaol metodlar, didaktik o’yinlar.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ta’lim sohasida muhim qadam bo’ldi. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog’liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi esa ta’lim-tarbiya ishlarining qay yo’sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Shu bois mamlakatimizning istiqbol yo’lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, yoshlarning zamon talablari bilan uyg’unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Fan-texnika taraqqiy etgan, axborot almashinuvi kuchaygan tezkor zamonda mamlakatimizning barcha sohalarida bo’lgani kabi ta’lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Fan-texnika asri va jadal taraqqiy etayotgan hayot o’quvchilarda o’quv predmetlari bo’yicha faqatgina bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishning o’zi yetarli emasligini ko’rsatmoqda. Ta’lim jarayoniga o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo’llashga o’rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSlarni yaratish va ta’lim jarayoniga qo’llash zaruriyati yuzaga keldi.

“Competence” so’zi “to compete” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So’zma-so’z tarjima qilinsa, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosida keladi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, *kompetensiya, kompetentlilik* o’ta murakkab, ko’p qismli, ko’pgina fanlar uchun mushtarak bo’lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko’ra, ham ma’no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik",

"uquvlilik", "xossa", xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflandi va umumiy holatda quyidagi tayanch kompetensiyalar ishlab chiqilib tasdiqlandi:

- a) o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
- b) axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
- c) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- d) milliy va umummadaniy kompetensiya;
- e) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Inson tafakkuri bolalikdan shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoni kontseptual asosda, yagona tizim va aniq chora-tadbirlar ko‘lamida, barcha bosqichlarda va hududlarda muntazam va uzluksiz olib borish zarur.

Ma’lumki, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishdan maqsad, ularda tez o‘zgarayotgan dunyoda o‘z o‘rnini topish, jamiyatda qiynalmasdan yashashi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ta’lim berish jarayonida har bir pedagog qanday qilib, qanday usullar bilan dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish mumkin degan haqli savol tug‘iladi. Davlat ta’lim standartlari talablariga asoslangan holda mustaqil O‘zbekistonning yosh avlodiga ta’lim-tarbiya berish o‘qituvchilarga ma’suliyatli vazifalarni yuklaydi. Hozirgi vaqtda o‘qituvchilar oldida fan asoslarini o‘qitishning ilmiy-nazariy saviyasini ko‘tarish, o‘qitish usullarini takomillashtirish natijasida dars samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashdek ishlar turibdi va bu vazifalarni bajarishda yangi pedagogik izlanish natijalarini amaliyotda joriy qilish dolzarb muammolardan biridir. Xususan, biologiya fanini o‘qitishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish bilan dars o‘tilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarni dars jaroayoniga qiziqishini oshirish ta’lim-tarbiya jarayoninng sifatini oshirishni ta’minlaydi. Bu jarayon ayniqsa o‘quvchilarni o‘qitishda yanada muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Abdullayeva Sh. Ta’limda o‘qituvchi shaxsi va o‘quvchi faoliyatini uyg’unlashtirish texnologiyalari // Molodoy uchyon, 2016. 9-son.
3. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. № 4, B.60-73
4. www.e-adabiyot.uz – Elektron adabiyotlarga oid sayt.
5. www.ziyonet.uz - Ijtimoiy axborot ta’lim portal.

МАКТАБДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЯНГИ ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАРНИНГ ЎРНИ

Мадалиева Муслима Рахматовна.

Наманга вилояти, Чуст тумани

1-мактаб Технология фани ўқитувчиси.

Аннотация: *Технология фани таълимида ўқувчилар ҳамма ўқув материалларининг муаммоларини мустақил ҳал қилиш йўли билан ўзлаштириши муаммоли таълим дейилади.*

Ключевые слова: *Муаммоли амалий топшириқлар. Педагогик усул. Кўрсатмали метод.*

2017-2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистонни янада ривожлантириш ҳаракатлар стратегиясида мактабларда таълим ва тарбия жараёнларини ривожлантиришга оид устивор мақсадлар белгиланган бўлиб, улардан бири ўқувчиларни фанга қизиқтириш ва бунинг учун инновацион таълим технологияларидан кенг фойдаланиш назарда тутилган. Шунинг негизида мактабда технология фани таълимини ривожлантириш ва сифатли амалга ошириш ниҳоятда муҳим ҳисобланади.

Технология фани таълимида ўқувчилар ҳамма ўқув материалларининг муаммоларини мустақил ҳал қилиш йўли билан ўзлаштириши муаммоли таълим дейилади. Бунда ўқитувчининг тушунтириши ҳам репродуктив ҳолати ҳам, масалалар ечиш ҳам ўқувчиларнинг машқларини бажариши ҳам бўлади.

Муаммоли амалий топшириқлар одатда маълум ва номаълумни ўз [ичига олади](#), аммо ҳаракат усуллари билан боғлиқ бўлади. Бунда топшириқларни бажариш натижасида ўқувчи янги ҳаракат усулини топиши ёки маълум усулни янги шароитларда қўллаши керак. Масалан, ўқувчи қизларга мустақил равишда бир хил топшириқни берилса, ижодий ёндошган ҳолда ҳар хил намуналар тайёр бўлади. Биргина чучвара тайёрлашда ҳам турли усуллар ва шакллардан фойдаланса бўлади.

Муаммоли таълим ғоялари ҳар хил сабабларга кўра ҳали технология фани таълимида кенг қўлланилмаётир. Бунинг сабаби технология фани дарсларида муаммоли таълимнинг самаралилиги эмас, балки уни қўллашнинг маълум қийинчиликлар билан боғлиқлигидадир.

Технология фани дарсларида ҳам анъанавий, ноанъанавий, интерфаол методлардан кенг фойдаланиш мумкин. Улардан энг яхшиси бу ўтилаётган мавзунинг ўқувчилар томонидан самарали ўзлаштирилишига хизмат қиладиганидир.

Метод-лотинча сўз бўлиб, ўқитишнинг янги йўлини излаш, тушунтиришнинг осон усулини топиш, қидириш деган маъноларни англатади. Ўқувчиларни билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш ва улар томонидан ўзлаштириш усуллари ўқитиш методи деб аталади. Таълим методларини танлаш аввало, ўқув материалининг ва ўқув вазифаларининг характерига боғлиқ.

Технология фани таълимига доир ўқув вазифалари мактабдаги бошқа фанларнинг ўқув вазифалари ўқувчиларга янги билимлар бериш, кўникма ва малакаларни таркиб топтириш, билимларни амалда қўллаш ва ҳ.к. Билим асосан бир хиллиги учун таълим методлари ҳам деярли бир хил бўлади. Бу гап энг аввало назарий машғулотларга тааллуқли бўлиб, бундай машғулотлар юқори синф ўқув дастурларида бевосита назарда тутилган. Технология фани дарслари умумдидактик тавсиялар асосида назарий ва амалий шаклда олиб борилади. Амалий машғулотларда ўқув материалининг характерига кўра технология фани бўйича амалий машғулотлар бошқа ўқув фандагидан фарқ қилади, бу эса таълим методларидан фойдаланишда қатор ўзига хос хусусиятларни келтириб чиқаради.

Технология фани кўникма ва малакаларини шакллантириш технология фани таълими методикасида жуда муҳим ўрин тутди. Шу сабабга кўра, технология фани таълими фанида назарий ва амалий ўқув машғулотларида дарс усуллари ва услублари кўриб чиқиш зарурати туғилади.

Дарс жараёни фақат педагогик усул (метод) ва услуб (методика)лар орқали амалга оширилиб, улар дарснинг ажралмас қисми ҳисобланади. Ўқитувчисиз ва ўқувчисиз ҳамда ўқув дастури ва режасиз дарс ўтиб бўлмаганидек, педагогик усул ва услубларсиз дарснинг самарали ташкил этилишини амалга ошириб бўлмайди. Кўрсатмали методни технология фани дарсларида кенг фойдаланиш юқори натижаларга олиб келади. Унда асосан ўрганиладиган объектлар, жараёнлар ва уларнинг тасвирини намоиш қилиш ва ўқув қуроллари билан ишлаш каби усуллар орқали амалга оширилади. Технология фани таълимида кўрсатмали методнинг хусусияти шундан иборатки, бунда кўрсатмалилик кўпинча ўқув материалига иллюстрация сифатида эмас балки унинг ўзи билим манбаи бўлиб кўп ҳолларда эса кўникма ва малакаларни шакллантириш усули бўлиб хизмат қилади.

Ушбу метод намоиш қилиш, амалда кўрсатиш ва саёҳат дарслари сифатида ташкил этилади.

Технология фани таълими жараёнида татбиқ қилиш ҳар бир янги операцияни қисқа муддатли машқларда бошлаш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатмоқда. Ушбу ўқув машғулотлари амалий характерга эга бўлган дарслар бўлгани учун бундай дарсларни баён этишда лаборатория- амалий методи, машқ методи ва техник адабиётлар ва ҳужжатлар билан ишлаш методларидан фойдаланилади.

Юкоридагилар асосида шундай хулоса чиқариш мумкинки, таълим сифати ва самарадорлигини оширишда муаммоли ўқитиш методлари жуда муҳим рол ўйнайди. Чунки муаммоли таълим ўқувчини изланишга, ижодкорликка, эркин фикр юритишга ўргатади. Ўқувчида бундай сифатларнинг шаклланиши, ўқув - билув масъулиятини оширади, мустақил билим олиш, изланиш унинг кундалик одатий ишига айланади. Бу эса ўз навбатида, таълим мазмунини, такомиллашган стандартлар, модернизация қилинган дастурларни тўла ўзлаштириб олишга кафолат бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ишмухамедов Р. Ўқув жараёнида интерфаол услублар ва педагогик технологияларни қўллаш услубияти. - Т.: РБИММ, 2008. – 68 б. 2. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ М.:Айрис-пресс, 2006.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ШКОЛЕ

Махкамова Дилдора

Юнусобод 327-школа

Учитель русского языка и литературы

***“Мактабда уқитиш методикаси узгармаса таълим сифати ҳам
мазмунни ҳам, муҳитни ҳам узгармайди “
Ўзбекистон Республикаси Президенти
Ш.Мирзиёев***

Я хочу дать силы и мотивацию учителям, чья профессия связана с детьми, вырастающими и строящими наше будущее. Когда я провожу урок с учениками, мне кажется, урок по плану уже вышел из моды, надо ещё что-то добавить к Пушкину, Лермонтову, и каждый урок я добавляю цитаты великих людей и рассказываю о них как они стали богатыми (например о Рокфеллере, Генри Форте, Д.Трампе Р.Киосаки особенно пользуюсь книгой Ким У.Джунг открывший компанию ДЭУ). Их цитаты мы пишем и переводим и разбираем, что кроется в этих словах. Когда и кажется, что весь мир настроен против тебя, помни, что самолёт взлетает против ветра (Г.Форд). Всё можно сделать лучше, чем делалось до сих пор.

Если вы думаете что бы способны на что-то, вы правы, если вы думаете что у вас не получится что-то вы тоже правы (Г.Форт). Самые главные учителя детей это их родители. Самка паука откладывает яички на коре дерева. Наступает время, и из каждого яйца на свет появляется маленький паучок. Самка, жалея себя носит пищу и кормит малышей. Когда паучата сами начинают промышленять, самка погибает. Так самка паука жертвует собой, чтобы дать жизни потомству. Это истинное материнство. Жизнь паучатам в буквальном смысле слова, даётся за счёт смерти их матери. Без жертв одного поколения на бывает и процветания и развития другого поколения. Счастливо молодое поколение, выросшее благодаря своим родителям, которые работали ради детей и учили их уму разуму. И наоборот, несчастливо поколение, у которого были ленивые нерадивые родители. Оно будет расплачиваться дорогой ценой за впустую растроченные родителями время и имущество. Я знаю многие семьи обеспеченные. Это результат самоотверженности старших поколений. Берите пример с мира природы вспомните самку паука. Мы учителя в прямом смысле слова родители своих учеников. Фруктовое дерево, посаженное дедом, будет плодоносить при внуках. Найдутся ли люди, которые не станут сажать фруктовые деревья из-за того только, что сами не дождутся плодов. Если бы каждый думал лишь о себе и не сажал

деревьев, выросла бы на этой земле хоть одна яблоня? Не бывает жертв ради себя. Жертвы возможны только тогда, когда ты ставишь интересы других выше своих собственных, интересы завтрашнего поколения, выше интересов сегодняшнего, общие интересы выше личных. Так и в нашей жизни. Если одно поколение самоотверженно трудится, то другое сможет пожинать плоды. Но если поколение, которое должно чем-либо пожертвовать ради потомства, не сделает этого из-за сиюминутных своих интересов, оно станет помехой на пути к процветанию и богатству для следующего поколения. Это большая потеря и за попросту глупость.

Мы должны помнить молодое поколение 1941-45 гг., жертвовавшим своей жизнью, ради нас, ради своих детей, ради мам и сестёр. Мы живём в эпоху, когда авторитетом пользуется специалист. Он лечит болезни, которые никому другому не вылечить. В чем причина того, что среди множества писателей в памяти остаются Пушкин, Лермонтов, Достоевский, Навои. Мы знаем потому, что они специалисты в литературе. Они в литературе достигли того чего не смогли другие. Будьте же специалистами! Новаторство составляет суть развития человечества. Человеку свойственно творить. Создавать новое стремится вырваться за пределы достигнутого. Что надо быть творческой личностью. Только творчески мыслящий человек может делать историю, изменять мир. Средний учитель рассказывает, хороший учитель объясняет. Очень хороший учитель демонстрирует. Великий учитель вдохновляет! Настоящая цель каждого учителя в том, чтобы внушить своё мнение другим, а в том, чтобы разжечь умы других. Ученые провели исследование на тему “Что такое счастье?” и пришли к выводу, что счастье- это то, что принадлежит не только тебе. Ты счастлив, когда даришь радость, вдохновение, надежду, доброту другим людям. И от этого счастье только умножается.

Наполеон сказал: Что будущее судьба ребёнка всегда есть дело его матери. И если справедливо, его судьбу, то, без сомнения, никто другой в такой мере не создаёт судьбы, ребёнка, как мать, которая пробуждает на нём первые знания, первые чувства и желания. Какого вы воспитываете, таков впоследствии из него бывает человек.

МИЛЛИЙ ҒОЯ ТАРҒИБОТИДА ЁШЛАРНИ МАФКУРАВИЙ ХУРУЖЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ, УЛАР ҚАЛБИДА ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Sultanova Sabohat Baxtiyarovna
Xorazm viloyati Urganch shahar
3-son IDUM davlat tili fani o'qituvchisi

Маълумки, ҳар бир халқ, миллатнинг ўзига хос ва ўзигагина мос осори атиқалари, яъни тарихий мероси, анъана ва урф-одатлари мужассам. Давр силсиласими, турли тузумлар сиёсатими, инсонларнинг дунёқарашидаги тазйиқ остидаги ўзгаришларми, асрлар оша бизгача етиб келаётган маънавий бойликларга эътибор сусайди.

Ўзбек халқининг ҳам миллат бўлиб шаклланишида ана шу халқнинг маънавий ўзлигини таниб унга интилиши муҳим эди. Нил дарёси бўйидаги ярим оролда ҳамюртимиз Аҳмад ал-Фарғонийнинг ҳайкали салобат тўкиб тургани, аз-Замахшарий бўлмаганида ўзбек деган миллатни дунё ҳозиргидек танимаслигини, араблар эса тан олгани ва бошқа олиму фузалоларимиз моддиятдан маънавиятни устун қўйганлигидадир. Истиқлол шабадаси ана шу нурли эзгулик йўли дарвозаларини ланг очди. Айниқса, ўзбек модели, менталитетини халқимиз, ёшларимиз онги ва шуурига сингдириш шу куннинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолди.

Агар биз Ўзбекистонимизни дунёга тараннум этмоқчи, унинг қадимий тарихи ва ёруғ келажагини улуғламоқчи, уни авлодлар хотирасида боқий сақламоқчи бўлсак, авваламбор буюк шоирларни, буюк ижодкорларни тарбиялашимиз керак. Нега деганда, улуғ адиб Чўлпон айтганидек, адабиёт яшаса - миллат яшайди.³ Таъкидланганидек, ёшлар ўртасида ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда айниқса, адабиётнинг имкониятлари каттадир.

Бинобарин, адабиётнинг нияти эзгулик, шиори озодликдир. Ундаги ҳар бир асардан ана шу фазилатларни топиш ва тарғиб этиш мумкин. Айтайлик, Махмудхўжа Бехбудийнинг "Падаркуш" драмасида кўрсатилганидек, ўқимаган боланинг ота қотилига айланиши, Фитратнинг "Абулфайзхон" драмаси қаҳрамони Иброҳимбий тимсолини таҳлил этиш билан юртпарвар, адолатпарвар инсоннинг мангуликка даҳлдорлигини, А. Қодирийнинг "Ўтган кунлар", "Меҳробдан чаён" романларидаги Юсуфбек хожи, Отабек, Мирзо Анвар образларини тушунтириш орқали ҳар қандай вазиятда ҳам ўз ниятидан қайтмайдиган - юрт манфаатларини ҳимоя қилганликларига урғу бериш орқали ёш авлод қалбига талай яхши фазилатлар уруғини экиш мумкин. Ҳар ҳолда бундай тарғибот усуллари ҳамда воситалари ёрдамида нафақат ёшлар ўртасида,

балки ўз болаларининг бугун нима билан машғуллигига эътибор бермай, эртасини барбод қилаётган ота-оналар, акалар ва умуман кенг жамсатчиликнинг кўзини очиш мумкин.

Ватанимиз мустаққиликка эришгандан сўнг маънавий жараёнларни изчиллик билан олиб бориш, халқимиз айниқса, ёш авлод онгига она юртга муҳаббат, қийинчилик билан эришилган истиқлолга шукрона, садоқат тўйғуларини чуқур сингдириш, ўз-ўзини англаш масаласи асосий вазифа қилиб олинди.

Миллий мафкура, миллий ғурур, миллий ифтихор тўғрисида гап борар экан, энг аввало бу туйғуни ёшларда шакллантириш муаммоларини ҳал қилишимиз керак бўлади ёки фарзандларимиз юрагида ана шу Ватанга, бой тарихимизга, ота-боболаримизнинг муқаддас динига соғлом муносабатини қарор топтириш, таъбир жоиз бўлса, уларнинг мафкуравий иммунитетини кучайтиришимиз зарур бўлади.

Бундан кўринадики, Республикамиз ўз ривожланиш йўлидан тезроқ бориши учун халқ маънавияти, турмуш тарзини, миллий ғурурини бетўхтов юксалтириб бориш зарур бўлади. Маълумки, маънавий жиҳатдан қолоқ мамлакат ҳеч қачон буюк мамлакат бўла олмайди. Демак, ривожланиш тақдирини маънавий жиҳатдан етук кишилар ҳал қилади. Маънавий етукликни ватанпарварликсиз тасаввур этиб бўлмайди.

Ватанпарварлик Шарқ халқларида энг аввало, ўз ватанини, халқини, тупроғини севиш, уларнинг моҳиятини англаб етиш, уларнинг олдида турган улкан вазифаларни ҳал қилиш тушунилади.

Ҳозирги пайтда халқаро майдонда мафкуравий, ғоявий, информацион курашлар кучайиб бораётган мураккаб ҳамда таҳликали даврда миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини оширишни замон талаблари асосида ташкил этиш асосий вазифа бўлиб қолмоқда. ”Ёшларимизни турли мафкуравий хуружлардан ҳимоя қилиш, юртдошларимизни ҳаётга онгли муносабатини шакллантириш, теварак-атрофда юз бераётган воқеаларга эътиборлилик ҳиссини ошириш керак”⁵,-деган эди биринчи президентимиз И.А.Каримов. Зеро, мамлакатимиз мустақиллиги, тинч-осойишта ҳаётимизга туғдириш мумкин бўлган тажовузларга қарши изчил кураш олиб бориш ва доим тайёр туриш ҳар биримизнинг бурчимиздир.

Шунинг учун ҳам, ривожланиш билан бирга турли хил мафкуравий жараёнлар пайдо бўлаётган бир даврда, ёшларимиз қалбида миллий тафаккур ва соғлом дунёқарашни мустаҳкамлаш, уларнинг онгли яшашга, ўз фикрига эга бўлишга, турли маънавий тажовузларга қарши собит тура олишга қодир бўлган иродали, фидоий ҳамда ватанпарвар инсонлар этиб тарбиялаш бугунги куннинг долзарб муаммоси ҳисобланади. Бу эса, миллий ғоянинг тарғибот ишларини

⁵ “Халқ сўзи” 2006 йил август сони “Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий маърифий ишлар самарадорлигини ошириш чора тадбирлари тўғрисида”Президент қарори

таъсирчанлигини таъминлайдиган замонавий ахборот технологиялари ва механизмларини яратиш, ёшларимизнинг мафкуравий иммунитетини кучайтириш лозимлигини тақозо этади. Бунинг учун унинг самарали усулларини ишлаб чиқиш, ҳаёт тарзимизга зид бўлган ақидапарастлик, экстремизм, терроризм каби мафкуравий хуружларнинг моҳиятини чуқур очиб бериш ниҳоятда зарурдир.

Демак, миллий ғоя тарғиботи масаласи ўз Ватанига ҳурмат-эҳтиром ва бағрикенглик руҳида тарбиялашга, жамиятда соғлом турмуш тарзини, ўзаро меҳр-оқибат муҳитини мустаҳкамлашга қаратилган экан. Бунда ҳар бир ўзини ўзбекман деган шу юрт фуқароси биргаликда ҳаракат қилиши, уларнинг қалбида миллий ғурур, миллий ифтихор туйғулари билан яшаш кераклигига ишора қилсин. Ана шундагина биз олдимизга қўйган вазифани тўлиқ бажарган бўламиз. Истиқлолни ҳимоялаш, уни қадрлаш, улуғлаш, ватанпарварлик, унга ҳизмат қилиш бизнинг онгимизга, ақидамизга айлансагина бизни танлаган йўлимиздан ҳеч қандай куч йўлимиздан қайтара олмайди, қаддимизни бука олмайди. Шундай экан Ватанпарварлик эътиқоди ҳар биримизнинг қонимизга сингиб, келажак авлодларга муқаддас мерос бўлиб ўтиш керак.

ФАКТОРЫ РИСКА, ЭТИОЛОГИЯ НЕРАЗВИВАЮЩЕЙСЯ БЕРЕМЕННОСТИ

Нормухаммедова Манзура Махсатулло кизи

Джурабекова Сурайё Тахировна

кафедры акушерство и гинекология, детская гинекология

Ташкентский Педиатрический Медицинский Институт

УДК: 618. 333-08-07

Аннотация : Среди различных форм невынашивания беременности особое место занимает несостоявшийся выкидыш (*missed abortion*), т.е. гибель эмбриона или плода в раннем сроке с длительной задержкой его в полости матки – неразвивающаяся беременность (НБ).

Ключевые слова: *неразвивающаяся беременность, этиология, факторы.*

Эрта муддатдаги эмбреон ёки хомила улими бачадон бушлигида узок вақт ушланиб қолиши - ривожланмаган хомилаторлик (РХ) хомила тушишининг турли шакллари орасида асосий уринни эгаллайди.

Таянч сўзлар: *ривожланмаган хомилаторлик, этиология, хавф омиллари.*

Abstract: *Among the various forms of miscarriage , a special place is occupied by a failed miscarriage, death of an embryo or fetus in an early period with a long delay in the uterine cavity – undeveloped pregnancy.*

Key words: *missed abortion, etiology, factors*

Неразвивающаяся беременность это - репродуктивные потери представляют собой невосполнимую утрату жизненного потенциала популяции, поскольку нерожденные дети - это безвозвратная потеря человеческого капитала (1, 2). Причины неразвивающейся беременности разнообразны, но в первом триместре наибольшее значение имеют генетический, инфекционный, эндокринный и аутоиммунный факторы (3, 4).

Принято считать, что НБ - полиэтиологическое осложнение беременности, в основе которого лежит хронический эндометрит (ХЭ) По мнению некоторых авторов, ХЭ является причиной репродуктивных потери в 30-35% случаев (2,6). Следует подчеркнуть, что 80-90% - это женщины репродуктивного возраста (1, 3). Это обуславливает психосоциальный аспект данной проблемы, в связи с тем, что несостоявшаяся беременность становится тяжёлой психической травмой, нередко приводящей к отказу от последующей беременности (5, 6).

Цель исследования : изучить особенности этиологии, эпидемиологии НБ у женщин, госпитализированных в гинекологическое отделение 4-ГКБ г.Ташкент

Материал и методы исследования

Проведен проспективный анализ 30 историй болезни женщин, поступивших в гинекологическое отделение с диагнозом: «Неразвивающаяся беременность».

При поступлении больные предъявляли жалобы на тянущую боль внизу живота и кровомазание 16(53.3%). У 9(30%) больных выделения крови из половых путей были обильные.

Для реализации поставленной цели были использованы клинико-эпидемиологический, инструментальный – ультразвуковое исследование (УЗИ), лабораторные (общеклинический, биохимический) исследования.

Результаты исследования обработаны статистический с помощью электронных таблиц Excel 2006 (Microsoft). Достоверность различий определялась по критерию t Стьюдента. Статистически значимыми считали различия при $p < 0,05$.

Результаты исследования и их обсуждение.

Возраст пациенток колебался от 18 до 42 лет и в среднем составил $29,2 \pm 1,06$ лет. в возрасте до 20 лет -2(6.7%), 20–24 лет - 5 (16,7%) 25–29 лет - 8 (26,7%), 30–34 лет-8(26.7%), и с 34 лет и более – 7(23%).

Поступивших женщин были 12 (40%) – занимались домашним хозяйством, 7(23%) – среднее образование, 10 (33%) высшее образование.

У 10 (33%) пациенток настоящая беременность была первой, 16(53 %) были рожавшими. Предыдущих беременностей составило ,срочные родами живыми детьми закончились - 15 (50%) , преждевременные роды - 2 (6.7%), оперативные роды - 3 (10%) , медицинскими абортами – 5(16.7 %), самопроизвольными выкидышами - 2 (6.7%), 1 неразвивающейся беременности – 4(13%), 2 и более НБ – 3 (10%).

У всех больных был отягощенный гинекологический анамнез: миома матки – 3 (10%), эндометриоз - 5(16.7%) , заболевания шейки матки - 10(33%) , гиперплазия эндометрия – 3(10%) , кисты яичников – 6 (20%), хронический эндометрит – 14 (46.7%) , бесплодия в анамнезе – 3 (10%) .

В детском возрасте и в период полового созревания все женщины, перенесли детские инфекции и различные воспалительные заболевания: скарлатина – 4 (13%) , эпидемический паратиф – 5(16.7%), хронический тонзилит – 10 (33%) , краснуха – 8 (26.7%).

Экстрагенитальные заболевания у женщин с НБ выявлены у большинства обследованных женщин и имели разнообразный характер:

ССС – 13(43% (ГБ – 5(16.7%), порок сердце 2(6.7%), варикозные болезни 6(20%); ЖКТ – 21 (70% (гастрит – 6(20%), ЯБ – 2(6.7%), холецистит -7 (23%), колит – 6(20 %); ДС – 3(10%); пиелонефрит -14(47%), цистит – 15(50%), ПН – 2(6.7%) ; гипотиреоз – 12 (40%) , гипертиреоз – 5(16.7%), диффуз – 3(10%).

Ультразвуковые признаки повышенного тонуса матки выявлены у 14(46,6 %) женщин, признаки отслойки плодного яйца – у 3(10 %), отсутствие эмбриона при размерах плодного яйца 20.5 ± 2.1 мм, отсутствие сердцебиения эмбриона с копчико_теменным размером 5 ± 1.0 мм.

По сроке неразвивающейся беременности диагностированы 4-9 недель – 16(53%), 10 -15 недель 8 (26.7%) , 16- 21 недель 4 (13%).

В периферической крови у женщин при поступлении наблюдался лейкоцитоз – $11,8 \pm 0,4 \times 10^6$ /л, СОЭ было в пределах 20–33 мм/час, у остальных больных показатели периферической крови были в пределах нормы.

Всем пациенткам проводилось удаление плодного яйца путем инструментального выскабливания полости матки или мануальной вакуумной аспирации с последующим гистологическим исследованием полученного материала. При гистологическом исследовании выявлено наличие инфекционно_воспалительных изменений -15 (50%), гидропическая дистрофия - 6 (20%), незрелая в/х - 3 (10%) , мелкоочаговые некрозы – 10(33%), кальцинаты – 7 (23%) , отёки в/х – 12 (40%).

В заключение необходимо отметить, что при выборе тактики профилактических мероприятий по поводу НБ у женщин репродуктивного возраста необходимо учитывать такие факторы, как отягощенный гинекологический анамнез, сопутствующая патология, частые аборт, профессиональная деятельность женщин.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Акуленко Л.В. //Генетические причины ранних эмбриональных потерь // Материалы международного конгресса: тезисы докладов. – М., 2014. – С. 25
2. Боровкова Л.В., Колобова С.О. //Невынашивание беременности// учебное пособие. – Н.Новгород: Изд-во Нижегородской гос. медицинской академии, 2016. – 105 с.
3. Владимирова Н.Ю., Чижова Г.В. //Дифференцированный подход к реабилитационной терапии синдрома потери плода вирусной этиологии // Материалы VI Российского форума «Мать и дитя», Москва, 12-15 октября 2014 г. М., - С. 45-46.
4. Манухин И.Б., Колесов А.А., Семенцова Н.А., Чабоян А.Г. //Профилактика привычного невынашивания у пациенток с неразвивающейся беременностью на фоне хронического эндометрита // Акуш. и гин. – 2013. – №5. – С. 76-78
5. Манухин И.Б., Тумилович Л.Г., Геворкян М.А. //Гинекологическая эндокринология. Клинические лекции: руководство для врачей. – 3-е изд., перераб//. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2013. – 272 с.: ил. – (Серия “Библиотека врача-специалиста”) проблемы современной цитогенетики. Сб. науч. трудов. – М. – 2011. – №9. – С.71-77.
6. Никитина Т.В., Суханова Н.Н., Кашеварова А.А.// Создание банка тканей и характеристика хромосомных нарушений при ранней эмбриональной гибели у человека // Генетика человека и патология.М. -2015. –С.56-57

РЕАЛИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ

Обидов Расул Абдулхаевич

*учитель кафедры экономики Социально-экономической
факультет Гулистанский государственный университет*

Аннотация: В статье рассматривается потенциал управленческих инноваций в градостроительстве. Город представлен как сложноорганизованный объект, устойчивое развитие которого обуславливается в том числе, множественными управленческими инновациями. Предложено авторское видение управленческих инноваций, раскрыт алгоритм их внедрения.

Ключевые слова: система, градостроительство, управленческие инновации, алгоритм.

Приоритетом современной экономической деятельности являются инновации во всех сферах народного хозяйства, положительно трансформирующие организацию эффективного взаимодействия основных участников процессов, определяя место, роли и функции каждого звена в инновационной системе, обобщая источники и механизмы финансирования нововведений. С отраслевых позиций, рассматривая отрасль архитектуры и градостроительства, инновацией нельзя считать любой проект, несущий нововедения или изменяющий внешний облик. Здесь понятие инновации связывают с выведением на рынок продукции (товаров и услуг) с новыми потребительскими свойствами или качественным повышением эффективности производственных систем.

Многообразие возможностей развития города, множественных инноваций в рассматриваемой сфере – в строительстве, проектировании, внешнем представлении, обработке данных [1], требует и управленческих инноваций, способных в высокодинамических условиях обмениваться с внешней средой разнообразной информацией и вступать в непрерывное взаимодействие с компонентами внешней среды, то есть обладать высокой степенью когерентности.

Инновации в управлении градостроительными системами – это деятельность, целенаправленная на позитивные изменения в организации, планировании, координации, контроле процессов создания комфортной среды обитания людей, основанные на сохранении культурной идентичности территории, экологичности в целях максимального раскрытия потенциала, стабильного роста социально-экономических показателей территории с учетом вероятности изменения внешних факторов. В таких сложных динамических системах, имеющих много степеней свободы, всегда определяются параметры порядка, задающие ее инвариантность, а

взаимодействие с внешней средой, обеспечивающее возникновение инноваций, позволяет сохранить ее динамические качества.


Системная теория предполагает органичность взаимосвязи элементов города как системного сложноорганизованного объекта: изменение параметров одного из них определенным образом влияет на изменение параметров других элементов и, как правило, нелинейным образом [2].

В тоже время, возникающая нелинейность требует определенных ограничений управления в каждый момент времени и учета потенциальных «всплесков» возникающих в нестабильной среде. Действительно, представляя город в виде системы «ткани» и «каркаса», структурируется территория [3]. Здесь транспортная сеть, инженерная инфраструктура и зеленая зона (общественные пространства) создают каркас для «ткани» - зданий, сооружений, на преобразование которых влияют управленческие решения и инновации разного уровня. Действительно, город как природно-антропологическая и техногенная система, включает все процессы саморегуляции в критические моменты, образуя новые структуры, подчеркивающие или нарушающие критическим образом существующие состояния (точки бифуркации) - «рассогласование» целеполагания и окружающих обстоятельств. Инновации в управлении способны подтолкнуть систему к переходу с одного уровня организации на другой, тем самым изменяя саму систему. Важное значение в этом изменении имеет внутреннее состояние самой системы, перегруппировка ее элементов и так далее, и целеобразующий фактор.

Исследование К.С. Клевцовой [4] подчеркивает, что среди управленческих инноваций в экономической сфере «места» распределены следующим образом: новая организационная структура управления; внедрение совершенствование методики управления; организация и разделение труда. Исходные позиции нашего исследования и системообразующий фактор города – его население в некоторой степени меняют подход к определению типологии управленческих инноваций. В первую очередь это относится к источнику инноваций, которые могут быть: глобальные (страновой уровень управления), региональные (муниципальный уровень управления), отраслевые (организационный уровень управления); «низовые» (bottom-up innovation потребительский (стейкхолдерский) уровень управления или участия). Крайне важным является взаимодействие всех типов управленческих инноваций, поскольку именно низовые инновации разнонаправлены и отражают интересы бизнеса и населения, образуя вектор развития, как столкновение разнонаправленных сил. Стратегические инновации аккумулируют низовые инновации, внося «поправки действий» с учетом доктрины градостроительного развития, выстроенной как политический акт муниципальной власти с помощью профессиональных экспертов в рамках комплексной стратегии

городского развития. Тогда с позиций города как сложноорганизованного объекта можно привести следующие примеры управленческих инноваций: - кадровые инновации с формированием особого типа «кадрового доступа» к проектированию новых объектов в рамках сложившейся исторической среды; - организационно-документационные инновации - инструментарий, инициирующий новые пакеты документов территориального развития агломераций; - самоуправленческие инновации - расширение управленческих полномочий территориального общественного самоуправления; - коммуникативные инновации - целенаправленное формирование связей и форматов взаимодействия между обществом, бизнесом и властью. Управленческие инновации в градостроительной сфере согласно выделенной нами типологии планируется внедрять в соответствии с приведенным алгоритмом (Рисунок1).

Гибкий алгоритм внедрения управленческих инноваций разного типа (кадровые, организационно-документационные, самоуправленческие, коммуникативные) обуславливает их потенциальную продуктивность и выводит на новый уровень обеспечение долгосрочных интересов устойчивого развития города как сложноорганизованного объекта.






Рисунок 1. Алгоритм внедрения управленческих инноваций в градостроительстве.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мацкова М.В., Колясников В.А. Инновационное градостроительство: понятие и закономерности // Академический вестник УралНИИпроект РААСН. - 2015.- № 2.- С. 34-39.
2. Блауберг, И. В. Проблема целостности и системный подход / И.В. Блауберг. - М.: Едиториал УРСС, 2015.
3. Бондаренко И.А. Каркас и ткань города: между твердым порядком и динамическим хаосом // Градостроительство. - 2015. - № 5 (39). - С. 24-28.
4. Клевцова К. С. Управленческие инновации и их применение в российских компаниях // Молодой ученый. — 2017. — №3. — С. 342-344. — URL <https://moluch.ru/archive/137/38564/>

СУЛТОН ҲУСАЙН БОЙҚАРО АДАБИЙ БАЗМЛАРИ

(Алишер Навоийнинг “Хамса” дostonлари асосида)

Шерхон Қораев,

*Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек
тили ва адабиёти университети мустақил тадқиқотчиси*

Султон Ҳусайн Бойқаро (1438-1506) ҳузурида 1469-1506 йилларда адабий мажлисларнинг бир тури – бадий базмлар ўтказилган. “Хамса” нинг “Ҳайрат ул – аброр”, “Фарҳод ва Ширин” ҳамда “Сабъаи сайёр” дostonларидаги Ҳусайн Бойқаро мадҳияларида, Навоий султон ҳузуридаги “базму жамшид”ларга тўхталган. “*Жаннат киби анда базмгоҳе, Тахт устида бир хўжаста шоҳе*”,⁶ дейди бу ҳақда Навоий. Албатта, бундай базмларда султонга бағишланган қасидалар ўқилган, ҳукмдор шеърлари билан айтиладиган ашулалар ижро этилган, мусиқий тароналар янграган.

Навоийшунос Азиз Қаюмов Султон Ҳусайн Бойқаро базми ҳақида шундай ёзган: “*Ҳайрат ул –аброр*”да...*голиб подшоҳга муваффақиятдан сўнг базму айшу ишрат ҳам ярашиб туради, дейилади. Навоий тасвирида Ҳусайн Бойқаро ана шундай подшоҳлардан эди....Базм картинаси ҳам аниқ буёқларда чизилган. Не-не шоҳлар Султон қаришисида одоб сақлаб ерга тикилганча турмоқдалар. Мусиқа чалиниб турибди. Гулчеҳра соқийлар базм иштирокчиларига бода тутмоқдалар.*

Шоҳлар одобдин тикибон ерга кўз,

Сўрмаса бекларга не имкони сўз.

Подшоҳ эса ўз маснадида Жамшид сингари ўтирибди. У осмондаги қуёшга ўхшаб кетади.

Маснади узра ўзи Жамшиддек,

Йўқки, спехр авжсида хушиддек.

Султон санъаткорларга, базм аҳлига “*дирами зар, абири баҳорий*” каби дурри гавҳарлар сочади”.⁷

Навоий “Фарҳод ва Ширин”да ҳам Ҳусайн Бойқарони мадҳ этар экан, бу гал ҳам унинг базмлари ҳақида шундай ёзган:

Бинойи салтанат зотингга боқий,

Саодат маҳваши базмингда соқий.

Бу соқий илгидин жоминг паёнай,

Зилоли Хизр ул жоминг аро май.

⁶ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Т: Ғ.Ғулом номидаги АСН-1990. 40-б,

⁷ Қаюмов А. Дилқушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар.Т:Шарқ НМАК БТ.2014.69-70-б.

***Кетур соқий, шароби армани соз,
Тут они шоҳ мадҳин айлаб оғоз.***

Кўриниб турибдики, “Фарҳод ва Ширин”даги юқоридаги байтларда ҳам Навоий султон базмини катта маҳорат билан тасвирлаган: “*Шоҳ базмини таърифлаганда, уни қоралаш ёки танқид қилиш эмас, балки мақташ ва шарафлаш султонга ёқади. Яна Абдулғози Султон Ҳусайннинг ўзи ҳам май ва ширатни ёқтирар, кўп вақтини шунда ўтказар эди. Шунинг учун Навоий ўз мадҳиясида Султонга ёқимли ишларни таъриф этган*”.⁸ Бундай базмларда султоннинг хос надимлари, шоирлар, хонандалар ва созандалар иштирок этишган. Базм шоирларининг султонга бағишланган қасидаларига Ҳусайн Бойқаро ўз баҳосини бериб борган. Биз тилга олган базм шоирларидан бири Мир Ҳусайн Али Жалойир Туфайлий ҳам Султон Ҳусайн Бойқарога атаб ажойиб қасидалар битган. Бу ҳақда “Мажолис ун-нафоис”да Навоий шундай ёзган: “*Назмларга таъби мулойимдур. Аммо қасида услуби анинг ҳаққидур. Андоқки, бу тоифани ҳам мусаллам тутарлар. Султон соҳибқирон (Ҳусайн Бойқаро) отига гарро қасоиди бор*”.⁹ Қасиданавис шоир Туфайлийнинг бундай қасидалари борлигини Бобур “Бобурнома”да тасдиқлаган: “*Султон Ҳусайн қошида қушбеги эди, шоир эди. “Туфайлий” тахаллус қилур эди, қасидани бисёр яхши айтур эди. Ўз замонида қасидада саромад эди. Тарих тўққуз юз ўн еттидаким, Самарқандни олдим, менинг қошимга келди. Беш-олти йил менинг қошимда бўлди. Менинг отим(Бобур Мирзо)га ҳам яхши қасидалар айтди*.”¹⁰ Алишер Навоий “Соқийнома”да шоир Туфайлийнинг қасиданависликдаги маҳоратини қайд этган:

***То Туфайлий била мажлис қурайин,
Бир неча нукта анга еткурайин.
Айта эй назм элида нодир,
Рақаминг сеҳру хаёлинг соҳир...
Анварий бўлсуну ё Хоқоний,
Фарёбий ё Исфаҳоний.
Чунки сўз оби ҳаётин суздинг,
Руҳини барчасининг тиргуздунг.
Мадҳ услуби эди беравнақ,
Бал чиқиб эрди ародин мутлақ.
Ҳар қасидаки тузатти рақаминг,
Ё саводин рақам этти қаламинг.
Бўлди маъни юзидин бир олам,
Ул савод анда саводи аъзам.***¹¹

⁸ Қаямов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. Т:Шарқ НМАК БТ.2014.71-б.

⁹ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Тўққизинчи жилд. Т: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ-2012.397-б.

¹⁰ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т:Юлдузча-1990.157-б.

¹¹ Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. Фавойидул-кибар.Т:Бадий адабиёт нашриёти-1965. 425-б.

Султон Ҳусайн Бойқаро базмларидан бирида Туфайлий томонидан қуйидаги қасида ўқилган:

**Бихамдиллах, ки дигар раҳ ба иқболи шаҳи одил,
Бурун амад гулам аз хору хор аз пою аз гил.¹²**

(Таржимаси: Худога шукрки, одил шоҳнинг меҳрибончилиги билан яна бир йўла гулим тикандан, тикан оёғимдан, оёқ эса лойдан чикди).

Мазкур базмларда шоирлар султони Навоий ҳам қатнашган ва ўз шеърларини ўқиган:

**Жайбу этагимни айладим кон,
Йўқ эрди кўтармак ўзга имкон.
Ким арсаи базм ичра этсам,
Борини онинг нисора этсам.¹³**

“Сабъаи сайёр”да ҳам Ҳусайн Бойқаро мадҳ этилар экан, базмлар хусусида жумладан шундай дейилади: “Базмингга келган эл ичида белларини боғлаб шоҳлар хизмат қилади. ...Мажлис шон – шуҳрати шунчалик беҳадки, аҳли хирад(оқиллар) ҳам кўзларини ердан узолмай турадилар...”¹⁴

**Даврайи базминг ичра турган эл,
Шоҳлар қуллиғингга боғлаб бел.
Ишлар ерга кўз тикиб турмак,
Кимга ҳад демагунча ўлтурмак.
Чун бўлиб ҳукм ўлтуриб бори,
Ерлик ўз ерига ики сори.
Тутубон соқийи париваш май,
Гулда шабнам киби узорида хай.
Лек мажлис шукуҳидин не ҳад,
Кўзни ердин олурга аҳли хирад.¹⁵**

Бу мисраларни Азиз Қаюмов “Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар” китобида шундай изоҳлаган: “Султоннинг фазилатларга бой шахсияти базмдаги иштироки орқали намойиш этилади. Султоннинг мусиқага муҳаббати, мусиқий наволарни чин идрок этиши, иштиёқ, нафосат билан тинглаши, улар ижроси ва моҳиятидан топадиган завқи беқиёс. У қўп халқлар санъатига хос мусиқа асарларини берилиб тинглайди.

**Икки ёндин муганнийи ики хайл,
Жонга тандин чиқарга айлаб майл.
Ўнгда туркийнавоз уруб достон,
Кўзгалиб ҳар навода Туркманистон.**

¹² Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Тўққизинчи жилд. Т:Ғ.Ғулом номидаги НМИУ-2012..397--б.

¹³ Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Т: Ғ.Ғулом номидаги АСН-1990. 40-б.

¹⁴ Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар.Т:Шарқ НМАК БТ.2014.69-70-б.

¹⁵ Алишер Навоий. Сабъаи сайёр”.Т:Ғ.Ғулом номидаги АСН.1991.57-б.

*Тортқан турк назмасида суруд,
Оқизиб халқ кўзларидин руд.
Сўл сари форсий сурудун нагам,
Фитнаи форс, бал Ироқу Ажам.*

Базмда гулчеҳра соқийлар май тутадилар. Ёқимли садолардан лаззат олувчи аҳли май ичадилар. Бу лавҳани шоир гўзал нафосат билан қуйлайди”.¹⁶

*Май ичиб беҳисобу маст ўлмай,
Нафс ҳукмига зери даст ўлмай.
Май сенга мужиби фано бўлибон,
Сарбасар нур ила сафо бўлибон.
Не ажаб бўлса бода нури сафо,
Кам эрур ҳар қадаҳда истигно,
Бода моҳиятини табоҳ билмак,
Ичмагин дамбадам гуноҳ билмак.
Барча мазҳабда фосиқу ранжур,
Яхишироқдурким, зоҳиди мағрур.*

Мазкур шеърда зикр этилган ана шундай базмларни Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Бобурнома”да ва адабиётшунос Поён Равшанов “Сайланма”сида “Чоғир мажлислари” деб қайд этган.¹⁷

Шунингдек, Навоий “Муншаот”даги тутинган ўғлига бағишланган 91-мактубда Хусайн Бойқаро базмларини шундай зикр этган: “...Подшоҳи ислом(Хусайн Бойқаро)нинг жаннат боғи янглиз базмида илтифот ва эҳсон қилишда базм аҳлининг алоҳида эътиборида бўлдинг ва инъом этишда давра аҳли туҳфаларидан ҳуррам бўлдинг.”¹⁸

Бобур Мирзо “Бобурнома”да шеърӣ йиғинни чоғир мажлисидан ташқари, яна “Султон Хусайн суҳбати” деб тилга олган: “Ва бир неча аҳли табким, ушбу подшоҳ Султон Хусайн доимул – авқот суҳбатдин айру қўймас эрди, булардур:...Ва Шайх Зайн садрким, Зайнуддин Хавофийни набираси эрди, хаддати таъби бор эрди, назм ва иншодин салиқализ ва ҳумоюн подшоҳ замонида умаролиз ҳам топиб эрди...Ва Султон Муҳаммад кўсаким, Мир Алишернинг мусоҳибларидин эрдиким, подшоҳ Султон Хусайн суҳбатида иззат топиб, сарофроз бўлур эрди”.¹⁹

Алишер Навоий ва унинг замондошлари асарларида “базм” айрим ҳолларда нафис, латиф, шариф, олий, Султон Соҳибқирон, шоҳ, подшоҳ мажлиси, анжуман, зиёфат, мажмай, мажолис, йиғин, маҳфил, маҳофил, жалис номлари билан ҳам қайд этилган. Аслини олганда ҳам Навоий асарлари тилининг изохли луғатида

¹⁶ Каюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. Т:Шарқ НМАК БТ.2014.76-б.

¹⁷ Равшанов П. Сайланма. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. Т: Янги аср авлоди-2005.148-163-б.

¹⁸ Алишер Навоий. Муншаот. Т: «Маънавият»-2001.82-б.

¹⁹ Бобур. Бобурнома. Т:Юлдузча-1990.162-б.

мажлис, йиғин, базм ва суҳбат бир хил маънони англатиши таъкидланган.²⁰ Ваҳоланки, Алишер Навоий тазкирасининг “Мажолис ун – нафоис” (Нафис мажлислар) деб номланиши ва унинг саккиз мажлисга жамланишида Султон Ҳусайн ҳузуридаги нафис (олий) мажлис-базмларнинг бевосита ва билвосита катта таъсири бўлган деб, ўйлаймиз.

Мухтасар айтганда, Султон Ҳусайн Бойқаро ҳузурида ўтказилган адабий – муסיқий базмлар мумтоз адабиёт ҳамда муסיқа санъати тараққиётига хизмат қилгани айна ҳақиқат.

²⁰ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т: “Фан”-1983.199-б.

ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.

Ахбаева Луиза Ўткировна

Тошкент вилояти Чирчиқ шаҳар

3-умумтаълим мактаби

ўзбек тили фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек тили дарсларини ўқитишда дарс машғулотида замонавий технологиялардан фойдаланишнинг самаларалари ва замонавий технологияларнинг айрим усуллари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: *техник воситалар, педагогик технология, мусобақа дарслари,*

Таълимдан асосий мақсад болаларга билим беришгина эмас, балки билим олиш йўлларини ўргатиш, уларни таълим жараёнининг фаол иштирокчисига айлантириш демакдир. Янгича ижтимоий, иқтисодий шароитда ўзбек тилини ўқитиш мазмунини такомиллаштириш, дарсларни жаҳон андозаларига мос равишда ташкил қилиш талаба фаоллигини оширадиган муҳим омиллардан ҳисобланади. Нутқий фаолиятда ҳар бир тил ҳодисасининг ўз ўрни, ўз вазифаси бор. Ёшлар тил имкониятидан вазиятга қараб фойдаланиш малакасига эга бўлишлари, ўз фикрини аниқ ифодалашга, зарур бўлган сўз ва гап шакллари, ибора ва тасвирий ифодаларни танлай ва қўллай билишлари давр талабидир. Бунинг учун ўзбек тили ўқитувчиси ўз ихтисослигини пухта билиши, илғор педагогик технология ҳамда замонавий ўқув – техник воситаларидан яхши хабардор бўлиши лозим. Шундагина таълим самараси ҳам, ўқитиш даражаси ҳам юқори бўлади. Ўзбек тилидан дарс берувчи ўқитувчи ҳақиқий ижодкор бўлиши, таълим жараёнида ўқувчининг мавзунини тинглаш, англаш, эркин ва мустақил фикрлаш, қиёслаш, фарқлаш, алоҳидаликларга ажратиш ва тасниф қилишга йўналтирилган фаолиятини рағбатлантириши, ўз фикри, ғояларини ўзгаларга етказа билиш кўникма ва малакаларининг шаклланишини назорат қилиши, бошқариши даркор. Шунингдек, у ёшларнинг ахлоқий-маънавий тарбияси билан шуғулланиши, уларга шарқона мулоқот одоби, миллий анъаналаримизга ҳурмат, она Ватанга муҳаббат туйғуси каби зарурий хислатларни сингдира билиши лозим. Ўқув машғулотида янги замонавий шакл ва усулларда ташкил қилиш, талабаларни дарс жараёнида мақсадли бошқара олиш, айтиш кунда ўқитувчилик фаолиятининг бош мезони деб қаралмоқда.

Анъанавий йўналишдаги дарс дидактик мақсадига кўра: янги билимларни ўзлаштириш; ўрганилган билимларни амалий татбиқ этиш орқали мустаҳкамлаш;

ўтилганларни такрорлаш; билим ва малакаларни мустаҳкамлаш; талаба билимини назорат қилиш ва баҳолаш; уларни бир тизимга келтириш каби турларга эга эканлиги педагогика фанидан яхши маълум. Аммо башариятнинг иқтисодий ижтимоий раванг, илму-фан соҳаларидаги янги-янги ютуқлар таълимнинг асосий воситаси бўлган д а р с (машғулот) ва унинг турларининг кўпайишига, такомиллашувига олиб келди. Эндиликда дарсларнинг янги типлари ва шакллари ҳақида қатор илмий – методик ишлари мавжудлигини ҳисобга олиб, биз улардан иккитаси ҳақида тўхтаб ўтишни лозим кўрдик.

1. Илғор педагогик технологияга асосланган замонавий дарс турлари ва шакллари қўллаш, талабанинг таълим жараёнидаги ўрни, унга янгича ёндошув, янгича муносабатни таъминлаш, мазкур жараёни моҳирлик ва идрок билан бошқариш демакдир. Қуйида илғор педагогик технологияга асосланган дарс турларининг ўзига хос томонлари ҳақида фикр юритамиз.

Мусобақа дарслари ўзбек тили таълимида мусобақа дарсларини ўтказишдан мақсад ўқувчининг тил дарсида олган билимларини синаб кўриш, ўзаро мунозара – мулоқот жараёнида тил имкониятларидан фойдалана билиш, нутқий маҳорат, тез ва аниқ фикрлаш даражасини, муаммоли вазиятлардан чиқа олиш малакасини баҳолашдан иборатдир. Мусобақа дарслари ўқувчиларда фаоллик, топқирлик, зукколик фазилятларини шакллантиради, уларни Мустақил ижодий мушоҳада юритишга одатлантиради, зарур ва фойдали кўникмаларни ҳосил қилишга ёрдам беради. Самарали дарс шаклларида бири бўлган мусобақа дарси тил машғулотларининг қизиқarli ўтиши ва ўқувчиларнинг фаол иштирокини таъминловчи воситадир. Мусобақа дарслари учун мавзулар: «Нутқ товушларининг сири», «Сўз ҳарфидан сўз ясанг», «Тиниш белгилари мусобақаси», «Сўзшунослар анжумани», «Заковат» дарслари... в.ҳ. Баҳс – мунозара дарслари мусобақа дарсларида ечиб улгурилмаган, бирор тўхтамга келинмаган масалаларни ойдинлаштириш, тўғри, аниқ ҳукм ва мухтасар хулосалар чиқариши билан фарқланади. Баҳс – мунозара ўқувчилардан ҳушёрликни талаб этади. У мустақил ва жадал фикрлашга, ҳозиржавобликка, айтилган фикрнинг тўғри ёки нотўғрилиги ҳақида ўйлашга ва ўз фикрини мантиқли ва изчил исботлашга ўргатади. Ўзаро тортишув ва баҳс оқибатида энг тўғри ва маъқул ечимга келинади. Ўқувчи баҳс – мунозара орқали қарши томоннинг ишонарли далилларини тинглайди, ўз «мен»ини англаб этади, ўз дунёқараши, илмий-ижодий тафаккури кўлами, ҳақ ёки ноҳақ эканлиги тўғрисида, ўзи мустақил хулоса чиқаради. Ўз фикрини ҳимоя қилиш учун турли усул ва воситаларни ишга солиш, ижодий фикрлаш, тил имкониятларидан унумли фойдаланишга ўрганади.

Фойдаланиладиган адабиётлар:

1. Зиёдова Т.У. «Ҳозирги ўзбек адабий тилини ўрганишда коммуникатив жадваллардан фойдаланиш». Ўқув-методик қўлланма.
2. Зиёдова Т.У. «Ўқитувчи китоби». Она тили ўқитувчилари учун методик қўлланма. — Т.: 2002. Зиёдова Т.У.
3. «Ўзбек тилидан репититор китоби». Абитуриентлар, ўқувчи ва ўқитувчилар учун ўқув қўлланма. — Т.: 2004.
4. ziyonet.uz

БЎЛҒУСИ ЎҚИТУВЧИЛАРДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА.

Худайбергана Наргиса Курбонбаевна

ТТА Урганч филиали Тиллар кафедраси

Педагогика психология фани ўқитувчиси

Аннотация. *Ушбу тезисда бўлғуси ўқитувчиларнинг соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг долзарблиги тахлили ёритилган*

Калит сўзлар *Соғлом турмуш тарзи, таълим-тарбия, бўлғуси ўқитувчи, жамият, давлат, малакали мутахассисс., тажриба билим кўникма,*

Бугун мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини тубдан ислоҳ қилишга жиддий эътибор қаратилиб, ёшларимизнинг жаҳон андозалари даражасида замонавий билимларни эгаллаши, уларнинг қобилият ва истеъдодини, интеллектуал салоҳиятини юзага чиқариш, ёш авлод қалбида Ватанга садоқат ва фидойилик туйғуларини юксалтириш борасида улкан ишлар амалга ошириб борилаётганини кўришимиз мумкин. Кейинги бир йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамасининг етмишга яқин фармон, қарор ва фармойиши қабул қилинди. Бу том маънода таълим тизимидаги ўзгариш ва янгиланишлар жараёнини бошлаб беради албатта. Шу сабабли ҳам таълим, илм-фан ҳар қандай жамият, миллат ва давлатнинг келажагини белгилаб берадиган, унинг тараққиётига хизмат қиладиган муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Бугунги кунда бўлғуси ўқитувчилар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш масаласи долзарб муаммо сифатида саналади. “Бу борада фарзандларимиз учун зарур шароитлар яратиш, янги-янги таълим-тарбия, маданият, санъат ва спорт масканларини барпо этиш, ёш оилалар учун уй-жойлар қуриш, ёшларни иш билан таъминлаш, уларни тадбиркорлик соҳасига кенг жалб этиш бўйича бошлаган ишларимизни янги, юксак босқичга кўтарамиз”. Юқоридаги фикрлар айнан ёшларга кўрсатилаётган эътиборнинг ифодаси бир кўриниши деб айта оламиз.

“Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятини бугунги замон талаблари асосида инновацияларни тадбиқ қилган ҳолда такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали кечиктириб бўлмас вазифамиз деб биламиз” - дейди мухтрам президентимиз Ш.М.Мирзиёев.

Бунинг учун ёшларимиз билан кўпроқ гаплашиш, уларнинг қалбига кулоқ солиш, дардини билиш, муаммоларини ечиш учун амалий кўмак беришимиз керак. Бу борада уюшмаган ёшлар билан ишлашга алоҳида эътибор қаратишимиз

зарур.

“Бизнинг навқирон авлодимиз манфаатларини таъминлаш борасидаги фаолиятимиз яқинда қабул қилинган «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Қонун асосида қатъий давом эттирилади.«Ёшлар иттифоқи» ташаббуси билан барча ёшларимиз интиладиган, уларнинг қобилият ва иқтидорини рўёбга чиқарадиган ва манфаатларини ҳақиқий ҳимоя қиладиган ташкилотга айланиши учун барча чораларни кўрамиз”, дейди мухтарам юртбошимиз Ш. М. Мирзиёв

Шу ўринда таъкидлаш жоизки гап ёшлар ҳақида борар экан, олий ўқув юртлари талабаларида юқорида қайд этилган фикрларни изчил давоми сифатида соғлом турмуш тарзини шакллантиришни долзарб муаммоси сифатида кун тартибига олиб чиқиши педагогик жихатдан сабаб бўлади. Унинг ечимига хизмат қиладиган унинг мақбул педагогик шарт – шароитлари ва мазмуни модели, мезонлари, шакл, методларини ишлаб чиқишни тақозо этади. Бу эса айтилган ривожланишига салмоқли ҳисса қўша оладиган жихатидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2. Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш. Д.Ж.Шарипова, Г.С.Фузаилова, М. Туркменова, Д. Зуфарова, Фарғона 2010 й

3.Соғлом турмуш тарзининг жисмоний маданияти Ш. Хонкелдиев, А. Абдуллаев, Ю. М. Касач, А. Т. Хасанов, М. М. Юлдашев. Фарғона 2010

4. Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш. Д.Ж.Шарипова, Г.С.Фузаилова, М. Туркменова, Д. Зуфарова, Фарғона 2010 й

5.Арзикулов Р.У. Соғлом турмуш тарзи асослари 1-2 жилд, Тошкент, 2005 йил

JISMONIY, SAN’AT, TARIX

YOSH VOLEYBOLCHILARNI OYOQ KUCHI VA HARKATLARINI O’RGATISH YO’LLARI

Xaydarov Muxammad Raxmonovich

Samarqand davlat universiteti

Jismoniy Madaniyat fakulteti

2 bosqich magistranti

Hozirgi zamon voleyboli o‘zining tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu esa o‘z navbatida voleybolchilardan oyoq kuchi va harakatlarning yuqori bo‘lishini talab qiladi. O‘zbekistonimizni o‘z mustaqilligiga erishishi munosabati bilan sportga, shu jumladan, voleybolga ham munosabat ijobiy ravishda o‘zgardi. Voleybolchilarni hozirgi zamon talablariga javob beradigan qilib tarbiyalash va tez orada jahon miqyosidagi jamoalar safiga kirib olishi uchun esa yoshlar bilan o‘quv mashg‘ulot ishlarini takomillashtirish kerak. Shu boisdan, oyoq harakatlari va kuchinig rivojlanishi va texnik-taktik tayyorgarligiga e’tibor berish kerakligini vaqt taqozo etadi. Chunki voleybol o‘yinini rivojlantirishning har bir bosqichida ham yuqori texnik va taktik tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘yinchilar yuqori baholangan. Buning uchun esa avvalombor, texnik mahorat nimani anglatadi, shuni aniqlab olishi kerak. Bunga yuqori malakali murabbiylar shunday fikrni bildiradi:

“Hozirgi paytda harakat, ya’ni yuqori sur’atda kechayotgan o‘yinda jismoniy sifatlarning rovojlanganligi juda katta e’tibor qilish talab etiladi. Shuning uchun ham yoshlar va o‘smirlar bilan o‘quv mashg‘ulotlari tashkil qilinganda har bir mashqni bajarganda oyoqning jismoniy sifatlariga e’tiborni qaratish lozim.”

BO‘SM lariga tanlab olingan o‘quvchilarga voleybol elementlarini to‘g‘ri va aniq o‘rgatish talab etiladi. O‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishda qo‘llaniladigan o‘quv dasturlari esa har bir bolani o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olishni ko‘zda tutadi. Shuning uchun ham murabbiylar hamma o‘quvchilarni bitta metodik o‘zakka o‘lchab, ularni bir xil mashqlarni va harakatlarni bajarishga undaydilar. Pirovard natijada esa xar bir bola o‘ziga xos bo‘lgan harakat yoki texnik usullarni yuqori darajada o‘rganib boradi. [1]

Hozirgi paytda mashg‘ulot jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olmaslik holatlarini kuzatish mumkin. Voleybol mashg‘ulot jarayonini mikrosiklida oyoq harakatlari va oyoq kuchiga yetarlicha muomalada bo‘lmaslik, yuqori salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatilgan. Mashg‘ulotlarda oyoq harakati va oyoq kuchiga yuklama berishda quyidagi holatlarga e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- shug‘ullanuvchini oyoq harakati bilan individual mashq qilish asosida mushaklar ishini mukammallashtirish;

- qadamlar ketma- ketligini shakllantirish (boshlang‘ich va yakuniy qismga e’tibor berish);
- pastki ijrochi organlar – oyoqlar harakati, tezlanishi, harakatni sekinlashishi, simmetrik va asimmetrik harakatlarni muvofiqlashtirish, og‘irlik markazi va qadam tashlash fazalarini shakllantirish;
- himoya va hujum maydonida turgada qadamlar ketma-ketligi harakatlarini mustahkamlash;
- hujum maydonida uch qadamda tupsiz hujumga sakrash;
- hujum maydonida ikki yon chiziq bo‘ylab to‘qinsimon yugurish;
- oyoqlar juft holatda balandlikka va uzunlikka sakrash harakatlarini takomillashtirish.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda quyidagicha o‘rgatish mumkin:

Oyoqlar bilan bajariladigan har bir mashqni 3 guruhga ajratish mumkin.

1-soddalashtirilgan sharoitni talab qiladigan harakat -ko‘nikma va malakalarni tarbiyalaydigan mashqlar.

2-musobaqa sharoitlarida texnik mahoratini oshiradigan mashqlar.

3-oxirgi kuchni, tezlikni yoki boshqa jismoniy sifatlarni talab qiladigan, harakat holatlarini takomillashtiradigan mashqlar.

I. Bosh usul sifatida metodik tomondan boshqalardan maqsadga erishishda o‘zining xilma-xilligi bilan nisbatan mustaqil holati, raqobati, elementi shug‘ullanuvchilarning o‘zini o‘yindagidek sezishni ta‘minlash bilan ajralib turuvchi o‘yin usulidan foydalanish.

II. O‘rgatiladigan har bir elementni oddiydan murakkabga qarab o‘rgatish tizimini yaratish va bunga amal qilish.

III. Murakkab sharoitda kompleks harakat sifatlarini takomillashtirishni ta‘minlovchi guruhli usullarni ko‘proq qo‘llash kerak deb hisoblaymiz.[2]

Yuqorida qayd etilgan fikrlarga tayangan holda texnik elementlarni to‘g‘ri o‘rganish shu sport turida mashg‘ulotlarga ijodiy va mas‘uliyat bilan yondashishlariga asos bo‘lar ekan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir murabbiy yuqorida keltirilgandek, sport mashg‘ulotlarida oyoqlar kuchi va harakatlari bilan bajariladigan elementlarni to‘g‘ri ko‘rsatish va tushuntirish orqali olib borsa, mashg‘ulotda sifat, samaradorlik juda yuqori bo‘ladi va shu sport turini yanada rivojlanishiga olib keladi. Jismoniy madaniyat va sport xalqning, jamiyatning, davlatning kuch -qudrati bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.X.Israilov, A.A.Pulatov, Voleybol nazariyasi va uslubiyati //O‘quv qo‘llanma. - T., 2007.y (64-66 bet)

2. L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov Voleybol nazariyasi va uslubiyati. – T.: “Fan va texnologiya”nashriyoti 2012 y (216 bet)

SURXON VOHASIDA SHAKLLANGAN FOLKLOR ETNOGRAFIK SAN’ATI

Nasriddinova Nozima Xayrullaevna
Termiz davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqoiada san’at shakllari ichida fol’lor etnografik sa’natining Surxondaryo viloyatida shakllanishi, uning o’ziga xos xususiyatlari, “Shalola”, “Boysun” folklore-etnografik ansamblining rivojlanishi masalalari, uning ommaviy tus olishi jarayonlari bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *fol’lor, etnografik uning hayotidagi o’rni, Surxondaryo, “Shalola”, “Boysun”, baxshichilik, milliy, xalqaro fol’lor.*

Mustaqil O’zbekistonimiz qisqa vaqt ichida juda katta muvofaqqiyatlarga erishdi. Katta-katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Xalq ta’limi, sport, san’at sohasidagi yutuqlarimizga bir nazar tashlasak, mustaqil O’zbekistoningimizga bag’ishlab yaratilgan yangi asarlar kuy va qo’shiqlar butun jahon bo’ylab qanot yozib yoshlarimizni milliy g’oya va milliy istiqlol ruhida tarbiyalayotganini tushunamiz.

Davlatni sport qanchalik yuksaklarga ko’tarsa bu sohada san’at ham qolishmaydi. Ayniqsa musiqa san’ati o’ziga xosligi bilan ahamiyatlidir. Yurtimizda musiqa san’atiga, xususan, folklor san’atiga ahamiyatiga katta etibor qaratilgan. Ayniqsa respublikamizda Surxondaryo folklor etnografik san’ati o’zining beqiyos o’rniga egadir.

Milliy va jahon folklori namunalari bilan tanishish jarayonida kishi g’alati hissiyotni tuyadi. Bamisoli hayotning eng muhim haqiqatlari, muammolari ming yillar ilgari paydo bo’lgan rivoyatlar, afsonalar, dostonlarga jo bo’lgandek tuyuladi. Folklor (Folk-halq, lore-bilim, donolik) xalq ijodini ifodalovchi so’zdir. Folklor millatning boqiy tarixi. Folklor barcha san’atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko’pgina san’atlar bilan uyg’unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o’xshamagan o’ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san’at turidir. Bu soha o’z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san’atlar bilan bog’liq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha aytsak, og’zaki ijod xalqning o’tmishi buguni va kelajagini o’zida ifoda etuvchi uning taqdiri bilan chambarchas bog’liq ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham allomalarimiz uni el adabiyoti deb atagan. Biror bir xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun dastavval uning folkloriga nazar solish lozim bo’ladi. Xalq og’zaki ijodi namunasi bor-yog’i og’zaki ijro etilgani uchungina emas, balki og’zaki o’zlashtirilib, og’zaki ijro etilib, og’zaki tarzda meros qoldirilishi boshqacha aytganda, har galgi ijro jarayonida qayta yaralishi bilan faqlanib turadi. G’urur bilan aytishimiz mumkinki bizda dunyo folklori namunalri bilan bemalol bellasha oladigan doston, ertak, maqol-matal qo’shiq, afsona va rivoyatlarimiz bor. Bugungi kungacha yozib olingan

dostonlar sonining o’zi 400 tadan oshib ketadi. Bu rostakamiga chinakam ulkan xazinadir. Bunday bebaho meros hamma xalqqa ham nasib etgan emas. Shunday ulkan og’zaki merosga ega xalqning yozma adabiyoti qanday bo’lishini tasavvur qilavering.

Yutuqlar borasida Surxondaryo raqsida “Shalola” jamoasining o’rni beqiyos. Ansambl havaskorlikdan salkam professional darajaga ko’tarila oldi. O’z repertuar programmasi bilan qoniqmay, huzurida folklor etnografik jamoa ham tashkil etilishiga erishdi. Bir muncha vaqt u ham “Shalola” deb atalib kelindi. yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlar ham “Boysun bahori” festivali asosida ushbu jamoa bilan uchrashishdi.

1988-yilda “Shalola”dan quvvat olib o’sib yetilgan folklor etnografik ansambli o’z mustaqil yo’li va nomiga ega bo’lib, “Boysun” deb atala boshlandi. “Boysun”, “Shalola” ansambli huzurida tug’ulib, atak-chechak qilayotgan davrida 1975-yil Polsha xalq Respublikasining Zakalane shahrida bo’lib o’tgan tog’li o’lkalar XIII xalqaro festivalida ishtirok etib II darajali “Kumush bolg’a” mukofotining sovrindori bo’ldi.

1977-yil xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivaliga tayyorgarlik boshlandi. Mazkur festivalning ilk bosqichida ham uning yakuniy tadbirlarida ham “Boysun” yaqqol ko’zga tashlandi. Chunki festivalga tayorlanish va o’tkazish davomida bir qator folklor etnografik ansamblari va havaskorlari jamoalariga asos solindi. Shu bilan birga yuzlab talantlar aniqlandi, folklor amaliyotida bir qancha tajribalar to’plandi. Madaniyat muassasalari ayniqsa, xalq ijodiyoti va madaniy–marifiy ishlar respublika ilmiy metodik markazining ishi bir muncha jonlandi.

Buni xalq ijodiyoti II Butunittifoq festivali doirasida o’tkazilgan folklor etnografik ansamblari, katta ashula ijrochilari va oilaviy ansamblarning Respublika ko’rik tanlov natijalari ham isbotlab berdi. Respublikadagi 47 jamoa orasidan “Boysun” faxrli I-o’rinni egalladi. “Boysun” folklor-etnografik jamoasi tashkil bo’lishidanoq o’zining betakror sermazmun, serjilo, o’ynoqi repertuarlari orqali o’z mamlakati aholisi orasida tez tanilib shuhrat qozondi. “Boysun” ijro etgan halq laparlari mavsum marosim qo’shiqlari shinavandalari dilini rom etib bordi. 1988-yil dekabr oyida “Boysun”ga “Xalq folklor-etnografik ansambli” unvoni berildi.

“Boysun” jamoasi Respublikaning boshqa jamoalari ichida tez shuhrat topishining asosiy boisi shunda edike ansabl Boysun tumanida saqlanib kelinayotgan qadimiy ananalarimizni qanday bo’lsa shundayligicha sahnaga olib chiqib tomoshabinlarga havola qila oldi.

2019- yilning 5-10 aprel kunlarida Termiz shahrida bo’lib o’tgan Xalqaro Baxshichilik san’ati festivali oldidan Termiz arxeologiya muziyeda “Surxon vohasi-Baxshilar diyori” nomli ko’rgazma namoyish etildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabridagi qaroriga binoan Xalqaro Baxshichilik san’ati festivali har ikki yida bir marotaba Termiz shahrida o’tkazilishi belilangan. Ayni paytda festivalga tayyorgarlik ko’rish va uni yuqori darajada o’tkazish ishlari qizg’in olib borilmoqda. “Har qaysi halqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og’zaki ijodi-folklor

san’atida doston va eposlarida mujassam topgan bo’lib ular millatning o’zligini anglash, uning o’ziga xos milliy qadriyatlari va ananalarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblandi.” Deyar takidlandi prezident qarorida. Festivalning aynan Surxon diyorida o’tkazilishi bejisa emas. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Surxon zaminida bundan 3,5-4 ming yil avval ilk shaharsozlik, hunarmandchilik va sug’orma dehqonchilik qatorida amaliy san’at va madaniy hayot keng rivojlangan. Jumladan, xalq og’zaki ijodi namunalari-folklor etnografiyasi epos va dostonlarda mahalliy aholining uzoq o’tmishi madaniyati va milliy qadryat va ananalari o’z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyevning 2019-yil “Xalqaro baxshichilik” festivalining ochilish marosimidagi nutqi.
- 2.Axmedov. B. O’zbekiston xalqlari tarixi manbalari. –Toshkent: Oqituvchi
3. www.Ziyonet.uz

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA VATAN MADHI

Nishonova Nafisa Olimovna

Buxoro viloyat Jondor tumani

2-Ixtisoslashtirilgan Davlat Umumta’lim Maktab

Internatining ona tili va adabiyot o’qituvchisi

Annotatsiya: *Bu maqola Muhammad Yusuf hayoti va ijodi haqida, Vatan haqidagi she’rlari, lirikasidagi badiiy sifatlash va o’xshatishlar haqida yozilgan.*

Kirish so’zlar: *Muhammad Yusuf, shoirning hayoti, ijodi, mukofotlari.*

O'zbek adabiyoti shunday chamanzorki, uning bo'stonida gul ko'p, chechak ko'p. Bu bo'stonda bir-biriga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan iste'dodli shoirlar avlodi qayta-qayta bo'y cho'zaveradi. Ana shunday betakror shoirlardan biri, shubhasiz, O'zbekiston xalq shoiri, xalqimizning bulbulzabon farzandi Muhammad Yusuf edi. U 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898-yilda mashhur Dukchi eshon qo'zg'oloni bo'lib o'tgan Mingtepa) tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy zahmatkash odamlar oilasida tug'ildi. Mana shu qishloqda beg'ubor bolalaliga, sho'x-shodon o'smirliги o'tdi.

*Nechun qulluq qilmay Andijonga men-
Shu yutrtida tug'ildim, shu yurtida o'sdim.
Agar do'stim bo'lsa, bitta u do'stim-
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.*

*Yodimga o't tushsin, etmasam yodlar-
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar.
Uni avf etgan Mashrabdek zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.*

deb yozadi keyinchalik shoir.

O'rta maktab ta'limini olgach, Muhammad Yusuf Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kiradi va uni 1978-yilda bitiradi. Uning dastlabki she'rlaridan namunalar 1976-yilda "O'zbekiston madaniyati" haftaligi sahifalarida chop etilgandi.

Bu paytlar o'zbek she'riyati o'zining yangi yuksalish pog'onasiga ko'tarilgan, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron singari ko'plab iste'dodlar o'rtasida o'ziga xos ijodiy musobaqa avjga chiqqan edi. Bu ishning uddasidan chiqq

olgan, adabiy jamoatchilik nazarini o’z tomoniga qarata olgan shoirlardan biri Muhammad Yusuf bo’ldi.

Muhammad Yusuf she’riyatining turli yo’nalishlarida esda qolarli asarlar yaratayotgan qalamkash do’stlari, ustozlari orasida o’zini shoir sifatida isbot qilishga astoydil harakat qildi:

*Shoir shunday ko’pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor,
Ulug’vor, ularga yetmoq ko’p dushvor.
Ammo ular oyga bosib yuzini
Turganda osmonin bag’riga ilk bor
Biz olib borgaymiz tuproq isini,
Gulday dimog’iga tutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o’tamiz, qizim...*

Muhammad Yusuf 1997-yildan e’tiboran O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o’rinbosari etib tayinlandi.

Garchi uning she’rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo’lsa-da, birinchi she’riy to’plami nisbatan kech- 1985-yildagina e’lon qilingandi. Shundan keyin shoirning “Bulbulga bir gapim bor”, “Iltijo’”, “Uyqudagi qiz’”, “Halima enam allalari’”, “Ishq kemasi’”, “Ko’nglimda bir yor’”, “Bevafo ko’p ekan’”, “Yolg’onchi yor’”, “Erka kiyik’”, “Osmonimga olib ketaman” singari o’nlab she’riy majmualari o’quvchi qo’liga yetib bordi. U yirik poetic janrlarga ham murojaat etib, “Osmonning oxiri”, “Qora quyosh” singari dostonlar yaratdi.

Yurtimizning mustaqilikka erishgani Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlarni ochdi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go’zal she’rlari o’zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukamalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning “Vatanim”, “Xalq bo’l elim”, “Dunyo”, “Insholloh”, “O’zbekmomo”, “Iqror”, “Tilak” singari o’nlab she’rlari chinakam she’riyat yurtini qanday kuylamog’i lozimligini isbotlagan asarlar bo’lib qoldi.

Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998-yilda “O’zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi.

Muhammad Yusuf ijodi keyingi davr o’zbek qo’shiqchiligi rivojida muhim o’rin tutadi. Milliy san’atimizning eng yirik va iste’dodli vakillaridan tortib, havaskor qo’shiqchilargacha shoir she’rlarini kuyga soladilar.

Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor” she’rida “Jayrondek termilgan” sifatlashi Cho’lponga nisbatan ishlatilgan.

Afsuski, Muhammad Yusufning umri qisqa bo’ldi. U 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog’istonning Ellikqal’a tumaniga qilingan ijodiy safar chog’ida yurak xurujidan vafot etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) 8-sinf adabiyot darsligi
- 2) III kurs litsey darsligi.
- 3) S Matchonov, Sh.Sariyev. “Adabiyot” “Abiturent- 2011 loyhasi turkumidan”.
- 4) “Muhammad Yusuf Saylanma” she’rlar, dostonlar, Shoir haqida xotiralar.

MUMTOZ ADABIYOTDA XIZR

Suyundiqova Mahliyo Bobosher qizi

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Xizr alayhissalom haqida va Farhodning Xizr bilan uchrashganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lsiz.*

Kalit so'zlar: *Xizr, adabiyotshunoslik, obraz, Muhabbatnoma.*

Adabiyotshunoslik fani kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas, balki uning ildizlari qadim davrlarga borib taqaladi. Adabiyot paydo bo'libdiki, obraz tushunchasi ham uning bir qismi sifatida shakllanib kelmoqda. Qadimgi davrda ibtidoiy odamlar o'zlariga foyda keltiradigan predmetlarni xudolar, yovuzlik keltiruvchi predmetlarni devlar, jinlar deb atagani barchamizga ma'lum. Demak, obraz tushunchasining ma'nolari nihoyatda qadimgidir. Hozirgi kunda esa sodda qilib aytadigan bo'lsak obraz bu badiiy asardagi inson tasviridir.

Biz qadimdan tilga olingan, davrlar o'tishi bilan sayqallanib, hozirgi kunda esa nihoyatda ko'p ta'rif va rivoyatlarga asos bo'lgan Xizr obraziga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning nihoyatda ko'p tasvirli obraz ekanligiga guvoh bo'ladi. Qadimgi rivoyatlarda ko'ra, Xizr turli qiyofada ko'rinsada, o'ng qo'lidagi bosh barmog'ining besuyak bo'lishi ham ajralib turgan.

Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asaridagi Xizr obrazi fikrimizning yaqqol dalilidir. Asardagi Xizr obrazining quyidagicha tasviri beriladi: “Otamiz chol qoshiga keldi: “omonmisiz, esonmisiz”- deya cholning kaftlarini tutdi. Chol seskanib qo'lini tortdi. Otamiz cholni tanidi: Hazrati Xizr bobo. Boisi boshmaldog'ida suyagi yo'q. U kishining bosh barmog'i suyaksiz bo'ladi. Hazrati Xizr bobo odamzod mushkulini oson qilajak, xojatini chiqarajak ezgulik piri. Otamiz o'zida yo'q quvondi. Dardiga davo topganday bo'ldi. Entikdi, yayradi”. Qoplonbek undan farzand so'raganda ko'p nolimasligini, shukur qilish kerakligini, unga farzand berilganligini aytadi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonining XXIV bobida Farhodning Xizr bilan uchrashganligi tasviri keltiriladi. Hali bosib o'tilmagan yo'llar xaritasi Farhodga Xizr orqali yetkaziladi. Farhod uning yordamida ma'shuqasining visoliga yetishadi.

Ko'plab tarixiy asarlarda Xizrning bunday noyob qobiliyatidan tashqari, o'z hayotiy faoliyati haqida ham ma'lumotlar keltiriladi: Yamanlik adib Vahhab Ibn Munabbihning “Kitob-at tiyjon” nomli asarida Xizrning Iskandar Zulqarnayn bilan birga boqiylik tog'iga chiqqanligi tasvirlangan.

Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy” asarida esa “Xizr qayu yerda bo’lsa ul yer ko’karur edi”- deb ta’riflanadi.

XV asrning birinchi yarmida ijod etgan shoirlardan biri Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” asarida “Hikoyati Xizr va podshoh va pir Muqallid” hikoyatida Xizr adolatparvarlikni qo’lllovchi shaxs sifatida keltiriladi.

Xizr obrazi faqatgina nasriy asarlarda emas balki, lirik g’azallarda ham o’z aksini topgan. Alisher Navoiy o’zining “Bo’ldum sanga” radifli g’azalida Xizrni tilga oladi:

Jomi jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,

Soqiyo, to tark aylab, gado buldim sanga.

“G’aroyib us-sig’ar”ning 384-g’azali hisoblangan “Bo’l” radifli g’azalida ham Xizr obrazi keltiriladi:

Tutdim o’lmakdin tirilmak hajrida, tengdur manga,

Emdi gar bergil, ziloli Xizr, agar jallod bo’l.

Ushbu g’azalda ham Xizrning barhayotligiga ishora bor. Ya’ni “ziloli”, “suvi” ma’nosida kelib, “Xizr suyidan berib tiriltir” yoki “jallod bo’lib o’ldir” degan ma’noda qo’llangan.

Alisher Navoiygacha turk adabiyotining mashhur shaxslaridan bo’lgan Lutfiy o’z g’azallarida Masih, Jomi jam terminlari qatorida Xizr obrazini ko’p qo’llagan. Lutfiyning “Bu kechar jahonda” nomli g’azaliga nazar tashlaydigan bo’lsak, g’azalda Xizr nomi Masih payg’ambar nomi bilan birga tiga olinadi:

Qadahe keturke, sendek Xizr-u Masih elindin

Kishiga mayi muravvaq erur obi zindagoniy.

Bu g’azalda ham Xizr barhayot. G’azalni sharhlaydigan bo’lsak, Lutfiy yoriga “qadah keltir xuddi Xizr-u Masih singari, kishiga may kabi huzurbaxsh bo’lsin”- deya ta’riflanadi.

Xizr obrazini obrazshunoslik nuqtai nazaridan sharhlaydigan bo’lsak, bu obrazni badiiy to’qima obraz deb ham, xayoliy –fantastik obraz deb ham bo’lmaydi. Chunki har bir rivoyatda qanchalik darajada bo’lsada haqiqat mavjud. Ammo bu obrazni realistik ya’ni hayotiy obraz deb ham bo’lmaydi. Boisi, Xizr qadimdan og’izdan og’izga o’tib kelishi natijasida sayqallanib, o’z ma’nosidan ancha yiroqlashgan bo’lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Tog’ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asari. Standart sano nashriyoti. Toshkent 2017.

2. Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Farhod va Shirin”. Toshkent. Fan nashriyoti.

3. Nosuriddin Burxonuddin Rabg’uziyning “qissasi Rabg’uziy” asaridan. Toshkent. Yozuvchi nashriyoti. 2019.

4. Sayyid Qosimiyning “Haqiqatnoma” asari. Xazoyin-un maoniy devoni

MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O’RGATISHDA INTERFAOL USULLAR.

Fattoyeva Feruza Hamid qizi

Buxoro viloyati Qorovulbozor tuman

4-umumta’lim maktabi o’qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqola orqali Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibidagi “Farhod va Shirin” dostonini o’rganishda yangi interfaol usullar samaradorligi haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *interfaol usul, guruhlarda ishlash, mumtoz adabiyot.*

XX asrning 60-yillaridan e’tiboran dastavval pedagogika ilmida so’ngra amaliyotida “interfaol usul” tushunchasi paydo bo’ldi va hozirgi kunda keng yoyilib bormoqda.

Interfaol usul orqali o’quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish malakasini shakllantirish muhim sanaladi. Bunda fikr to’g’riligi emas, aksincha, fikr erkinligi birinchi o’rinda turadi. Biz o’quvchilardan doimiy mukammal fikrlarni talab qilishimiz, o’quvchilar o’rtasida fikrning cheklanishiga olib keladi. Shu jihati bilan interfaol usullar barcha darslarda qo’llash birdek muvaffaqiyatli kechmoqda.

Adabiyot ruhiyatga ko’rsata oladigan ta’sir kuchi jihatdan hamisha boshqa sohalardan ustun bo’lib kelgan. Inson ma’naviy qiyofasi, orzu-intilish, tafakkur va tasavvur, mayl va qiyofasini yuzaga keltirishda fan beqiyos o’rin tutadi. Shu sababli ham bu fanni o’rgatishda pedagogdan alohida ziyraklik talab etiladi. Darsda o’rganilayotgan badiiy asar janri va tabiati, tabiiy xususiyatlariga mos usul va metodlar tanlanishi lozim. Adabiyotimizda shunday bir mumtoz xazina mavjudki, uning har bir beheho dur-u olmoslarini o’z holicha o’quvchiga yetkazish bir qadar murakkab va ma’suliyatli. Mumtoz adabiyot namunalarini o’z davrining til-u madaniyati, dini, dunyoqarashi, urf-odatlarini o’zida namoyon etadi. Mumtoz asarlarni o’rgatishda mavzuga mos interfaol usullardan foydalanish ayniqsa, yaxshi samara beradi. Shunday zamonaviy usullardan bo’lgan, hamkorlikda ishlashni ta’minlovchi “Guruhlarda ishlash” usuliga to’xtalamiz.

Kichik guruhlarda ishlashning etiborli xususiyatlari:

- guruhlarda aniq ko’rsatma berish;
- guruhlarda kechayotgan jarayonni baholab borish;
- o’quvchilarda hamkorlikda ishlashning samaradorligini ko’rsatib berish.

Kichik guruhlarga mumtoz adabiyotimizning tengsiz namunasi bo’lmish Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi “Farhod va Shirin” dostoni yuzasidan topshiriqlar beramiz.

1-topshiriq “Obrazli tasvir” deb ataladi. Bu shartda o‘quvchilar mazkur asarning eng kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan kulminatsion nuqtasidan, albatta o‘quvchilarning xohishiga ko‘ra obrazlarni o‘z tili bilan tasvirlashlari, kichik parchalar namoyish etishlari lozim. Asardagi “Farhod va Shirin” , “Farhod va Xusrav” dialoglari, Farhodning vidolashuv monologi, ayniqsa ta’sir kuchi kengligi bilan ajralib turadi.

Bu usul orqali o‘quvchilar asarning qisqacha jonli namoyishini ko‘rib qiziqishlari yanada ortadi. Asar ustida yanada ko‘p ishlashni ta’minlaydi. Shuningdek, o‘quvchilardan bosqichma-bosqich aktyorlik, sahna nutqi va madaniyati shakllanadi.

Keyingi interfaol usul asar mazmunini xulosalash, mustaqil fikr erkinligini oshirish maqsadida tashkil etilib “Sabab va oqibatlar” deb nomlanadi’

O‘quvchilar bilan doston mazmuni o‘rganilgach, ularning asar haqidagi fikr-tushunchalarini bilib olishimiz zarur.

Bu o‘yinni o‘tkazish uchun guruhning har bir o‘quvchisi o‘z daftariga quyidagicha jadval orqali fikrlarini bayon etishlari mumkin.

“Farhod va Shirin” dostoning fojiaiy yakuni:

Sabab	Oqibat
Farhod yuksak insoniy fazilatlar sohibi, hiyla-makrdan yiroq.	Farhod yolg‘on chinligiga ishondi.
Shirin mukammal aql-zakovatli, husnda tengsiz.	Xusrav har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham Shirinni qo‘lga kiritishni istadi.
Xusrav insoniy tuyg‘ulardan yiroq, nafs qurboni	Oxir-oqibat Farhod va Shirinning o‘limiga sabab bo‘ldi.
Sheruya munosib taxt vorisi emas.	Xusrav Sheruyadan yana bir boshqa voris bo‘lishini istadi.
Sheruya Xusravning otaliq mehrini his etmagan.	O‘z otasining padarkushiga aylandi.

Bu usulimiz orqali asar zahirida yotgan har bir oqibatning sababini izlashga mavjud holatning yuzaga keltirgan kuch nimada ekanligi yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan xulosaviy hikmatini chaqirish yordam beradi. O‘quvchilarni sergaklikka chaqiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

M.Sariboyeva “Alisher Navoiy asarlarini interfaol usullarda o‘rganish” Toshkent-2014

www.ziyo.uz

www.pedagog.uz

MUSIQA MADANIYATI O’QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI.

Hasanov O’ral Jo’raqulovich

Surxondaryo viloyati Denov tumani

42-umumta’lim maktab musiqa fani o’qituvchisi

Annotatsiya:Maqolada pedagogik mahoratning nazariy asoslari, hamda uning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: *Pedagogik mahoratning nazariy asoslari, hamda uning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi faoliyatida tutgan o'rni va ahamiyati. Yaxshi musiqiy - pedagogik mahoratiga ega bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki, pedagogik nazariyada o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etiladi..*

Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratini takomillashtirishda inovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar, ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Hozirgi kunda amaliyotda pedagogik texnologiyani qo'llash, dars jarayonini demokratlashtirish bilan birga, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini, uning ijodkorligini rivojlantiradi. O'quvchi va o'qituvchining doimiy do'stona munosabatda bo'lishi dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim doirasini o'stirishga asosiy omil bo'lmoqda.

Musiqa bolalarning ruhiyatiga va hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish vositasida ularni quvontiradi, yaxshilikka va go'zalikka etaklaydi, nafosat olamiga olib kiradi. Shunday ekan, musiqa madaniyat darslarida bolalar qiziqishining yanada kuchayib borishi musiqa rahbari oldiga katta vazifalarni qo'yadi. Negaki, musiqa o'qituvchilari tomonidan tashkil etilgan musiqiy mashg'ulotlar bolalarni barkamol inson bo'lib etishishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida musiqa o'qituvchilari bolalarni sevishi, o'z kasbiga oid fanlardan puxta bilimga ega bo'lishi, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim. Uning musiqa mashg'ulotlariga ijodiy yondashib, zamon [bilan hamnafas qadam tashlashi](#), zamonaviy texnika vositalardan, pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi muhim ahamiyatga ega. Zero, har bir bolalada musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa mashg'ulotlarining imkoniyati kengroq bo'ladi.

O’qituvchining musiqiy - pedagogik mahoratida milliy istiqlool g’oyasi, ozod va obod vatanga muxabbat va insonparvarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, komil insonni voyaga etkazish kabilarga e’tibor berishi lozim.

Demak, pedagog jamiyat xayotida etakchi urin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasiga ega bo’lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlari zaminida, uning mehnati natijalari yotadi. Pedagoglarning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va bilimlar integrasiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e’tiborga olish kabilar kuchli bo’lishi kerak. [Yuksak saviyali](#), zur mahoratli tarbiyachilargina, xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi.

O’qituvchining musiqiy - pedagogik mahorati asosida bolalarda yoshlik chog’idan idrok etish, his etish, turmush va san’atdagi go’zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go’zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo’lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo’lida olib borilayotgan ulkan ishining tarkibiy qismiga aylanmog’i kerak. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqali targ’ibot olib bormay turib, to’laqonli natijalarga erishib bo’lmaydi.

Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg’u uyg’otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o’sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini etarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma’naviy boy va boshqa sifatlarini tarbiyalab bo’lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg’ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Shunga ko’ra, musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog’liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ma’lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o’zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o’stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi, bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishiga katta ta’sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqelikni to’g’ri aks ettirgan musiqiy asardan o’rinli foydalanish alohida muhim o’rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.G.M.Sharipova. Musiqa o’qitish metodikasi. Maruzalar matni. T. «Nizomiy nomidagi TDPU», 2006 yil.

2.Hozir.org

SHAXS KAMOLOTINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TARBIYASINING ROLI

Normuradova Dinara Ilmuradova

Samarqand viloyati, Kattaqo’rg’on shahar

6-umumiy o’rta ta’lim maktabi

Musiqa madaniyati fani o’qituvchisi

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda O‘zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko‘taradi, uning taraqqiyotini ta’minlaydi, kelajagini oldindan ko‘rsatib beradi.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Har bir insonni ma’naviy shakllanishida oilani, maktabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafosat olemiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi.

Maktabda musiqa o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagtlardan iborat:

- o‘quvchilarni musiqa san’atiga bo‘lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida o‘quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy o‘quvi, ovozi, diqqat-e’tibori va ijodkorlik his-tuyg‘ularini o‘stirish;
- musiqiy asarlarni badiiy-g‘oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;
- musiqa darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog‘liq. Har qanday san’atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o‘qituvchisi pedagogika, psixologiya, bo‘lalar fiziologiyasi, musiqa o‘qitish va metodikasi hamda o‘z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson boiishi kerak. “Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ulami qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi”!. deb ta'kidlaydi o'z asarlarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

O'qituvchilik kasbi sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalami sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan boiishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Shunday ekan, hozirgi davrda, musiqa o'qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha yondashuv uning metodologiyasini chuqur o'rganish talab etadi. Umumta'lim maktablarida esa, musiqa madaniyati darslarning asosiy maqsadi, o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish vositasida musiqiy madaniyatini tarkib toptirish. Zero kuy va ohang ta'sirida inson ezgulikka intilish, go'zallikni asrash, ona tabiatga, ona Vatanga muhabbat his tuyg'ularini shakllantirib, ma'naviy dunyosini boyitadi.

ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИДА МУСИҚАНИНГ ЎРНИ

Мўминова Латофат Нуриддин қизи

Ўзбекистон Давлат консерваторияси 1-курс магистранти.

Болтаев Навфал Содиқ ўғли.

ЎЗМТРК сухандони

Аннотация: *Ҳар бир халқнинг маданияти, миллий санъати ва бой бадиий анъаналари, аجدодлардан мерос қолган моддий ва маънавий бойликлари билан белгиланади. Шундай қадриятлардан бири мусиқа санъатидир. Қўшиқ ва куй билан инсонни ҳар қандай руҳий ҳолатини ижобий томонга яъни, яхшилик, ёруғлик, саҳийлик, мусаффолик, кўнгилчанлик, беғуборлик ва бошқа ҳиссиётларини уйғотиши мумкин. Ҳатто руҳий касалликларни мусиқа ва санойи нафиса билан даволаш мумкинлигини илм уламолари, олимлар таъкидлаб ўтишиган.*

Калит сўзлар: *алла, ашула, фолклор, достон, мақом, жанр, тадқиқот.*

Тиббиёт илмининг султони, аллома Абу Али Ибн Сино ўзининг тиббиётга оид китобларида мусиқага, унинг таҳлилига тўхталиб ўтган ва ўзи ҳам мусиқа созларида чалишни билган. Мусиқадаги товушлар, нағмалар ва усулларнинг инсон организмга таъсири, даволаш ва акс таъсир кўрсатиши мумкинлигини ёзиб қолдирган.

Ақл кетар бўлса ҳар тандин йироқ,

Жиннилик асари юз бергай шу чоқ.

Гўзаллар юзига тиксин кўзини,

Най-у, уд, чангга ҳам тутсин у қулоқ.

Юсуф Ат-Табиб Ал-Ҳаравий (VI аср)

Мусиқани инсонларда, хусусан ёшларда тўғри шакллантириш ҳақида гап борар экан, уни қай пайт ешиттириш ёки ешитиш маданиятини ўргатишни бошлашимиз лозим? Бу саволга жавобни кўпчилик билади, аммо камдан-кам инсонлар риоя қилади. Аёллар фарзандига ҳомиладорлик давриданок тарбия беришни, унда гўзал ҳулқ шаклланишини таъминлаб беришлари ва бу борада чиройли мусиқалар, миллий-мумтоз куй, қўшиқлар эшиттирсалар ёки она алласини чин юракдан куйлаб берсалар айна мақсадга мувофиқ бўлади.

Она алласи инсон туғилибоқ биринчи эшитиши мумкин бўлган қўшиқлардан биридир. Асрлар давомида сайқалланиб келаётган алла қўшиғи оддийгина икки пардани бир-бирига боғлаб куйланган бўлсада, унинг она юрагидаги дард, нола, мунг, шодлик, ният, орзуларини ўз ичига олган. Оддий икки парда бешик, беланчакнинг бориб келиши ҳолатидан олинган бўлса ажаб эмас.

Бешик инсонни жисмоний камолотга етказса,

Она алласи уни маънавий камолотга етказади.

Абу Али Ибн Сино

Алла сўзидаги ҳар бир яхши тилак, орзу – ҳавас, гўдак улғайгач ўз таъсирини кўрсатади деган умидда қиз ёки ўғил фарзанд бўлишидан қатъий назар, Ватанига содиқ, мард, жасур, меҳрли, ёрига вафодор, оилапарвар, меҳнаткаш инсон бўлиб шаклланишида муҳим рол ўйнайди.

Юнон файласуфи Арасту “Бир халқни билмоқчи бўлсанг, уни мусиқасини тингла. Ундаги пардалар бузиб чалинса ёки куйланса, демак бундай халқнинг турмуши ва маънавияти қолоқ ва уларни осонлик билан забт этса бўлади” дея маънавий камолотда мусиқанинг ўрнини муҳим ҳисоблаган.

Сўз ожизлик қилган вақтда, мусиқа ёрдамга келади.

А.С.Пушкин

Ушбу жумлалар сўз ва мусиқа уйғунлиги бўлмиш кўшиқнинг илоҳий куч эканлигини таъкидлайди. Кўшиқдаги турли бўрттирмалар, урғулар, ҳар хил кайфият, талаффузлар, чўзимлар, динамикалар ёрдамида эшитувчига сўзларни шундай етказиш мумкинки, юракнинг туб – тубидаги дардларни жумбушга келтиради. Айниқса, ўзбек халқи феълининг соддалиги, беғуборлиги, ғурурлилиги, меҳр – шавқат руҳиятига тўлалиги айнан улар тинглайдиган куй ва кўшиқлар таъсири десак маболаға бўлмайди.

Шарқ халқларининг мусиқий санъати узоқ ўтмишга бориб тақалади. Аҳолининг яшаш тарзи, шароити албатта, мусиқий маданиятига таъсир кўрсатмасдан қўймади. Халқ орасида турли жанрлар пайдо бўлди. Кўшиқ жанри, ашула жанри, фолклор жанр, мақом жанрлари асрлар оша сайқалланиб, ҳозирги кунда ёш авлодга миллий мерос сифатида ўргатиб келинади. Шу ўринда бу жанрларни алоҳида таснифлаб ўтиш лозим.

Ашула – кўшиқнинг ривожланган айтим тури бўлиб, овоз кўламининг нисбатан кенглиги, куйларнинг оҳангдорлиги, ритмларнинг серкирра ва мураккаблигига эга. Ашулада ҳам бармоқ, ҳам аруз вазнли шеърлар ва ғазаллар қўлланилади. Ишқий – лирик кайфият ифодаланиши билан бирга, фалсафий, дидактик мавзулар баён этилади. Ашула жанри халқ мусиқа ижоди ва устозона мусиқа қатламлари орасида ўзига хос боғловчи “кўприк”дир. Ашула ва кўшиқ ўртасидаги фарқларнинг яна бири, ашулада шартли равишда тузилган шеър олти бўлакдан ташкил топади, буларга даромад, миёнхат, дунаسر, ўрта авж, катта авж, фурувард. Кўшиқда эса куплет, нақорат ва авж кузатилади.

Кўшиқларнинг фолклор жанрига терма, ялла, лапар, бахшичилик ва дostonчилик киради. Булар ичида энг қадимийси дostonчилик санъатидир. Дostonчилик жуда қадимдан ривожланиб, оғиздан оғизга, отадан болага, устоздан шогирдга ўтиб келаётган қадриятдир. Дoston ижро этувчи ҳам кўшиқчи, ҳам шоир, сўз устаси, соз устаси, актёр, психолог ва яхши импровизатор бўлиши талаб

этилади. Ҳозирда Ўзбекистонда турли дostonчилик мактаблари мавжуд бўлиб, булар Қорақалпоқ, Хоразм, Қашқадарё-Сурхондарё ва Нурота мактабларидир. Қорақалпоқ, Қашқадарё-Сурхондарё ва Нурота дostonчилик мактаблари дoston куйлаш жараёнида томоқ қирилган ҳолда ўзига хос овоз чиқариш услубида ижро этишади. Бу дostonчилик мактаби бахшилари фақат дўмбира ва кўбиз жўрлигида номалар куйлаб, сўз айтиш вақтида дўмбираларини чалган ҳолда, ўз пардасини йўқотмасдан, эшитувчининг диққатини янада тортиш, сўзларни таъкидлаш ва тасдиқлаш мақсадида безак беришади. Хоразм дostonчилик мактаби бахшилари улардан фарқли ўлароқ, бахшининг ёнида унга жўр бўлиши учун созандалар ҳамроҳлик қилишади. Номалар айтилганда бахшининг ўзи тор чалиб куйласа, ёрдамчи сифатида доирачи ҳамроҳ бўлиб бирга куйлайди. Айрим ҳолларда буламон, ғижжак созлари жўрнавозлик қилишади. Хоразм дostonчилигининг яна бир ўзгача томони, айтишувлар вақтида аёл хонандалар ҳам қўшилиб куйлашган. Бунинг сабаби бадий образни янада реалликка етаклашдир. Мисол тариқасида Ўзбекистонда хизмат кўрсатган бахши Отахон Матёкубов “Ошиқ Ғариб ва Шохсанам” дostonидаги эркак образларини ўзлари ва доирачилари билан бирга куйлар эдилар, аёл образларини эса Маҳбуба исмли аёл шогирдлари маромига етказиб ижро этар эдилар. Ушбу ҳолат эшитувчининг таассуротини оширади, тасаввур қилиш имконини кенгайтиради.

Қадимдан бизгача етиб келаётган ва ва бой меросимизга айланган, ўта нозик дид ила монументал кўринишга эга бўлган ҳозирги давр тилида айтганда профессионал бир жанр борки, бу “Мақом”дир. Мақом бу – жой, макон, замон, парда ва ҳоказо маъноларни англатади. Мақом асарлари сарой мулки ҳисобланилган ва фақатгина саройларда ижро этилган. Мақом ижрочилари ва хонандалари саройда яшаб ижод этишган. Оддий халқ эса юқорида кўрсатиб ўтилган фолклор кўшиқ ва ашулалардан баҳраманд бўлишган. Мақомлар уч воҳага бўлинган Хоразм мақомлари, Бухоро Шашмақоми ва Тошкент – Фарғона мақом йўллариidir. Бу мақом тузилиши жиҳатидан бир-бирига ўхшаб кетсада, асарларнинг оҳанглари, ладларидаги фарқни кўриб лол қоласан киши.

Кўшиқ, куй ёрдамида нафақат инсонга балки, борлиқдаги барча жонли нарсаларга таъсир ўтказиш мумкин. Жонли мавжудот борки, унинг организмда суюқлик мавжуд. Инсон организмнинг 70%и суюқликдан иборат. Япониялик олимларнинг тадқиқотларидан бирида икки идишга сув солиниб, уларнинг бирига классик йўналишдаги мусиқа эшиттирилган ва музлатилган. Иккинчи идишдаги сувга рок йўналишидаги кўшиқ эшиттирилган ва у ҳам музлатилган. Идишларнинг биринчиси, яъни классик кўшиқ эшиттирилган идишдаги музлатилган сувда ҳосил бўлган кристал шакл бежирим, чиройли гуллар ва нақшлар чизилгандек. Иккинчи, яъни рок жанри эшиттирилган идишдаги музлатилган сув аксинча, учкур, қиличсимон, тикансимон кристаллар ҳосил бўлган.

Шунга ўхшаш тадқиқотлардан яна бирини Голландиялик олимлар ҳам ўтказишган. Уларнинг тадқиқотлари гул устида бўлган. Учта бир хил гул экилган ва биринчисига классик, иккинчисига фолклор, учинчисига рок жанри мусиқалари эшиттирилган. Классик ва фолклор мусиқа тинглаган гуллар чиройли барг ёзиб, гуллаб кетган. Рок мусиқа тинглаган гул узоқ яшамасдан сўлиб қолган.

Буюк Брмтаниялик докторлар бу тадқиқотни инсонларда қўллашган. Тадқиқот она қорнидаги болага классик ва рок йўналишларидаги мусиқалар эшиттириш орқали натижа олишга қаратилган. Классик мусиқа тангланганда ижобий натижага эришилган, яъни, ҳомиланинг юраги минутига 128 марта, рок қўшиқ эшитганида эса минутига 158 маротаба урган. Қолаверса, она қорнидаги ҳомиланинг эшитиш органлари 20 ҳафталигида тўлиқ ривожланиб, эшитишни бошлайди. Туғилиши билан нафаси очилиб, йиғлашни бошлаши унинг биринчи овоз чиқариши ҳисобланар экан.

Кўриб турганимиздек, мусиқанинг, қўшиқнинг бутун наботот оламига таъсир кучи бор экан.

XIX – асрнинг ўрталарида Рус олимлари инсоннинг шаклланишида агрессив характердаги мусиқалар инсон онгини пасайишига олиб келишини, унда кўрқув, боқибеғамлик, ғаразлик каби ёмон иллатлар кучайишини аниқлашган. Шарқ мутфаккирлари “болани паст овозда, ёқимли сўзлар ва мусиқа билан унинг кўнглига йўл топинг. Вояга етгач у нисбатан онгли, етук, ақлли, фаросатли жиҳатлари билан ажралиб туради” деб таъкидлаганлар.

Шифокорларнинг айтишича, тўғри нафас олиб қўшиқ куйлаган ёки дамли чолғулар ижро қилган инсонларда нафас йўллари касалликлари деярли учрамас экан. Бундан ташқари, қўшиқ куйлаган ижрочининг юз мускуллари ишлаши натижасида нутқи равон, лингвистик камчиликлардан ҳоли бўлишига ёрдам беради. Мусиқа ёрдамида инсон юрак дардларини чиқариб юбориши мумкин. Бу эса қариш аломатларини секинлаштиради.

Бундан шундай хулосага келишимиз мумкинки, мусиқа эшитган ёки қўшиқ куйлаган инсон ҳам маънан, ҳам жисмонан шаклланади. Ёшларнинг маънавий озуқа олишида , жамиятимизнинг маданий тараққиётида ўзига хос йўналишларни ривожлантириш асосий мақсадларимиздан биридир.

2020-йилнинг Президентимиз томонидан “Илм - маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили” деб эълон қилингани мусиқа оламига ҳам ўз таъсирини ўтказмоқда. Ёшларнинг мусиқий билим олишлари учун барча шарт шароитлар муҳайё. Фақатгина хоҳиш, истак ва ота оналари томонидан қўллаб қувватлаш бўлса бас. Миллий мусиқаларимизни тинглаш фарзандларни, ҳар бир ёш авлодни баркамол вояга етказишига ишонамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И. Ражабов “Мақомлар масаласига доир” –ЎзССР давлат бадий адабиёти нашриёти. Тошкент 1963
2. Б.Матёкубов “Достон наволари” –Илмий нашр. Тошкент 2009
3. Г.Муҳаммедова “Дутор” –Шарқ нашриёти. Тошкент 2004

РАҚС САНЪАТИ – ИНСОН МАЪНАВИЯТИ ОЗУҚАСИ

Ибрагимова Чарос Шодмоновна,

Самарқанд ихтисослашган санъат мактаби

хореография бўлими ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада ўзбек миллий рақс санъатининг тарихи, эволюцияси, рақснинг жамият ҳаётидаги маънавий-тарбиявий ўрни ҳақида сўз юритилган. Рақс пластикаси, рақс ҳаракатларининг табиий унсурларга, турли мавжудотларнинг ҳаракатларига нисбатан тақлидан яратилиши борасида мутахассисларнинг фикрлари, Ўзбекистонда рақс санъатининг истиқболлари ҳақидаги мулоҳазалар баён қилинган.

Калит сўзлар: рақс, санъат, пластика, тарбия, раққоса, бадийий усул, муқаллидлар, маросим ўйинлари, мақом, нафосат

Ўзбек халқининг миллий ифтихори бўлган рақс санъати неча-неча асрлар давомида шаклланди, ривож топди. Лекин бу санъат тури ёзма равишда ўз аксини топмаганлиги боис турли даврларда унутилиб кетар, моҳир уста санъаткорлар даврида яна шаклланади эди. Улар шу кўринишда бизнинг давримизгача қисман етиб келган. Ўзбек рақс даҳолари яратган ғоявий-бадий жихатдан юксак мумтоз рақслар халқимизни асрлар давомида инсонпарварлик, она Ватанга муҳаббат, жасорат, фидокорлик, курашчанлик, гўзал хулқ руҳида тарбиялашга яқиндан ёрдам бериб келмоқда. Келажак авлодни вояга етказиш, халқ орасида ҳақиқий инсонийлик муносабатларини шакллантиришда ўзбек халқининг мероси бўлган бугунги кунда муҳим эстетик тарбия воситаси сифатида хизмат қилмоқда. Инсон тарбияси эстетик, ахлоқий-маданий тарбия соҳалари билан узвий боғлиқдир.

Рақс – сўзсиз шеърят, кўшиқ, халқ қалбини ўзига сингдирадиган ҳиссий солномадир. У ҳислар ва воқеалар тарихини ўзига хос тарзда ҳикоя қилади. Кишилар рақсни томоша қилиш асносида ҳаётни англайди. Рақс тушаётиб эса уни пластик ҳаракатларда ифодалайди. Рақсда ҳар бир халқ ўз ҳаётини акс эттиради. Шунинг учун ҳам улардаги пластик образлар бетакрордир. Ўзбек рақсларининг бетакрорлиги нафақат образларнинг пластик таркибида, балки уларнинг ижро усулларида, мусиқаси оҳангларида, либосларнинг ранг-баранглиги ва ўзига хослигида кўринади.

Маълумки, рақсларда табиат образи яратилади. Уларда қўл жилвалари, ўрмон йўлаклар, ариқ жилдираши, дарахт гуллари, қушлар парвози ўз аксини топади. Бу рақсларда намоён бўладиган образлар ижрочиларни ҳам, томошабинларни ҳам мажозий фикрлашга ундайди. Раққосаларнинг ҳар бири ижро чоғида ўзини бутуннинг қисми сифатида ҳис қилиб, гоҳ барг, гоҳ гул, гоҳ сув кўриниши намоён

этади. Бу бадий усулнинг шартлилигини, рақс тасвирларида поэтик умумлашма мавжудлигини, унда ҳаёлот, тасаввур кенглиги, образли фикрлаш борлигини англатади. Қадимги рақс ижодкорлари ҳам дунёни образли тафаккур қилишган. Бу эса ўз-ўзидан инсон маънавий-руҳий дунёсининг бойишига муҳим омил бўлиб хизмат қилган.

Энг қадимий ибтидоий даврдан то бугунга қадар жамият ҳаёти билан ҳамоханг яшаб келаётган рақс санъати туйғуларни ҳаракат ва ҳолатларда, имо-ишораларда(мимика) шундай нафис ифодалайдики ҳайратланмай илож йўқ. Оддий ҳаракатларга жон бахш этиш, у орқали бадий образ яратиш билан чинакам рақс асари яралади. Бу хусусда машҳур рус балеринаси Г.Уланова шундай дейди: “... Рақс, унинг тасвири, композицияси ҳақида ўйлаб, бир жиҳатнинг иккинчисига ўтиши, уларнинг алоқаси мантиғини тушунгандек бўлдим. Буни тушунганингдан кейин унинг уйғунлиги, оҳангдорлиги келиб чиқади, мутаносиблиги вужудга келади. Бу рақс санъатидаги энг муҳим жиҳатдир. Шундан ранг-баранг нафосат намоён бўлиши мумкин. Акс ҳолда, у шунчаки бадантарбия, қуруқ ҳаракатдан иборат бўлиб қолади. Туссиз, рангсиз ҳаракатлар такрорланаверади. Фақат юқоридагилар ҳисобга олингандагина рақсда мазмун, ифодавийлик зоҳир бўлади”.

Бизгача етиб келган рақсларнинг тур ва жанрлари ранг-баранглиги ҳайратга соларли даражада. Шу кунлардаги рақс санъатимизда бир қанча қатлам аниқ кўриниб туради: келиб чиқишига кўра аجدодларимизнинг ибтидоий тасаввурларига алоқадор муқаллидлар ва маросим ўйинлари; бир замонлар зардуштийликнинг рамзий образлари ва муқаддас китоби “Авесто” арконлари билан боғлиқ ҳолда майдонга келган рақслар, ўрта асрларда мақом мусиқаси билан мустаҳкам алоқада шаклланган мумтоз рақслар; Бухоро амирлиги, Хива ва Қўқон хонликлари ҳудудларида таркиб топган Бухоро, Хоразм ва Фарғона рақс услублари; XX асрда профессионал ва ҳаваскорлик ансамбллари фаолиятида кенг ривожланган халқ саҳнавий рақслари, замонавий эстрада, цирк, театр рақслари, болалар рақси ва ҳоказо.

Ўзбекистон мустақиллиги йилларида умумхалқ Мустақиллик ва Наврўз байрамлари, Бухоро, Хива, Термиз, Шахрисабз шаҳарлари ҳамда буюк олимлар, алломалар, давлат арбоблари юбилейлари муносабати билан ўтказилган байрам томошаларида ўзига хос майдон рақси вужудга келди. Табиийки, рақс санъатининг мана шу барча турлари, жанрлари, услублари бир-биридан ажратилмаган, балки малакали артистлар ва ҳаваскорлар ижодида халқ ва профессионал ансамбллар фаолиятида улар бир-бири билан боғланган ва ўзаро таъсирланган ҳолда яшаб келади.

Ҳамон ўзбек рақс санъатида бир-биридан гавда ҳолатлари, кўл ва оёқ ҳаракатлари, таркиби, композицион тузилиши, либослари билан фарқ қилувчи Хоразм, Бухоро ва Фарғона услублари аниқ кўзга ташланиб туради. Рақс усталари,

балетмейстер, ансамблларнинг раҳбарлари рақс услубларининг ўзига хослигини, эстетик хусусиятларини соф сақлашга ҳаракат қилиб келишади. Хоразм ва Бухорода ҳозир ҳам қайроқ билан усул бериш, қўл ва оёқларга қўнғироқчалар боғлаб чиқиш (занг), Хоразм раққосаларининг жиғали қалпоқлари ва кўкракка тақиладиган баргаклари. Бухоро раққосаларининг кўпинча зардўзи кенг кўйлаклари ва баланд қасавали бош кийимлари ҳамон қадрлидир. Фарғона рақсида эса доира усуллари, пухта ишланган қўл ҳаракатлари, жилвалари муҳим ўрин эгаллаб келади.

Мана шундай бой тарихга, бетакрор ижро йўналишига эга бўлган миллий рақс санъатимиз халқимизнинг бебаҳо бойлиги сифатида эътироф этилади. У инсон руҳиятига ижобий таъсир этувчи, ҳис-туйғуларни тарбияловчи, ушбу санъат билан машғул бўлган ёш авлод ҳам жисмонан, ҳам маънан етук шахс бўлиб вояга етишиши билан аҳамиятлидир.

Инсон маънавиятининг камолотга етишида муҳим саналган рақс санъатига мустақиллик даврида, айниқса сўнгги уч йил ичида эътибор кучайди. Давлатимиз томонидан эълон қилинган бир қатор қарор ва фармонлар бунинг яққол исботидир. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 4 февралдаги “Рақс санъати соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”²¹ги ПҚ-4584-сон Қарори ҳамда ушбу қарорга асосан «Мукаррама Турғунбоева номидаги “Баҳор” давлат рақс ансамбли» давлат муассасаси фаолиятини ташкил этиш чора тадбирлари Ўзбекистон хореография санъати учун энг муҳим қарор ҳисобланади. Тошкент давлат миллий рақс ва хореография олий мактаби негизида Ўзбекистон давлат хореография академиясининг ташкил этилиши, “Баҳор” давлат рақс ансамблининг қайта тикланиши рақс санъатимиз ривожига, янада тараққий этишига хизмат қилади.

Дастурда “Ўзбек миллий рақс ва хореография санъатини янада ривожлантириш, маданият ва санъат ривожига катта ҳисса қўшган таниқли санъаткорлар, жаҳон миқёсидаги нуфузли кўрик-танловларда юқори ўринларни эгаллаган ёшларни моддий қўллаб-қувватлаш” ва бошқа бир қатор вазифалар белгиланиб, соҳа тараққиётининг қонуний асослари яратилгани билан ушбу қарор барча хореография соҳаси вакиллари зиммасига юксак масъулият юклади.

Вилоятларда хореографияга ихтисослаштирилган мактабларни очиш таклифи ушбу соҳани кенг тарғиб қилиш, ёш алодни рақс санъати орқали жамиятда ўз ўрнига эга, ватан равнақи йўлида камарбаста шахсларни тарбиялашга қаратилган энг муносиб қарорлардан бири десак янглишмаймиз.

Зеро, бугунги кунда миллий маданият, урф одат ва анъаналар замиридан узоқлашиш ҳолатлари миллий қадриятлар тизимига жиддий хавф солмоқда.

²¹ <https://lex.uz/docs/4724480>

Айниқса, сўнгги йилларда глобализмнинг жиддий хавфи “оммавий маданият” унсурларини тоборо кўпайиб боришига сабаб бўлмоқда. Бундай вазиятда санъат ва маданият орқали инсон қалбини поклаш, уларни миллий қадриятлар руҳида тарбиялашга катта ишонч ва умид бор. Бу санъатлар тизимида рақс санъати тараққиётини миллий қадриятлар зимирида шакллантириш ва ривожлантириш ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда маънавий баркамол инсонни тарбиялаш умумдават вазифаси даражасида кўтарилган ушбу даврда юқоридаги каби давлат дастурлари асосида Мустакил давлатимизнинг маънавий-марифий ислохотларида санъат аҳлининг фаол иштироки ва ёшларни юртга содиқ, баркамол авлод қилиб тарбиялаш муҳим аҳамияти турли ҳил тадбирларда қўйилаётган муаммолар ва масалар хусусида атрофлича мулоҳаза юритиш ва чуқур мушоҳада чигригидан ўтказиш муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбек рақс санъатининг тарихий анъаналарини ва усулларини тиклаш, авайлаб-асраш ҳамда бойитиш, миллатимизнинг ўзига хос шарқона фазилатлари, бой маънавиятига монанд рақсларни тарғиб этиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, рақс санъатини халқимизнинг юксак маънавияти ва нозик дидига зид бўлган, юзаки, ноўрин тақлидга асосланган хатти-ҳаракат ва либослар хуружидан сақлаш, махсус таълим тизимини такомиллаштириш, ўзбек халқининг асрлар давомида шаклланган ва авлоддан авлодга ноёб мерос сифатида ўтиб келаётган жозибали рақс намуналарини тўплаш, бойитиш; халқимиз, айниқса, ёш авлод онгига бу бебаҳо бойликларга чуқур ҳурмат ва ҳавас туйғуларини сингдириш, уларда миллий маънавиятимиз, қадриятларимизга нисбатан эҳтиром ҳисларини юксалтиришга қаратилган барча ислохотларда биз каби шу соҳанинг барча вакиллари зиммамизга юклатилган масъулиятни чуқур англашимиз лозим.

Фаолиятимиздаги камчиликлар, муаммоларни бирлашиб бартараф этиш, янгидан янги марраларга эришиш, муваффақиятлар қозонишда бирдам бўлишимиз заруратдир. Ўзбекистон нуфузини дунё ҳамжамиятида янада юксалтириш, ўз санъатимиз орқали миллатимизнинг бой тарихий анъана ва урф-одатлари, бетакрор маданияти ва санъати борлигини доимо намоён этишимизда яратилаётган имкониятлардан муносиб фойдаланишимиз керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил, 6 сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 1 июнь
3. Глобаллашув жараёнида хореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари. Республика илмий –амалий анжумани материаллари тўплами. –Тошкент: Иқтисод – молия нашриёти, 2012 й.
4. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. Қадим замонлардан XIX асрга қадар.- Тошкент: Фан, 1975 й. 170 б.
5. Авдеева Л.А. Ўзбек миллий рақси тарихидан - Т.: М.Турғунбоева номидаги “Ўзбекрақс” миллий рақс бирлашмаси, 2001.

ДИН ПСИХОЛОГИЯСИ ФАНИДА ВАҚТ БОШҚАРУВИ ФЕНОМЕНИНИНГ ТАҲЛИЛИ

З.Касимова

Педагогика фанлари номзоди, доцент

Ж.Ибрагимов

Ўзбекистон халқаро ислом академия

2-курс магистранти

Аннотация: *Мазкур тезисда сўз “time management (вақт бошқаруви)” ҳақидаги умумий таъриф, бу феноменнинг психология ва хоссатан дин психологияси фанида тутган ўрни ва таҳлили ҳақида боради. Билдирилган фикрлар ҳам диний ҳам психологик манбалар асосида мустаҳкамланади.*

Калит сўзлар: *менежмент, time management, дин психологияси, психология, вақт бошқаруви, ислом, ҳадис.*

Маълумки, давлатимизда бозор иқтисодиётига ўтиш айниқса сўнги йилларда кескин тарзда жадаллашмоқда. Шу боис, мамлакат иқтисодиётида хусусий секторни кенгайтириш ва рақобат муҳитини яратиш учун зарурий чоралар кўрилиб, бу борада бир қанча ютуқларга ҳам эришилмоқда. Рақобат муҳитида фаолият юритаётган шахсларда эса табиийки вақт тиғизлиги ва белгиланган вазифаларни ўз муддатида бажариш билан боғлиқ бўлган бир қатор мураккабликларни ва ички безовталиқни келтириб чиқаради. Айни шу безовталиқни йўқотиш ҳамда белгиланган вазифаларни ўз вақтида ва самарали амалга оширилишига эришиш учун бугунги кунда психология ва менежмент соҳаси вакиллари томонидан тайм менежмент, яъни вақт бошқаруви тамйиллари ишлаб чиқилган.

Time management (вақт бошқаруви) – бу инсоннинг самарадорликни оширишга қаратилган вақтни роционал режалаштириш ва уни амалиётга тадбиқ этиш билан боғлиқ жараёндир. Инсон соғлом рухиятга ва юқори самарадорлик ибла узоқ мудда фаолият юритиши учун ўзининг кунлик вақтини 4та соҳада роционал тақсимлаши лозим. Булар: иш, ижтимоий ҳаёт, оила ва ҳобби. Юқорида санаб ўтилган таркибий қисмларнинг ҳар бири шахс камолотида муҳим рўл ўйнайди ва рухий саломатлигига бевосита таъсир кўрсатади. Вақтни тўғри тақсимлаш ва уни бекорга сарфламаслик борасидаги қарашлар Ислом дини манбаларида қуйидагича баён қилинади: “Қиёмат кунда банданинг қадами то тўрт нарсадан сўралмагунча жойидан жилмайди: умрини қандай ўтказгани, ёшлигида нима қилгани, молини қаердан топиб нимага сарф қилгани, илмига қай даражада амал қилгани ҳақида”.

Имом

Термизий ривояти.

Абу Хурайра розияллоху анхудан: “Расулulloх соллаллоху алайхи васаллам дедилар: Кишининг ўзи учун муҳим (зарур) бўлмаган нарсаларни тарк қилиши унинг Исомининг гўзаллиги (комиллиги)дандир”.

Термизий ва

Ибн Можа ривояти.

Гувоҳи бўлиб турганингиздек инсон қиёмат куни сўраладиган нарсаларининг 2таси умр ва ёшликни нимага сарф қилгани бевосита вақт бошқаруви билан боғлиқдир. Кейинги ҳадисда эса вақтдан унумли фойдаланиш ва уни беҳуда сарф этмаслик киши динининг гўзаллигидан саналиши таъкидланмоқда. Ушбу ҳадисларни ўз ҳаётига тадбиқ этиб юксак натижаларга эришган ва ўз замонасининг энг кучли олимларидан бўлган шахс мисолада мазкур билимларнинг амалиётдаги тадбиқига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Тобеъинларнинг улуғларидан бўлган Аъто ибн Аб Рабоҳ ёшлигидан вақтини учга тақсимлади. Бирини саҳобасига ажратди. Чин дилдан унинг хизматларини бажарди. Зиммасидаги вазифаларни тўла адо жйтишга интилди. Иккинчи қисмида Аллоҳ таолога ибодат қилди. Барча ибодат амалларини Аллоҳ азза ва жаллага юкиниб, холис бажарди. Вақтининг учинчи қисмини эса илм олишга сарфлади. Саҳобаи киромлар ҳузурига бориб илм ўрганди.²²

Шу боисдан ҳам вақтни самарали тақсимлаш ва шахсий камолотга эришимизга кўмак бўладиган нарсаларга йўналтириш нафақат бугунги куннинг балки ислом динининг талабларидан бири десак ҳеч муболаға бўлмайди. Бу борада изланишлар олиб борган олимлардан бири Италиялик иқтисодчи Вильфредо Парето (1848-1923) ҳар бир инсон вақтини тўғри тақсимлай олишига кўмак берувчи мазкур жадвални ишлаб чиқади.²³ Бунга кўра машғулотлар 2та тоифага тақсимланади: 1- 20% фойда келтирувчи, 2- 80% фойда келтирувчи. Шу тариқа шахс ўз вақтининг аксар қисмини қандай ишларга сарфлаётганини аниқлаб олади ва бу орқали кам самара берувчи машғулотларга сарфланадиган вақтни иложи борица минималлаштириш имконига эга бўлади.

20% фойдалилик даражаси	80% фойдалилик даражаси
Бизга бошқалар томонидан юклатиладиган ишлар	Шахсий мақсадларимизга эришишга ёрдам берадиган ишлар
Биз кўл учиди ва бир амаллаб бажарадиган ишлар	Бизга ҳузур бағишлайдиган ишлар
Сизни ишлаётган пайтингизда чалғитишадиган иш	1-1,5 соат мобайнида узлуксиз давом этадиган иш
Биз яхши ўзлаштирамаган иш ва машғулотлар	Биз муттаҳасиси бўлган ишлар

²² Абдурахмон Рафъат Пошо, Тобеъинлар ҳаёти, Тошкент, “Шарқ”, 2018, б. 14.

²³ Щербатых Ю.В., «Психология предпринимательства и бизнеса», Питер, ООО «Питер Пресс», 2009, С. 205.

Ноқобил ва интилувчан бўлмаган инсонлар билан бирга амалга ошириладиган фаолият	Малакали ва интилувчан ҳамкасблар билан амалга ошириладиган фаолият
Шошилинч ва тартибсиз ҳолда бажариладиган ҳар қандай иш	Шошилмасдан, ўйлаб, ҳамма нарсани ўз жойига қўйиб фаросат билан амалга ошириладиган ишлар

Хулоса ўрнида юқорида келтирилган вақт бошқаруви қоидаларига амал қилиш орқали ҳар бир инсон эришиши мумкин бўлган натижаларни санаб ўтишни жоиз деб билдик:

- юқори самарадорлик
- яхшироқ профессионал репутация
- камроқ стресс
- ривожланиш учун кўпроқ имкониятлар
- профессионал ва ҳаётий мақсадларга тезроқ эришиш имконияти

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдурахмон Рафъат Пошо, Тобеъинлар ҳаёти, Тошкент, “Шарқ”, 2018, 384 б.
2. Щербатых Ю.В., «Психология предпринимательства и бизнеса», Питер, ООО «Питер Пресс», 2009, 304 с.

ҚУРЪОНИ КАРИМ МАЪНО ТАРЖИМАЛАРИ: ДУНЁДА ВА БИЗДА

Рашиданхон Иброҳимов

*Ўзбекистон халқаро ислом академияси
магистранти*

Қуръони карим XII асрдан бошлаб Европа халқлари тиллари, жумладан, лотин тилига таржима қилина бошланган. Қуръони каримнинг Европа тилларига таржималари борасида олиб борилган тадқиқотларга қарайдиган бўлсак, энг дастлабки таржима лотин тилида қилинган бўлиб, Петр Достопочтенный (1092-1156) буйруғига кўра, 1143 йилда Петр Толедский, Петр Пуатье кабилар томонидан ёзиб тугатилган.

Айтиш жоиз, Ғарбда Қуръонни ўрганиш асосан XVI асрдан бошлаб жадал суръатларда тараққит этган. Бу ўша даврда қилинган бир қатор таржималарда кўринади. 1530 йилда Венецияда Қуръон чоп этилди. Балда 1543 йил Библиандр Роберт Кеттонский томонидан амалга оширилган Қуръоннинг лотин тилига таржимаси нашр этилди. Француз шарқшуноси Андре дю Рие томонидан қилинган француз тилидаги таржиаси 1647 Парижда чоп этилди. Шу таржима асосида Пётр I буйруғига биноан Қуръон рус тилига ўгирилди ва 1716 йил Петербургда чоп этилди. Ушбу француз тилидаги таржима кўп тиллардаги бошқа нашрларга асос бўлиб хизмат қилган.

Қуръони каримнинг инглиз тилидаги таржимаси илк бор 1649 йил Александ Росс томонидан қилинган. Лекин бу таржимаси аслиятдан, яъни араб тилидан эмас, балки француз тилидан қилинган. 1698 йилда италиялик Людовик Мараччи томонидан Қуръоннинг араб тилидаги нашри, 1734 йилда эса Лондонда Жорж Сейл тарафидан Қуръоннинг янги инглиз тилидаги таржимаси чоп этилди.

Қуръон XVIII аср бошларида Европа халқлари тилларидан, XIX аср ўрталаридан арабча асл матндан рус тилига таржима қилинган. Арабчадан Г.С.Саблуковнинг дастлабки русча таржимаси Қозонда 3 марта (1878, 1894, 1907) нашр қилинган. Қуръоннинг рус тилидаги адекват-адабий таржимаси илмий изоҳлари билан академик И.Ю.Красковский томонидан амалга оширилган ва унинг вафотидан кейин (1963) нашр қилинган.

Албатта, Ғарб мутафаккирлари томонидан олиб борилган дастлаб исломга оид тадқиқотлар унга нисбатан ҳурмат асосида эмас, балки танқидий руҳда олиб борилгани бугун ҳеч кимга сир эмас. Хусусан, муқаддас китоб - Қуръони каримни таржима қилишда ҳам ноҳолисона ёндашув устувор бўлган. Шунинг учун ҳам бундай таржималар мусулмонлар жамоаси, чунончи, анъанавий мусулмонлар уламолари томонидан қабул қилинмаган, рад этилган.

Бугунги кунга келиб Қуръони Каримнинг араб тилида 2700 (маъно таржима ва тафсир), рус тилида 23та таржималари маълум. Бугунги кунимизга машхур бўлиб келаётган ўзбек тилидаги маъно таржималари қуйидаги олимлар томонидан амалга оширилган:

1. Олтинхон тўра

Асарга биз шартли равишда «Олтинхон Тўра тафсири» деб ном бердик. Унинг асл номи «Қуръони Карим: Туркистон тилига таржимаси ва ҳошияси» деб аталган.

Олтинхон Тўра раҳматуллоҳи алайҳ ватандошларнинг таклифлари турткиси билан ва диний зурарат бўлиб тургани эътиборидан Қуръони Каримни туркий тилга таржима ва тафсир қилган. Бу асар ўз даврида ўзбекзабон ўқувчилар қўлидаги она тилимизда битилган ягона тафсир бўлган. Муаллифнинг ташаббуси ва ўлкадаги диний раҳбарларнинг ҳаракати билан Собиқ иттифоқ пайтидаёқ ушбу тафсир Ўзбекистонга олиб келинган ва торроқ доирада бўлса да, тафсирхонларга тарқатилган. У ўз даврида ўлка мусулмонлари учун катта янгилик бўлган. Айниқса, илмли, мухлис кишиларда катта қувонч ва қизиқиш уйғотган. Ўша пайтдаги бир қатор аҳли илмлар асарнинг Диний идорага келтирилгани ҳақида эшитганлари заҳоти Пойтахт сари йўл олганлар ва тафсирни олиб, кўзларига суртиб, ўзгача бир шавқ билан қайтганлар.

Асарнинг чет элларда чоп қилинган барча нашрлари араб алифбосида, яъни эски туркий алифбода босилган. Унда Қуръони Карим матнининг ҳар бир қатори остига оятнинг маъно таржимаси берилган. Тафсир ва изоҳлар саҳифа ҳошиясидан жой олган. Асар бундан қарийб бир аср олдинги ўзбек тилида битилган.

Ушбу тафсирнинг ўзига хос жиҳати шундаки, у жуда ҳам оммабоп ва халқчилдир. Унда оятлар бироз эркинроқ таржима қилинган ва керакли ўринларда оятларга қисқача тафсир берилган. Келтирилган маълумотларга баъзан манба кўрсатилган бўлса да, ўқувчини қийнамаслик учун кўпинча бу ҳақда тўхталинмаган. У анъанавий ўзбек тилини ўзида акс эттириши билан ажраб туради.

2. Домла Ҳиндистони

Асарнинг номи «Баёнул фурқон фи таржиматил Қуръон» – «Қуръон таржимасида фарқловчи баён»дир. У муаллифнинг вафотидан 10 йилча олдин ёзилган.

Шогирдларнинг нақл қилишларича, муаллиф раҳматуллоҳи алайҳ ушбу тафсирнинг таълифи ҳақида жумладан шундай деганлар: «Арабий, форсий тафсирлар жуда ҳам кўп битилган, аммо ўзбек тилида тафсир деярли йўқ. Шу боис, ушбу улуғ ишни баҳоли қудрат бажаришга бел боғладик. Кўпчиликка тушунарли бўлиши учун тафсирни Андижон лаҳжасида баён қиламиз.

Камчиликларимиз бўлса, мухтарам ўқувчиларимиздан ислоҳ қалами ила тузатишларини умид қилиб қоламиз».

Бу тафсир лисоний – оғзаки услубдаги тафсир бўлгани боис, ўзига хос тузилишга, ёзилиш усулига ва алоҳида руҳиятга эга. Шунинг учунми, асарда кўпинча оятларнинг таржимаси сўзма сўз бўлмай, тафсир аралаш берилган. Баъзан оятнинг тафсири унинг таржимасидан олдин келади. Бир хил оятлар бироз фарқли таржима қилинган. Ўша пайт урфига кўра, таржимада ёрдамчи сўзлар ажратилмаган. Шунингдек, унда келтирилган хабарларга кўпинча манба кўрсатиб ўтирилмаган, балки ҳикоя тарзида айтиб ўтиб кетилган. Асар бугунги кунда ҳам ўз қийматини йўқотмаган.

3.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф

«Тафсири Ҳилол» ўзбекзабон халқлар энг кўп севиб ўқийдиган тафсирдандир. Ҳатто бугунги китобхонлар «тафсир» деса, шу китобни тушунадиган бўлиб қолган ва асар бу тақдирловга тўла ҳақлидир.

Асарда оятлар таржимасида анъанавий тил услуби ҳам қўлланган ва шу боис унда Қуръонга хос бўлган салобат барқ уриб туради. Ҳар бир сурани ўрганишга киришишдан олдин унинг номи, Маккий ёки Маданийлиги, оятлари сони айтиб ўтилиб, сўнг шу суранинг мавзуси ҳақида қисқача маълумот берилган. Ҳар бир оятни рақамлаб, аввал матннинг арабчаси, сўнг ояти кариманинг маъно таржимаси берилган ва шундан сўнг оятнинг тафсирига ўтилган.

Таржимада оятлар маъносидаги умумийлик сақланган. Оятларнинг маъно таржимаси йўғон ҳарфларда ёзилган. Маънони тушунишга хизмат қиладиган, аммо асл матнда бўлмаган сўзлар оддий ҳарфларда ва қавсда берилган. Оятларнинг мазмунан бир бирига боғлиқлиги очиб берилган. Баъзи оятларнинг нозил этилиши сабаблари ҳақида ривоятлар келган бўлса, уларни ҳам келтирилган. Зарурат туғилганда тарихий воқеалар, қиссалар ҳам берилган. Айрим шахслар, қавмлар ҳақида қисқача маълумотлар ҳам тақдим этилган.

Тафсирнинг энг муҳим жиҳати ва қиймати шундаки, унда фақат саҳих, ишончли хабарларга таянилган ҳамда келтирилган ҳадис ва бошқа асарларнинг манбалари кўрсатилган. Оятлар мазмунини бугунги кунга боғлаб изоҳланиши асосий аҳамиятга эга.

Китобда «Тафсири Ҳилол» ўқувчиларига» деган сарлавҳа остида берилган муқаддимада, шунингдек, кейинги нашрлар муқаддималарида Қуръони Карим тарихи, тафсир илми ва муфассирлар ҳақида жуда ҳам қимматли маълумотлар тақдим қилинган.

Умуман олганда, асарда ўзгача юксак руҳият, ихлосу муҳаббат нури балқиб туради. Унинг муқаддас заминда, мухташам қалбда вужудга келганини ҳар қандай дил уйғоқ ўқувчи дарҳол пайқаб олади. У туркий ва ўзбек тилида битилган тафсирларнинг гултожисидир. Асарда анъанавийлик билан замонавий қарашлар

бирлашган. Оятлар шундай равон ва кенг кўламда тушунтириладики, унинг ўхшашини топиш жуда ҳам мушкул. Муфасссиримиз оятлардан шундай маънолар кашф қиладики, уларни бошқа жойда учратмайсиз.

4. Шайх Алоуддин Мансур

Асар илк нашрларида «Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима» деб аталган. Бу ҳақда Раҳматуллоҳ қори Обидов шундай ёзади: «Бунинг камчилиги шундаки, биринчидан, муаллифнинг таржима китобига мутлақ «Қуръони Карим» деб ном бериш хатодир, чунки Қуръони Карим араб тили ва алфавитида ёзилган» (Ўрта Осиё олимларининг тафсир соҳасидаги хизматлари. Тошкент Ислон университети нашрёт матбаа бирлашмаси. 2009 й).

Бу таржима Қуръони Карим маъноларининг замонавий ўзбек тилида битилган илк таржимаси ҳисобланади. Бу эса муаллиф учун катта шараф ва ютуқ эканида шубҳа йўқ. Унда Қуръоннинг арабча матни берилмаган. Суралар номлари ва оятларнинг ададларини бериш билан чекланилган. Ҳар бир сура аввалида сура ҳақида мухтасар маълумот берилиб, кейин керакли ўринлардагина оятлар изоҳ қилинган.

Ушбу таржима илк уруниш бўлгани учун биринчи нашрларида айрим камчиликларга йўл қўйилган бўлса да, кейинги нашрларида улар бартараф этиб борилган.

5. Шайх Абдулазиз Мансур

Асар «Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири» деб аталган. Унда саҳифа ўртасида Мадина мусҳафидан Қуръони Карим матни қўйилиб, оятларнинг маъно таржимаси матн атрофида берилган. Таржиманинг хусусиятларидан бири шуки, унда тафсир мазмунида ва маънони тушунарлироқ қилиш учун матнда йўқ сўзлардан кўп фойдаланилган ва бу тур иборалар қавсга олинган. Айрим оятларнинг мазмунини ёритиш учун ҳаволада изоҳ ҳам берилган. Китоб охирида Қуръон ва кироат илмига доир бир қатор муҳим маълумотлар илова қилинган.

6. Усмонхон Алимов

Тафсирда ҳар бир сура аввалида сура номининг изоҳи ва унда ёритиладиган мавзулар ҳақида қисқача маълумот берилган. Оятнинг арабча матни остига унинг ўзбекча ўгирмаси йўғон ҳарфда берилиб, кейин тафсирга ўтилган. Оятлар кўп ўринларда бошқа оятлар мазмуни билан ҳам тафсир қилинган. Келтирилган маълумотларнинг манбалари кўрсатилган ва муътабар асарлардан олинган. Суранинг фазилати ҳақида келган хабарлар бўлса, сура сўнгида илова қилинган.

ФОЙДАЛАНИШГАН АДАБИЁТЛАР

1. “Қуръон илмлари”, Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф – Тошкент: “Nilol-Nashr”, 2017.
2. “Қуръоншунослик” ўқув қўлланма, А.Ғ.Абдуллаев, Тошкент: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2011.
3. Интернетда чоп этилган Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид мақоласи: “Ўзбек тилидаги Қуръон тафсирлари ва таржималари ҳақида” (www.quran.uz).
4. www.wikipedia.uz сайти маълумотлари.

NAVOIY IJODINING TAHLILI

Ashirmatova Nargiza Inombayevna

Jizzax viloyati H.Olimjon va Zulfiya nomidagi o'zbek tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya:Maqolada Alisher Navoiy ijodida raqamlar asosida tahlili keltirilgan. Bunda muallifning shaxsiy qarashlari aks etgn.

Kalit so'zlar: g'azal, tardi aks, tajnis, tazod, bayt, misra, ramziy obraz.

Insoniyat aql-idroki, tafakkur va xayolotining muhim unsuri sifatida raqamlar badiiy adabiyotda o'ziga xos o'ringa ega. Shunisi qiziqki, raqamlarga ham ramziy ma'no yuklanib, u ijodkordan yuksak mahorat talab qiladi. Masalan, Muhammad Rizo Ogahiy o'z ruboiylarida raqamlarning shunday tizimini keltiradi:

*O'n aql, to'qqiz sipehr-u sakkiz jannat, Ham yetti muniri axtar-u ham olti jihat,
Ham besh his-u to'rt unsur-u uch mavlad, Ham ikki jahon bir senga aylar xizmat.*

Ushbu misralarda birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar zamiridagi ma'no orqali shoir maqsadi yoritilgan. Raqamlarning haqiqatlari bilan qiziqish, ularning ramziy-majoziy ma'nolarini she'rda ifodalash tajribasi ilmsiz amalga oshmagan, albatta. Chunki mumtoz poetika qonun-qoidalari va talablariga rioya qilmasdan biror raqam ga daxldor mazmunni ta'sirli shaklda tasvirlashning iloji yo'q.

Mumtoz shoirlarimiz ijodiyotida raqam sirlarini yoritishda ham, raqamga tayanib ruhiy holat yoki haqiqatlarni o'ziga xos rang va manzaralari bilan gavdalanitirib berishda ham mubolag'a, tazod, takrir, tajnis, ruju' kabi o'nlab badiiy san'atlardan unumli foydalanilgan. Agar raqam tatbiqi nuqtayi nazaridan mumtoz shoirlar tajribalariga diqqat qilinsa, ular raqamlardan u yoki bu mavzu, ma'lum bir tushuncha va haqiqatga doir mazmunni ta'kidlash usuli sifatida foydalanganini kuzatish mumkin. Navoiyning quyidagi baytlariga e'tibor qarating:

Zamon ahlin vafosiz debki, qildim dostonlar sabt,

Navoiy bir kishida gar vafo topsang, so'roq o'rtay.

Ushbu baytda zamona ahlining vafosizligi, hech kimda va'daga vafo qilish fazilatining topilmasligi aynan bir raqami orqali ifoda etiladi. Quyidagi baytda ham “bir fatiri xom” birikmasi orqali mol-dunyoga ruju' qo'ymaslik, nafsoniy hoy-u havaslarga berilmaslikka da'vat bor:

Bo'lma kun qursin tilab afl okdek sargashtakim,

Bir fatiri xom bilan oson o'tar har kun maosh. (IV jild, 187-bet)

Ayrim o‘rinlarda raqamlarni ketma-ket keltirish yo‘li bilan fikr rivojlantiriladi:

Ey Navoiy, so‘z ila oncha guhar sochtingim,
Bahr-u kon kirdi qora yerga sening kilkingdin.

Biriga yo o‘nig‘a, yo yuziga, yo mingiga,
Degay el naylagay ortug‘ esa ellik mingdin. (V jild, 499-bet)

Davr va zamon bedodligidan shikoyat ohanglari eshitilib turgan quyidagi baytda ham raqamlar asosiy rol o‘ynaydi

Navoiy, qilma ayb afg‘on-u faryodki davrondin,
Ne bir faryod-u o‘n afg‘onkim, yuz faryod-u ming afg‘on. (V jild, 319-bet)
Alisher Navoiy “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallaridan birida yozadi:

Hajr o‘qidinkim erur bag‘rim aro yuz ming teshuk,
Har teshuk bir ko‘zdururkim holima hayron erur. (III jild, 319-bet)

Bunda “hajr o‘qi”dan bag‘ri tilingan oshiqning holati mubolag‘a usulida sharhlangan. Biroq holatning qiynoqli va og‘irligini “yuz ming teshuk” iborasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ikkinchi misrada “yuz ming teshuk”ka yaqin bir ma‘no yuklanadi, ya‘ni ular “hajr o‘qi” zarbidan paydo bo‘lgan (ehtimol, ular o‘ntadir, yuztadir yoki ko‘proqdir) oddiy teshik emas, balki “har teshuk bir ko‘zdur”. Bu “ko‘z”lar esa oshiq holini idrok etishga qodir bo‘lmaganligi uchun ham hayrondir. Oshiqning holi uning o‘zi uchun hayronlik sababi bo‘lganidek, sipehr uchun ham hayratli. Shuning uchun sipehr unga “yuz ming ko‘z” bilan nigoh tashlaydi:

Mungrayib andoq sinuq ko‘nglum buzulurkim, sipehr
Bul’ ajab holimg‘a yuz ming ko‘z bila hayron bo‘lur. (III jild, 145-bet)

Mumtoz she‘riyatda raqam asos bo‘lgan badiiy san’atlarda bir, ikki, uch, to‘rt dan yuz minggaacha bo‘lgan raqamlarga duch kelinadi:

Kirdi tufroqqa hilol, ochdi to‘lun oyg‘a jamol,
O‘n to‘lun oyning qirog‘idin chu olding o‘n hilol. (VI jild, 254-bet)

Alisher Navoiyning ushbu baytida ma‘shuqaning to‘lin oyga o‘xshab husn-jamoli ochilgani ta’riflangan. Lekin shoir ta’rifda “o‘n” raqamiga taya nib, hilol shunchaki to‘lin oyga aylanmadi, balki “o‘n to‘lun oyning” chetidan olingan o‘n hilol go‘yoki birlashdi, deydi. Bu esa o‘quvchida taassurotning kuchayishini ham ta’minlaydi.

Firoqi o‘qidin bo‘lmish teshuk-teshuk bag‘rim,
Bu turfaroqki, bir o‘qdindurur har ikki teshuk. (V jild, 239-bet)

Firoq o‘qqa qiyos qilinib, yor firog‘i ko‘ksimni “teshuk-teshuk” qildi, deydi lirik qahramon va keyingi misrada mubolag‘aning ig‘roq turidan foydalangan holda “bir o‘q”dan “ikki teshuk” paydo bo‘ldi, degan fi krni ifoda etadi.

Ma’lumki, hayot har turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar zaminida ilgarilaydi va rivojlanib boradi. Inson hayoti va taqdiri ham qarama-qarshiliklarga to‘la. Shu bois badiiy san’atlar orasida ham bevosita qarama-qarshi fikr, faoliyat va tushunchalarni aks ettirishga xizmat qiladiganlari bor. Tazod – shunday san’at. Aslida bir-biriga qarama-

qarshi bo‘lgan raqamlar yo‘q, ular miqdor, sanoq jihatdan kam-ko‘plikni ang latishiga ko‘ra farqlanadi. Ammo mumtoz she‘riya timizning ko‘zga ko‘ringan siymolari raqamlarga tayanilgan obrazli tasvirlarida ham qarama-qarshi fikrlarni ilgari surganlar va bunda raqamlar tazodiy xarakter kasb etgan. Bir-biriga zid tushun chalnarni ifoda etishda birikma shaklida keltirilgan bir va yuz, bir va ming, bir va yuz ming raqamlariga murojaat qilingan. Bunday o‘rinlarda bir raqami yakkalik, tanholik, yagonalik va kamlik ma‘nolarida; yuz, ming, yuz ming raqamlari esa ancha ko‘p, hadsiz, hisobsiz ma‘nolarida ishlatilgan. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misollarni keltiramiz:

Zulfining bir torina ming jon olur erdi, vale

Fikr etar go ‘yoki narxi mushk arzon bo ‘lmasun. Yoki:

Ikki yodur qoshida payvasta ming novak bila,

Ne ajab har bir nazarda qilsa yuz qurbon ko‘zung.

Bunda zulf yoki sochning “bir tori” “ming jon”ga, “bir nazar” “yuz qurbon”ga zid qo‘yilgan.

Qilsam nasihatni senga “qon to‘kma” deb so‘ktung meni,

Har bir so‘kunchung o‘rnida yuz ming duo bo‘lsun sanga.

Baytdagi “har bir so‘kunch”ga “yuz ming duo” bilan javob qaytarilishi oshiqning sidq-u sadoqatini nihoyatda ishonchli va samimiy ohangda aks ettirgan. Alisher Navoiy devonlarida mazkur usulda yaratilgan baytlar bisyor va ularning deyarli har biri o‘quvchida yangi fikr, yangi taassurotlar uyg‘otishga qodir:

Navoiy she‘riyatida “yuz” so‘zi yordamida tajnis yaratilganligi ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Masalan:

*Istasa vaslin ko ‘ngul ko ‘z rashkdin qon yosh to ‘kar,
Ko ‘z yuzin ko ‘rgach, ko ‘ngul yuz nola g ‘ayratdin qilur.*

Yoki:

*Soqiyo, ochting chu may tutmaqqa jomi Jam yuzin,
Yuz g ‘amim daf’ ayladingkim, ko ‘rmagaysen g ‘am yuzin.*

Ushbu misralarda lirik qahramon soqiya murojaat qilib, jomi Jam yuzini ochib, menga may uzatding, bu mayni ichib, mening “yuz g‘amim” daf bo‘ldi, shuning uchun sen g‘am yuzini ko‘rma, deya uni sharafli aydi. Baytda uch o‘rinda yuz so‘zi keltiriladi, birinchi va ikkinchi misra oxirida radif bo‘lib kelayotgan “yuz” so‘zlari bet ma‘nosini anglatayotgan bo‘lsa, ikkinchi misra boshida raqam, ma‘nosini bildirmoqda. Shuningdek, ushbu baytda qorishiq san‘atlar qo‘llanganligini ham ko‘ramiz. Baytning ikkinchi misrasi boshida kelgan “yuz g‘amim” misra oxirida “g‘am yuzi” shaklida o‘rni almashtirib qo‘llangan. Bu “tardu aks” san‘ati sanalib, so‘zlarning o‘rni almashtirish natijasida ularning ma‘nosi ham o‘zgaradi, misra mazmuni takomillashadi. Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ham ana shu san‘at asosida yaratilgan baytda raqamlar asosiy rol o‘ynaganю

Xullas, badiiy san’atlar raqamlarni “tilga” kiritish, raqam vositasida ifodalangan ramziy-majoziy ma’nolarni to’g’ri aniqlash va talqin etishda tajribada sinalgan eng ishonchli usul bo’lgan. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimiz vakillari ularning ko’pchiligini ilhom va mahorat bilan tatbiq etganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami (MAT). Yigirma jildlik. 4-jild. T.: Fan, 1989. 444-bet. (MATdan olingan keyingi misollar jildi va sahifasi qavs ichida ko’rsatiladi.)
2. Hayot vasfi . T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 131-bet.
3. Atoiy. Devon. T.: Fan, 2008. 134-bet.
4. Yuqoridagi asar. 29-bet. 5. Hayot vasfi . T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. 606-bet

JIZZAX UYEZDINING BOSHQARUV TARIXI MANBASHUNOSLIGI

Murtazoyev Matlubxon Mustafaxon o'g'li.
Samarqand Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga harbiy yurishlari natijasida bosib olingan hududlaridan biri bo'lmish Samarqand viloyati Jizzax uyezdidagi holat tahlil etiladi.*

Bizga ma'lumki Chor Rossiyasi G'arbdagi raqiblari ga imkoniyatlarini boy berayotgan bir paytda o'z chegaralarini Sharq hisobiga kengaytirib o'zining yo'qotayotgan obro'sini qaysidir ma'noda tiklashga urina boshladi. Hukumat O'rta Osiyoni bosib olishni 4 bosqichda amalga oshirdi. 2-bosqich: 1865-1868-yillar. Aynan mana shu bosqichda Buxoro amrligi tarkibida bo'lgan Jizzaxni ham egalladi. 1866- yil kuzida Turkiston viloyati gubernatori F. Romanovskiy O'ratepani egallab Jizzaxga qarshi yurish boshladi. 18-oktabr Jizzax egallandi. Jizzaxning keying taqdiri Samarqand bilan bog'landi. Sababi, 1868-yil 23- iyundagi Fon Kaufman va Buxoro amiri Muzaffar o'rtasida Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirilganligi to'g'risida shartnoma imzolandi. 1868-yil 29-iyunda tasdiqlangan “Zarafshon okrugining ma'muriy boshqaruvi” xususidagi Nizomga ko'ra Samarqand markaz etib belgilandi. 1886-yilgi “Turkiston hududi ma'muriyati to'g'risidagi Nizom”ga binoan Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Samarqand viloyati 2ta tumandan tashkil topgan: Samarqand va Kattaqo'rg'on. Mintaqaning eng yuqori boshqaruvchisi harbiy gubernator bo'lib u ayni paytda fuqaroviy va harbiy hokimiyatni boshqarar edi. 1886-yildan 1917-yilgacha Samarqand viloyati sakkizta gubernator – A. Yafimovich, N. Rostovsev, M. Fedorov, V. Medininskiy, A. Gasket, A. Galkin, N. Likoshin tomonidan boshqarilib, ularning rahbarligi o'rtacha 3-4 yil davom etgan. 1886-yilgi Nizomga muvofiq Sirdaryo viloyatining Xo'jand va Jizzax uyezdlari Samarqand viloyatiga o'tkazildi. shunday qilib Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Xo'jand uyezdlaridan tashkil topdi¹. Jizzax uyezdi markazi Jizzax shahri. Jizzax uyezdida Bog'don, Yangiqo'rg'on, Zomin nomli uchastkalar bo'lgan. Uchastkalar o'z navbatida volostlarga bo'lingan. Jizzaxda 20 ta volost mavjud bo'lgan.

¹ O'MDA fond II8, ro'yxat-1' varaq, 1

Jizzax uyezdidagi volostlar:

1. Qo'rg'on tepa
2. Qizilqum
3. Otaqo'rg'on
4. Fistoli tauskiy

5. Chordara
6. Sintob
7. Forish
8. Bogdan
9. Ko’ktepa
10. 10.Nakrut
11. 11.Savruk
12. 12.Xotchamukur
13. 13.Chashmaob
14. 14.O’zbek
15. 15.Zomin
16. 16.Yom
17. 17.Yangiqurg’on
18. 18.O’smat Qatortol
19. 19.Sangzor
20. 20.Qoratosh²

Uyezdlarni tumanboshilar idora qilgan.Xar bir tuman o’z tarkibidagi shahar va qishloq lari bilan tuman hokimi –tumanboshiga bo’ysungan .Tumanboshi shuningdek ,uyezddagi harbiy qo’shinlarni ham boshqargan.Uyezd boshliqlari viloyat harbiy gubernatirlarining taqdimnomasiga ko’ra general-gubernator tomonidan tayinlanib ,ishdan olingan.Uyezd boshliqlari rus armiyasi katta zobitlaridan asosan,mayor,rotmistrdan to polkovnik unvonigacha bo’lganlardan tayinlangan.Uyezd boshlig’i bir vaqtning o’zida ispravnik,polismeyster,zemstvo boshlig’I ,shahar hokimi,yer-soliq xizmati raisi ham edi³.Uyezd boshqaruvining shaxsiy tarkibiga uning yordamchilari va devonxona xodimlari ham kirgan.uyezd boshlig’I qoshida devonxona tashkil etilgan,unga mamuriy ishlar bo’yicha yordamchi boshliq edi.Uyezd mamuriyati zimmasiga g’azna-obrok ishlarini nazorat qilish,soliqlarni hisoblash,ichki tartibni kuzatish,yer-suv tufayli kelib chiqqan nizolarni hal qilish,uyezdni,volost va qishloq ma’muriyatlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi ko’p sonli ishlarni boshqarish yuklatilgan.Ayniqsa,bu borada uyezd boshliqlariga volost boshqaruvchilari va

²Большая российская энциклопедия .[B35T]ГЛ.Ю.С.ОСИПОВ

³Proekt vsepoddanneyshego otcheta general-adyutanta K.P.Kaufmana po grajdanskomu upravleniyu I ustroystvu v oblastiakh turkestanskogo general-gubernatorstva.7 noyabrya 1867,25marta 1881gg.Spb.1885,43

qishloq oqsoqollariga boshqaruv borasidagi majburiyatlari,o’z huquq va majburiyatlarini anglab,faoliyat olib borish yuzasidan qattiq talab qo’yilgan⁴. Uyezdlarda yer-soliq mahkamasi tuzilgan bo’lib,bu mahkama uyezd boshlig’I vakilligidan iborat bo’lib,soliq inspektori,uyezd davlat mulki boshlig’I uyezd boshlig’I yordamchisi va uyezd yer o’lchovi nazoratchilaridan tashkil topgan.

Jadvalda uyezd boshqaruvidagi amaldorlar shtati maoshlari (rubl)

Lavozimlar	1	2	3
Uyezd boshlig'i	4000	3700	3450
Uyezd boshlig'I yordamchisi	3300	3000	2700
Uchastka pristavi	2400	2200	2000
Uning yordamchisi	1800	1600	1400
Uyezd politsiyasi xizmatidagi kishi	1200	1040	880
Ot qorovuli	720	680	640

Jadval⁵

Uyezdlar volostlarga bo'lingan .Volost boshqaruvchilari 3 yilga saylangan.Volostdagi boshqaruv saylanganlarning qurultoyidan iborat edi.1924-yilgacha Jizzax uyezdini Rossiya imperiyasi tarkibida bo'ldi.Hududiy chegaralanish natijasida SSSR tarkibidagi O'zbekiston SSR tarkibidagi hudud bo'lib qoldi .1973-yil 29-dekabrda Jizzax viloyati tashkil etildi.Markazi Jizzax shahri.

Bu maqolani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi,Rossiyaning Katta Ensiklopediyasi,Palenning Uezdnoe upravleniya ,kabi manbalardan foydalanildi.

⁴O'RMDA fond I-18,ro'yxat-1,yig'ma jild -1121,varaqlar2,3 orqasi

⁵Palen.K.K Uezdnoe upravleniya SPB 1910,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'MDA fond II8,ro'yxat-1'varaq,1

Большая российская энциклопедия .[B35T]ГЛ.Ю.С.ОСИПОВ

Proekt vsepoddanneyshego otcheta general-adyutanta K.P.Kaufmana po grajdanskomu upravleniyu I ustroystvu v oblasti turkestanskogo general-gubernatorstva.7 noyabrya 1867,25marta 1881gg.Spb.1885,43

O'RMDA fond I-18,ro'yxat-1,yig'ma jild -1121,varaqlar2,3 orqasi

Palen.K.K Uezdnoe upravleniya SPB 1910,

AMIR TEMUR-MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI.

Musirmonov Tolib Ravshan o’g’li
Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani
55-maktab Ingliz tili fani o’qituvchisi
(JDPI Tarix fakulteti 1-kurs magisTori)

Annotatsiya: *ushbu maqolada Amir Temur hayoti, yurishlari, saltanat boshqaruvi, qo’shin tuzilishi va uning umr yo’li haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *Amir Temur, Amir Husayn, Sayyid Baraka, Samarqand,dargoh, vazirlik, tuman.*

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og’ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o’z zamonining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u oqsoqollar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur bu ulkan maqsadini ro’yobga chiqarish ishini avvalo ichki g’animlariga qarshi kurashdan boshlaydi.

1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo’shinlari bilan kuchli raqib-Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo’lga chiqadi. Qo’shni Termiz yaqinidagi Biyo qishlog’iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo’llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi nog’ora bilan bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki nog’ora bilan bayroq, musulmonlar odatiga ko’ra, toj-taxt ramzi bo’lib, uni oliy martabali ruhoniyni qo’lidan olish tez orada uning toj-taxt va saltanat egasi bo’lishligiga ishora edi.

Amir Temur to Balxga yetib borgunicha, yo’l-yo’lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo’shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko’pchilik amirlari unit ark etadilar. Jangda Amir Husayn qo’shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so’ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo’ladi. Amir Husayn qatl etiladi.

Ertasi kuni bo’lib o’tgan quriltoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi.

Davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlab, ko’pdan beri davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida Amir Temur 1370-yil iyul oyida Samarqandda katta quriltoy chaqirdi. Quriltoyda markaziy davlat tizimini shakillantirish va qo’shin tuzish masalalari muhokama etiladi. Samarqand davlat poytaxti deb e’lon qilindi. Samarqandda mustahkam devorlar, qal’alar hamda saroylar barpo etishga kirishiladi. Bu imoratlar

Samarqand mo’g’ullar tomonidan vayron etilganidan keyin 150 yil o’tgach, birinchi marta bunyod etilgan umummamlakat miqyosidagi inshootlar edi.

Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo’shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. U yirik harbiy bo’linmalar boshliqlarini va sipohsolorlarni tayinlaydi.

Amir Temur taxtga o’tirgach, Chig’atoy ulusining barcha yerlariga o’zini voris deb bildi. Sohibqiron Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg’ona vodiysini va Xorazmni o’z hukmronligi ostiga kiradi. Amir Temur 1372-yildan boshlab Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi va Xorazm 1388-yilda uzil-kesil bo’ysundirildi.

1381-yilda Hirot, Seiston, Mozandaron egallandi. Shundan so’ng Saraxs, jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari jangsiz Amir Temurga bo’ysindi va uning tasarrufiga o’tdi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo’ladi.

Sohibqiron Amir Temur o’z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkiniy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo’lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta’minlash nazarda tutilgan edi.

Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo’lgan. Dargohni Oliy hukmdorning o’zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat-devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamalakatlarning boshqaruvi bilan shug’ullanuvchi yana uch vazir bo’lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan.

Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar ot mingga choparlari bo’lgan. Butun saltanat bo’ylab bir kun yo’l oralig’ida yomxonalar tashkil etilgan. Har bir yomda 50-200 boshdan ot-ulov tutilgan. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o’z yaqinlariga suyardi.

Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur’oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo’lgan. Payg’ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan.

Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o’lkalarni asosan to’rt qism (ulus)ga bo’lib, o’g’illari, nabiralari va xizmat ko’rsatgan amirlarga suyurg’ol tarzida in’om qiladi. Movarounnahrdan tashqari o’z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o’limidan biroz avval o’g’il va nabiralari orasida taqsimlaydi: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seiston (markazi Hirot) Shohruxga, G’arbiy Eron, Ozorboyjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya’ni Eronning janubiy qismi

(markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg’oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G’azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg’al qilib berilgan.

АБУ НАСР ФАРОБИЙНИНГ ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ТЎҒРИСИДАГИ НАЗАРИЯСИ.

Ниёзматов Анвар Баҳодирович

Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ
таълими кафедраси ўқитувчиси.

Анотация: Абу Наср Форобийнинг фуқаролик жамияти тўғрисидаги инсонлар жамиятга уюшиб яшашидан мақсади фаровонликка ва тинчликка эришиш эканлигини аввало у бахт - саодатнинг нима ва нималардан иборат эканлигини билиши, унга эришувни ўзига ғоя ва энг олий мақсад қилиб олиши, бутун вужуди билан мафтун бўлиши керак". Буюк мутафаккир талқинини чуқур англаган ҳар бир кишига маълумки, инсон ўзининг мақсад ва вазифаларини фақат маърифийлик фаолияти билангина тасаввур қила олади. Адолатли ва фозил жамият фақат маърифат воситасида барпо этилади.

Калит сўзлар: Мамлакат, жамият, фозил, шахр, давлат, раҳбар, фаровонлик, бахт – саодат, маънавият, маърифат.

Ўзбекистон Республикаси мустақиллигини эълон қилиши биланоқ мамлакатда миллий манфаатларни ифода этишга қаратилган жамият – фуқаролик жамиятини шакллантиришга имкониятлар ва шарт-шароитлар яратишга киришди. Ҳозирги даврга келиб давлат ҳокимияти органларининг ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятига хос бўлган жиҳатларини янада ривожлантиришга долзарб вазифа сифатида ёндашиш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Мамлакат Президенти илгари сурган “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак” деган принцип фуқаролик жамиятининг яшаш ва ривожланиш кафолати ҳисобланади. Зеро, “давлат ва жамият қурилишини такомиллаштиришга йўналтирилган демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни модернизация қилишда парламентнинг ҳамда сиёсий партияларнинг ролини янада кучайтириш, давлат бошқарув тизимини ислох қилиш, давлат хизматининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини *ривожлантириши*” каби стратегик вазифаларнинг қўйилиши ҳам мамлакатда фуқаролик жамиятининг шаклланаётганлигидан дарак беради.

Ҳозирги даврда кучли жамият қуриш учун ўзбек халқининг миллий маърифий қарашларимизни янада чуқурлаштиришга эҳтиёжлар сезилмоқда. Чунки, биз қурмоқчи бўлган жамият ғарбдан ёки шарқдан кўр-кўрона кўчириб олинмайди, балки бир неча минг йиллик тарихий тажрибаларимизга асосланади. Ўтмишни чуқур англаш - энг олий маърифийликдир.

Хусусан, Абу Наср ал-Форобийнинг (870–950 йй.) “Фозил одамлар шахри қарашлари” ва “Давлат арбобининг афоризмлари” асарларида шарқона сиёсий-

хуқуқий ва ижтимоий фикр тарихининг муҳим жиҳатлари - ижтимоий тизим, сиёсат, давлат ва ҳукумат ҳақидаги назариялар ривожлантирилди. Форобий фикрича, адолатли жамият қуриш учун уни мудофаа қилиш ва оқилона бошқариш усулини билиш, одамларга ёвузликдан сақланиш ва эзгуликка интилиш йўллари кўрсатиш лозим. У давлат раҳбарининг бошқарув маҳорати туфайли умумий бахтга эришиш йўли топилади, деб ҳисоблайди. Адолатли давлатни маърифатли ҳукмдор бошқариш, у маънавиятли ва адолат етакчиси бўлиши, ўз фазилатлари билан ўзига қўйилган барча талабларга жавоб бериши лозим. Бу борада Форобий “Фуқароларнинг ўзларидан сайланган раҳбар ёки бошлиқлар ҳокими мутлоқ бўлмайди. Улар одамлар ичидан кўтаришган, синалган, энг олийжаноб, раҳбарликка лойиқ кишилар бўладилар. Шунинг учун бундай раҳбарлар ўз сайловчиларини тўла озодликка чиқарадилар, уларни таниқ душмандан муҳофаза қиладилар”²⁴, деб давлат ҳокимиятини жамиятга боғлиқ ҳола таҳлил этади, бошқарув билан боғлиқ ахлоқий ва маданий қадриятларни тизимлаштиради

Форобий инсонларнинг жамиятга уюшиб яшашидан мақсади фаровонликка ва тинчликка эришиш эканлигини қуйидагича таърифлайди: «Инсоний вужуддан мақсад - энг олий бахт - саодатга эришувдир; аввало у бахт - саодатнинг нима ва нималардан иборат эканлигини билиши, унга эришувни ўзига ғоя ва энг олий мақсад қилиб олиши, бутун вужуди билан мафтун бўлиши керак”. Буюк мутафаккир талқинини чуқур англаган ҳар бир кишига маълумки, инсон ўзининг мақсад ва вазифаларини фақат маърифийлик фаолияти билангина тасаввур қила олади. Адолатли ва фозил жамият фақат маърифат воситасида барпо этилади.

Абу Наср Форобий маърифат тан олинмаган, ҳукмдори халқпарвар, бошқаруви адолатли бўлмаган, маънавият эътироф этилмаган юртни қуйидагича тасвирлайди: «Аммо баъзи шаҳар (ёки мамлакатлар) лар бўладик, уларда бутун халқнинг фикри-зикри, ақл-идроки бойлик тўплаш, мол-дунё орттиришга қаратилган бўлади. Улардан чиққан раҳбарлар ҳам раҳбарликни мол-дунёни кўпайтиришда деб биладилар. Шунинг учун ҳам улар эрта-кеч мол-дунё тўплаш ҳаракатида бўладилар. Бундай раҳбарларнинг қўл остида ишлаган шаҳар халқларида турли бузуқ одатлар, шахвоний нафс, бир-бирларини кўролмаслик, бир-бирини талаш, душманлик, низо-жанжаллар пайдо бўлади. Ана шундай шаҳар халқларидан хислатлари, майллари турлича бўлган авлод туғилади»²⁵.

Бундан минг йил муқаддам биз курмокчи бўлган адолатли маърифий жамият қандай бўлишини олдиндан билган Форобий уни қуйидагича шундай тасвирлайди: «Маданий жамият ва маданий шаҳар (ёки мамлакат) шундай бўладик, шу мамлакатнинг аҳолисидан бўлган ҳар бир одам касб-хунарда озод, ҳамма баб-

²⁴ Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.:А.Қодирий нашриёти, 1993. -Б. 190.

²⁵ Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Тошкент:Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – Б.190-191.

баробар бўлади, ҳар ким ўзи истаган ёки танлаган касб-ҳунар билан шуғулланади. Одамлар чин маъноси билан озод бўладилар. Бири иккинчисига ҳўжайин бўлмайди. Одамларнинг тинчлик ва эркинликларига ҳалақит берувчи султон (яъни подшоҳ) бўлмайди. Улар орасида турли яхши одатлар, завқ-лаззатлар пайдо бўлади»²⁶.

Замонавий адолатли жамиятда демократиянинг энг муҳим тамойили сифатида фуқаролар сайлов ҳукуқи билан таъминланади, улар ўз хоҳиш-иродасини эркин ифодалаш, ўз манфаатларини рўёбга чиқариш ва муҳофаза қилиш, ҳукуқини таъминлаш учун ҳақиқий шарт-шароит, ҳукуқий заминга эга бўладилар. Бу каби жамиятда инсон ҳуқуқлари ва эркинлари ҳар томонлама ҳимоя қилинади. Ҳозирги давр демократиясининг ана шу унсури ҳам Форобий эътиборидан четда қолмаган: "Уларнинг ўзларидан сайланган ("фуқароларнинг") раҳбар ёки бошлиқлар ҳокими мутлақ бўлмайди. Улар одамлар ичидан кўтарилган, синалган, энг олийжаноб, раҳбарликка лойиқ кишилар бўладилар. Шунинг учун бундай раҳбарлар ўз сайловчиларини тўла озодликка чиқарадилар, уларни ташқи душмандан муҳофаза қиладилар. Бундай раҳбарлар ҳаммага баробар муносабатда бўладилар, ҳатто ҳамманинг манфаатини ўзларининг манфаатларидан ортиқ кўрадилар, умумнинг манфаати учун ўзларининг шахсий манфаатларидан кечадилар, халқ манфаати учун ўзларидаги куч-ғайрат ва бойликларни аямайдилар"²⁷.

Абу Наср Форобий сиёсий-ҳуқуқий меросининг асосий қисмини унинг жамият ва давлат ҳақидаги, ижтимоий жараёнларни бошқариш тизимлари, усуллари ва шакллари, шунингдек, мукамал ижтимоий тузилмалар, уларни барпо этишнинг асосий тамойиллари ҳақидаги таълимоти ташкил этади.

Давлат ва жамият тизимини изчил мустаҳкамлаб бориш, бошқарув жилловини маҳкам тутиш, қонун устуворлигига эришиш сиёсий ва ижтимоий зарурат эканлигини буюк файласуф Абу Наср Форобий алоҳида таъкидлаган эди. Форобий маънавий ва маърифий камолотга эришиш шахсларнинг ўз-ўзига бўлган масъуллиги, инсоний интизомининг нечоғлик юксаклигига боғлиқлигини асослаб беради. Улуғ мутафаккир камолотга эришиш йўлини ҳар бир киши ўзи учун муқаддас сулук, илоҳий қонун даражасида англамоғи зарурлигини таъкидлайди.

Мутафаккир ижтимоий-сиёсий таълимотининг энг муҳим қисми жамият, унинг таркибий тузилиши, пайдо бўлиши, шаклланиши ва ривожланишининг асосий сабаблари ҳамда шарт-шароитлари, шунингдек, амал қилишининг ижтимоий-ҳуқуқий меъёрларини тадқиқ қилишга бағишланган. Форобийнинг кишилиқ жамияти ҳақидаги таълимоти унинг фалсафий қарашлари билан узвий боғлиқ бўлиб, бу таълимотнинг ўзига хос жиҳатлари жамият, давлатчилик ва

²⁶ Ўша жойда.-Б.190.

²⁷ Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри.-Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – Б.190.

хуқуқий масалаларни ёритишда, аввало, тадқиқот умумий методологик тамойилларининг баён қилиниши билан изоҳланади.

Мутафаккир фозил жамият ва шаҳар уюшмаси (давлат) шаклланиши ҳамда қарор топишининг ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий ва маълум даражада иқтисодий масалалари ҳақида фикр юритар экан, бу борада объектив ҳулосага келиш учун ўз замонасидаги мавжуд жамият ва шаҳарларнинг ташкилий жиҳатларини ҳамда амал қилиш муаммоларини атрофлича тадқиқ қилади. Ушбу шаҳарлар ҳаётий фаолиятига, уларни бошқарув усулларига баҳо берар экан, Форобий ўз тасаввуридаги мукамал жамият ва давлатнинг олий мақсади - инсонларни том маънода бахт-саодатга эришуви йўлидаги вазифаларидан келиб чиқади.

Академик М.М.Хайруллаев янги жамият қуришда миллий маърифий мерос аҳамиятига тўхталиб, қуйидаги фикрларни билдиради: «Форобийнинг Шарқ маданиятидаги энг олий хизматларидан бири яна шундаки, у ўрта аср Шарқида биринчи бўлиб фазилатли, идеал жамият, давлат, адолатли раҳбар ва давлатни ақл асосида бошқариш ҳақидаги утопик таълимотни олға сурди. Форобий ўзининг эркин фикрлари учун реакцион руҳонийлар томонидан динсизликда, худосизликда айбланди, сўнгроқ унинг асарлари ёндирилди. Лекин унинг илғор рационалистик ва гуманистик фикрлари Ибн Сино, Ибн Рушд, Низомий, Умар Хайём, Маймонид, Роджер Бекон, Спиноза кабилар дунёқарашининг шаклланишига катта таъсир кўрсатди. Дунё маданиятининг ривожланишида катта ижобий роль ўйнади»²⁸.

ФАЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. –Т.Адолат, 2017.-Б.4.*

2. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: А.Қодирий нашриёти, 1993. -Б.190.

3. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. –Б.190-191.

4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. –Б.190.

5. Хайруллаев М. Зулматни енголган ақл. -Фан ва турмуш, 1975, №2.-Б.7.

²⁸Хайруллаев М. Зулматни енголган ақл. -Фан ва турмуш, 1975, №2.-Б.7.

SADOQATDAN SABOQ BERGAN ZULFIYA

Iskandarova Dilafrō’z

Xorazm viloyati Urganch shahar

18-son maktabning ona tili va adabiyot fani

o’qituvchisi

Betakror iste’dod sohibasi, jo’shqin va sermazmun ijodkor, mahoratli tarjimon, o’zining butun umrini oilasiga, xalqiga, vataniga, ijodga baxshida etgan, O’zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim 1915-yilda alg’ov- dalg’ov zamonlarda tug’ilib, hayot murakkabliklari, hayot sinovlarini boshidan o’tkazgan. Zulfiya o’zining sakson bir yillik umri davomida bitgan she’rlarida Vatan haqida-uning go’zal tabiatiga, mehnatsevar xalqiga, mehr-muhabbatga, ko’klamga bo’lgan hayotsevarlik hukmrondir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Zulfiya tavalludining 80-yilligi munosabati bilan unga yo’llagan tabrik xatida shoira ijodiga yuksak baho bergan edi: “Siz zamonamizning zabardast shoiri va jamoat arbobi sifatida O’zbekistonning jarangdor ovozi bo’ldingiz, deb aytasak also mubolag’a bo’lmaydi. Jahon minbarlarida yangragan she’rlaringiz Sharq ayolining aqlu zakosi, fazlu kamolidan noyob nishonadir... Siz latif ijodingiz bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdingiz...

Siz Gulbadanbegim,Zebuniso,Uvaysiy,Naodirabegim kabi Sharqning buyuk fozila ayollari boshlagan an’analarni boyitib, yangi pog’onaga ko’tardingiz.Mehribon va talabchan ustoz Zulfiyaxonimning mahorat maktabidan ko’plab yosh iste’dodlar barhamand bo’ldilar.

Istiqlol ruhi Sizni, ijodingizni yanada yashartirib yubordi. Maftunkor she’riyatingiz yoshlik nafasi bilan qayta uchqunladi”²⁹

Shoira butun hayoti davomida juda kop voqealarga guvoh bo’ldi, ko’p yurtlarni kezdi. Shoira Zulfiyaning qalbiga ehtiros va ilhom bag’ishlagan yana bir tuyg’u bu bahor kelib, bog’- rog’larning jonlanishi, daraxtlarning qiyg’os gulaga kirib, tevarak-atrofning shamanzorga aylanishidir.

Inson ko’zlarida jon olar bahor,
O’yinqaroq go’dak singari bulut.
Ko’k qavog’i uyuk, yorqin bir viqor
Kishilar qalbida bahor bo’lib o’t

Zulfiya ijodi kamolotida o’zbek she’riyatning yorqin yulduzlaridan biri, shoiraning turmush o’rtog’i Hamid Olimjonning ta’siri katta bo’ldi. Hamid Olimjon Zulfiyaga hamma narsada o’rnak bo’lgan. Shoira turmush o’rtog’i Hamid Olimjonning yorqin

²⁹ “Xalq so’zi” gazetasi, 1995-yil, 30-may.

xotirasiga vafo va sadoqat tuyg’ulari bilan yo’g’rilgan “Bahor keldi seni so’roqlab”she’rini bag’ishlagan.

Salqin saharlarda,bodom gulida,
Binafsha labida,yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda,qirlarda bahor...

Zulfiya o’zbek ayollari hayoti va o’zbek ayoliga xos bo’lgan eng go’zal fazilatlarini o’z she’rlarida go’zal tasvirlab bergan.Uning “Ona”, “Mening mehribon onaginam”, “Bizning onalar” singari she’rlarida mehribon, munis, vafodor, mehnatkash xotin – qizlarimizning obrazlari ko’zga yaqqol tashlanadi.

Zulfiya xotin-qizlar hayotin tasvirlash bilan birga, do’stlik va tinchlik uchun kurash mavzulariga ham katta e’tibor qaratgan. Shoira Yaponiyaga boradi, Xirosimada bo’ladi. Mudhish urush oqibatida halok bo’lgan minglab kishilar haqida eshitgani va taassurotlari asosida “O’g’lim, sira bo’lmaydi urush ” she’rini yozadi.

Urush! Noming o’chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko’p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.
Ko’krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O’g’lim, sira bo’lmaydi urush!

Bu she’rdagi ona timsoli urush xafidan g’azabga kelgan barcha onalarning umumlashgan obrazidir. Shuning uchun bu she’r tinchlik madhiyasi sifatida jaranglaydi.³⁰

Zulfiya “Xalqimga aytar so’zim” she’rida o’zining suyukli xalqiga bag’ishlaydi. Hayoti va ijodida nimaga erishgan bo’lsam, bari xalqimning mehribonligi tufaylidir, xalqini dildan ulug’lab unga minnatdorchilik bildiradi.

Hali bor oldimda o’tmagan burchim,
O’tayman ko’zimda tirik tursa nur.
Umrimdagi barcha faslar uchun
Xalqim, jonim, senga buyuk tashakkur!

Zulfiya ijodida “Xotiram siniqlari”(1995) dostoni o’ziga xos o’rin egallaydi. Doston mustaqillik davrining mahsuli bo’lib, unda mustaqillik dil-dildan ulug’langan.Shoira asarda umri davomida o’z boshidan kechirgan yaxsh va yomon kunlarni eslaydi. Mustaqillikning buyuk ne’mati bo’lgan haqiqiy hurriyatni, chin erkinlikni katta quvonch bilan olqishlaydi.

Hurriyat, keldingmi- nahotki kelding...

³⁰ S.Mirzayev.XX asr o’zbek adabiyoti.Toshkent.Yangi asr avlodi.2005

Pinhona sog’indim, pinhona kutdim.
Yomg’irga bag’rini tutgan sahrodek-
Sening nasimingga qalbimni tutdim...

Deya orzulari ro’yobga chiqqaniga, shunday shukuhli kunlarga eson – omon yetib kelganiga, uni ko’rishdek baxt nasib etganiga qayta-qayta shukronalar aytgan.

Zulfiyaning xizmatlari munosib taqdirlangan. Shoira 1985-yil Mehnat Qahramoni unvoniga, 1965-yilda “ O’zbekiston xalq shoirasi” unvoniga sazovor bo’ldi. 1994-yilda Zulfiya mustaqil respublikamizning “Do’stlik” ordeni bilan mukofotlandi. Zulfiya o’z asarlari orqali o’zbek adabiyoti rivojiga va milliy adabiyotimizni jahon miqyosiga ko’tarilishiga katta hissa qo’shib, uni yanada boyitdi. Zulfiyaxonim bizning faxrimiz, g’ururimizdir

TARIXSIZ KELAJAK YO‘Q!

Karimova Muqaddam

Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani 15- maktab

Tarix fani o‘qituvchisi

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng dastlabki kunlardanoq mustaqillikni mustahkamlashning ulkan vazifalari qatorida milliy istiqlol mafkurasini yaratishdek dolzarb vazifa ham kun tartibi masalalaridan biri edi. Chunki endigina mustaqillikka erishgan xalqimizning. ongida, tushunchasida hali malum bir shubha, qo‘rquvga o‘xshash holatlar, sho‘rolar davri va komfirqa mafkurasining qoldiq va asoratlari saqlanib qolgan edi. qolaversa yangi, mustaqil O‘zbekiston davlatining ham o‘ziga xos, xalqni to‘g‘ri yo‘ldan ozod, erkin, istiqlolga boshlab boruvchi milliy istiqlol mafkurasini ham yaratilishi shart edi. Barchamizga malumki milliy mafkuraning o‘ziga xos teran ildizi, asoslari bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda albatta, ishni avvalo yashab turgan mamlakatimizning, xalqimizning tarixini, ajdodlarimiz bosib o‘tgan ham sharaflari, ham mashaqqatli yo‘l va ular yaratgan moddiy-manaviy meros tarixini o‘rganishdan, qolaversa, sho‘rolar hukmronligi davrida tariximizni soxtalashtirilgan, o‘chirilgan tomonlarini haqqoniy, xalqona, adolatli yoritib, elimizga elon qilishdan boshlash zarur edi. SHuning uchun ham birinchi prezidentimiz I. Karimov mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanok tariximizni, o‘tmishimizni mukammal o‘rganishga alohida etibor karatdi. CHunki, tarixni o‘rganish va bu orqali o‘zligimizni anglash-milliy mafkuraning ajralmas, tarkibiy qismi ekanligini unutmasligimiz kerak. O‘tmishimizni o‘rganib o‘zligimizni anglash bilan bir qatorda, ajdodlarimiz haqida, ularning tariximizdagi o‘rni va kelajak avlodlar uchun bajarib ketgan oliyanob–ishlari haqida: o‘tgan mutafakkirlarimizning iqtidori, ijodi jahon miqyosida bo‘lganligi haqida, shuningdek ko‘p ming yillik bosib o‘tilgan yo‘llardagi boshdan kechirilgan urushlar, bosqinlar, qaramlik davrlari-bularning bari haqidagi malumotlarni bilish xalqimiz ongida, tushunchasida juda katta ijobiy o‘zgarishlar yasaydi. Milliy g‘urur, milliy faxr, iftixor tuyg‘ularini vujudga keltirish bilan birga, ayni vaqtda milliy istiqlol mafkurasini haqidagi tushuncha va bilimlarni ham tezroq o‘zlashtirilishini osonlashtiradi. Milliy istiqlol o‘zbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Bu yo‘lda minglab Vatan, yurt fidoyilari aziz jonlarini qurbon qildilar. Milliy mustaqillikning qo‘lga kiritilishi katta yutuk, uning kadriga yetish, mustahkamlash, avaylab saqlab qolish mushkul vazifa. Xar qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi, davlat chegaralarining daxlsizligi-o‘sha mamlakat fuqarolarining o‘z yurtiga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari, Vatan mustaqilligi va milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo‘lsa jon fido qilishga ham tayyor bo‘lishdek oliyanob fazilatlarga ega bo‘lishliklariga bog‘liqdir. Bu fazilatlarni

mehnatkashlar ommasi, yurtimiz kelajagi - yoshlar ongida qaror toptirish va shakllantirishda Vatan tarixini o’rganishning o’rni va imkoniyatlari cheksizdir.

«O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» - degandi I. Karimov.

O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining eng ulug’ nematlari Vatan tarixini xech qanday buyoklarsiz, amalda xayotda qanday bo’lgan bo’lsa, shunday holisona o’rganish imkoniyatiga ega bo’ldik.

CHunki tarix xalq xotirasi, vatanimizning o’tmishi, avlodlar sevib, e’zozlab, o’rganib saboqoladigan hayot maktabidir. XII asr allomasi SHaxobiddin Muhammad an-Nasaviy ona tarixning inson hayotidagi o’rniga yuksak baho berib bunday degan edi:

Kimki tutmas qalbida tarixni,

U inson ham emas, olim ham emas.

Biroq kimki uqsa o’tmishini,

Ko’p boyitar o’z turmushini.

Tarix odamlarni o’ylatadi, bo’lib o’tgan tarixiy hodisalar va voqealarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo’llanmasini belgilashga yordam beradi. Milliy o’zlikni anglashda, milliy birlikni shakllantirishda shajaramiz ulug’ligi va pokligini bilishda, dono xalqimizning jahon xalqlari orasida tutgan o’rniga munosib baho berishda, uning boy hayotiy tajribalaridan kengroq foydalanishda, xalqimizning olijanob, hurriyatparvar va erkparvar an’analarini izchil o’rganish va yanada boyitishda, xullas barkamol haqiqiy inson shaxsini yaratishda Vatan tarixining o’rni benihoya kattadir. Vatan tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol katnasha oladigan, idrokli va qobiliyatli, o’zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, vataniga, ona xalqiga cheksiz mehr-muhabbat his-tuyg’ulari bilan to’lib- toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqlol tafakkuri va harbiy vatanparvarlik g’oyalarini shakllantirish qurolidir.

Vatan ostonadan, inson yashab nafas olib turgan go’shadan, insonni kindik koni to’qilgan xonadon tuprog’idan boshlanadi. SHu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg’ayib voyaga yetgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqatda bo’lishi, uning har bir hovuch muqaddas tuprog’ini ko’ziga tutiyodek surtishi, unga nisbatan bir umr farzandlik hissi bilan yashashi uning uchun ham farz ham qarzdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston tarixi T., «YAngi asr avlodi» 2003 y. 7-20 betlar.
2. Istoriya Uzbekistana. T. Universitet, 2004 g. s. 4-7.
3. O'zbekiston tarixi - Toshkent Davlat universiteti - T. Universitet, 1997 yil. 16-23-betlar.
4. SH. Karimov, R. SHamsuddinov «Vatan tarixi» T. «O'qituvchi», 1997 yil. 5-12-betlar.

GERMANIYANING ERFRUT UNIVERSITETIDA DINSHUNOSLIK FANLARINING O’RNI

Tursunova Gulnoza Dadaxonovna

*O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi
magistranti*

Din insoniyatning tadqiqot obyekti sifatida doimiy o’rganib kelingan va insoniyatning diqqat markazida, e’tiborida bo’lgan. Dinshunoslik fani esa diniy va dunyoviy dunyoqarashni shakllantirishda, din va uning shakllari, tarixi, ta’limotlari, yo’nalishlari, mazhablari haqida to’g’ri ilmiy xulosalar bera oladigan, diniylik va dunyoviylik munosabatlarini asosli tahlil qila oladigan to’g’ri dunyoqarashni shakllantiradigan fanlardan biridir. Dinshunoslikning fan sifatida tashkil topib, rivojlanib borishi sekin astalik bilan aksariyat davlatlarda dinshunoslik fanlari ta’lim beriluvchi maskanlarning shakllanishiga olib keldi. Germaniya davlati esa mazkur sohaning rivojlanishi, ta’lim jarayonidagi yondashuvlarni o’rganish, bilim berishdagi o’ziga hos jihatlarni tadqiq etish, ta’lim jarayonida samarali uslublarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniyada dinshunoslik fanini o’qitish borasida bir nechta universitetlar qoshida fakultetlar, kafedralar va ilmiy markazlar faoliyat olib bormoqda³¹. Shunday universitetlardan biri Erfurt universitetidir.

Erfurt universiteti (*nem.* Universität Erfurt) – Germaniyaning eng qadimgi davlat universitetlaridan biri bo’lib, u Germaniyaning Turingiya shtatining poytaxti Erfurtda joylashgan bo’lib, boy tarixga ega universitetlardan. Erfurt universiteti dastlab 1379-yilda Muqaddas Rim imperiyasida ya’ni hozirgi Germaniya hududida tashkil etilgan. Shuning uchun u Germaniyaning eng qadimgi va eng yosh universiteti deb aytiladi. 1816-yilda Erfurt shahri Prussiyaning tarkibiga kirganida, hukumat 400 yildan ko’proq vaqt davomida universitetni yopdi. 1949-yildan 1990-yilgacha Erfurt Germaniya Demokratik Respublikasida bo’lgan. 1993-yil dekabr oyida Turingiya shtat hukumati Turingiya Landtagi universitetni qayta tuzishga ovoz bergan. Universitet 1994-yil 1-yanvarda qayta tashkil etilgan. Ma’ruzalar 1999/2000-yil qish mavsumida boshlangan. Ko’p o’tmay, asos solishni boshqargan rektor, Sotsial-demokratik partiyasidagi siyosatchi Piter Glotz universitetni tark etadi. Bu lavozimni Wolfgang Bergsdorf egalladi. 1953-yilda tashkil etilgan Erfurt o’qituvchilar malakasini oshirish kolleji (*Pädagogische Hochschule Erfurt*) 2001 yilda universitet tarkibiga kirdi. 2003 yil 1 yanvarda universitetga to’rtinchi fakultet qo’shildi. Bu fakultet Erfurtning falsafiy va teologik markazi (Erfurt Philosophisch-Theologisches Studium) tarkibiga kirgan Rim-katolik

³¹ K. Hock: Einführung in die Religionswissenschaft. Darmstadt 2002

dinshunoslik fakulteti edi. Erfurt universiteti gumanitar fanlar universiteti bo'lib, islohot va ijtimoiy-madaniy yo'nalishga ega.

Ushbu ta'lim muassasasi 16-asrdan boshlab Yevropaning ijtimoiy va siyosiy hayotini o'zgartirish jarayoni - islohotlari bilan chambarchas bog'liqdir, ularning eng muhim islohotchilaridan biri ushbu universitet bitiruvchisi Martin Lyuter edi. [Martin Lyuter](#) 1501-yildan 1505-yilgacha u yerda tahsil olgan. Bugungi kunda universitet ko'p yo'nalishli, xalqaro va ustozlik bo'yicha asosiy markazlardan biridir.

Universitet Maks Viberning rivojlangan madaniy va ijtimoiy tadqiqotlar markazi, Gotha madaniy va ijtimoiy ilmiy tadqiqotlar markazi va Willy Brandt jamoat siyosati maktabi hissoblanadi. Germaniyaning eng qadimgi zamonaviy qo'lyozmalar to'plamlaridan biriga ega bo'lgan Gotha tadqiqot kutubxonasi universitet tarkibiga kiradi. Universitet kutubxonasi, shuningdek, universitetning sobiq rektori bo'lgan Amplonius Rating de Berka (1363-1435) tomonidan yig'ilgan 1000 ga yaqin o'rta asrlarga oid qo'lyozmalar to'plamiga ega.

Universitet talabalarga falsafiy o'quv tadqiqotlari, davlatshunoslik, katolik dinshunoslik fakulteti va Maks Viber markazining yaqin integratsiyalashuvi murabbiylik dasturi orqali ilmiy izlanishlar va ilmiy tadqiqotlarga innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda fanlararo aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi. Erfurt universitetida o'qish uchun haq to'lanmaydi va ish beruvchilar uchun oilaviy do'stlik sertifikatini olgan birinchi oliy o'quv yurti hissoblanadi.

Erfurt universitetida beshta fakultet va uchta akademik institut mavjud. Ular- Ta'lim fakulteti, Katolik ilohiyoti fakulteti, Falsafa fakulteti, Huquq, iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar, Germaniyada yagona bo'lgan Maks Viber rivojlangan madaniy va ijtimoiy tadqiqotlar markazi. Akademik institutlar quyidagilar: Erfurt ta'limi maktabi, Gotadagi Ijtimoiy va madaniy tadqiqotlar markazi, Willy Brandt jamoat siyosati maktabi, sobiq Erfurt jamoat siyosati. Xozirgi kunda quyidagi kollejlari va ilmiy jamoalar Erfurt doktorlik va postdoktoral dasturining (EPPP) tarkibiga kiradi: Aloqa va Raqamli Media tadqiqot guruhi (COMDIGMED) - bu fanlararo va xalqaro miqyosda o'rnatilgan va tadqiqotchilar uyushmasidir. Ushbu loyiha o'z a'zolarining aloqa fanlari, ta'lim fanlari, psixologiya va ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ilmiy va o'quv-uslubiy yordam tarmog'ini birlashtiradi.

Iqtisodiyot va xulq-atvor sohasidagi Empirik tadqiqotlar markazida (Cereb) olimlar- iqtisodiy va xulq-atvor fanlari bo'yicha birgalikda ish olib borishadi, ular odamlarning qarorlarini xulq-atvorini nazariy modellashtirish, ijtimoiy institutlar va ta'lim sohalarida izlanishlar olib boradilar. Universitet ushbu ixtisoslikka jalb qilingan bo'lib, "Din modernizatsiya jarayonlarida" nomli Oliy ilmiy maktabi diniy, ijtimoiy, adabiy, ommaviy axborot vositalari va fan, ilohiyot va falsafa tarixi va boshqa diniy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Universitetning yosh olimlari ushbu sohadagi muammolar bilan shug'ullanadi va modernizatsiya jarayonlarida dinning yangi

tushunchalarini ishlab chiqishlari uchun yahshi shart-sharoitlarni taklif etadi. Maks Viber markazining tadqiqot dasturi din, fan va huquq muammolarini talqin qilish va boshqarish sifatiga yo'naltirgan.

Universitet 2003-yilning yozgi semestrda 2004 yil aprel oyida Nyu-York shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Milliy Modeli (NMUN) loyihalarida ishtirok etish uchun universitetda loyihaviy guruh tuzildi. Pilot loyiha universitetda doimiy ravishda talabalar tomonidan tashkil etiladigan seminarga aylandi.

Ilgari Sharqiy Germaniyada joylashgan katolik dinshunoslik maktabi bugungi dunyoviy jamiyatning muammolariga alohida e'tibor qaratmoqda. Zamonaviy cherkov tarixi tadqiqot markazi Germaniya markazidagi katolik cherkovining tarixini o'rganadi. “Ozchilik - Missiya - Migratsiya” tadqiqot yo'nalishi esa cherkov va ilohiyot uchun muhim bo'lgan mavzular bo'yicha tadqiqot ishlarini mintaqaviy va xalqaro miqyosda birlashtiradi. Bunday maktablar o'zining jadal ilohiyot magistrlik dasturi bilan ayniqsa iqtidorli yosh ilohiyotchilarni tarbiyalaydi. Shunday maktablar Yevropa va Shimoliy Amerikadagi madaniy va ijtimoiy kontekstda ishlaydigan boshqa maktab va institutlar bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi.

Dinshunoslik bo'yicha magistrlik dasturiga keladigan bulsak, dastur- talabalarga Yevropaning diniy tarixini bir qator nuqtai nazardan chuqur o'rganish imkoniyatini berish uchun yaratilgan. U dinshunoslik va tarixiy antropologiyaning tizimli yondashuvlarini Yevropaning murakkab va plyuralistik jamiyatlaridagi diniy hodisalarni tahlil qilish uchun Madaniyat fanlari va filologiyaning uslubiy vositalari bilan birlashtiradi.

Dastur maqsadi: Yevropaning diniy tarixi haqida asosiy bilimlarni taqdim etish, diniy urf-odatlar va uning madaniy tarkibiy talabalari to'g'risida chuqur bilim berish, dinshunos talabalarni tahlil qilish uchun uslubiy vositalardan foydalanib, madaniyatshunoslik sohasida mustaqil izlanishlar olib borishdan iborat. Xulosa qilib aytganda, Germaniyaning diniy hamda dunyoviy ta'lim uyg'unlashgan mashhur o'quv yurtlaridan biri Erfurt universiteti hisoblanadi. Erfurt universitetidagi o'ziga xos yondashuvlar, manbaalarni tadqiq etish va adabiyotlarning aslidan foydalanish, tahliliy teziz hamda maqolalarga qattiq urg'u berilishi, unga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi. Zero, dinlarni obyektiv o'rganish jarayonida sof ilmiy yondashish juda ham muhimdir. Empirik tadqiqotlarni amalga oshirish, o'rganilayotgan din haqida to'liq ma'lumotga ega bo'la olish dinshunoslikni fan sifatida yanada rivojlantiradi. Bundan tashqari, o'rganib chiqilgan o'ziga xos yondashuvlar dinshunoslik va uning tarmoqlarini yanada taraqqiy etishiga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Hock: Einführung in die Religionswissenschaft. Darmstadt 2002
2. Usmonov, I. Dinshunoslik asoslari. Toshkent: “Toshkent islom universiteti” matbuot birlashmasi, 2013
3. https://en.wikipedia.org/wiki/Psychology_of_religion

МАКТАБДА ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КЎРГАЗМАЛИ ҚУРОЛЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ

*Гофурова Фарида Тохир қизи,
Наманган вилояти, Чуст тумани,
1-мактаб тарих фани ўқитувчиси.*

Аннотация: Тарих фанини ўқитишда ҳар бир мавзу бўйича тайёрланган кўргазмали воситалар тарихий билимларни ўқувчилар онгига етказиш ва сингдиришда.

Ключевые слова: Ўзбек тарихчиларининг бугунги кундаги асосий вазифаси.

Ҳар бир суверен давлат ўзининг бетакрор тарихи ва маданиятига эгадир. Бу тарих, бу маданиятнинг ҳақиқий ижодкори, яратувчиси эса ҳақи равишда шу мамлакат халқи ҳисобланади-деб таъкидлаган мамлакатимиз президенти Ш.М.Мирзиёев.³² Давлатимиз том маънода мустақил бўлганидан кейин халқимиз ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаётида тубдан ўзгаришлар бўлди.

Ўзбек халқининг неча минг йиллик тарихида қандай мураккаб даврлар, оғир синовлар бўлганини барчамиз яхши биламиз.³³ Ўзбек давлатчилиқ тарихи дунё тарихчи олимлари томонидан катта қизиқиш билан ўрганилаётган бир вақтда совет тарихчилари томонидан юртимиз тарихи салбий бўрттирилган ҳолда талқин этилган. Шунинг учун ҳам «...ўзбек тарихчиларининг бугунги кундаги асосий вазифаси... давлатчилигимизни илмий нуқтаи - назардан асосланган тарихини яратишдир» - деб таъкидлаган эди Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И. Каримов³⁴.

Мактабларда ҳам юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда тарих фанини янги педогогик технологияларни кенг қўллаган ҳолда ўқувчиларга ўргатиш лозимдир.

Тарих фанини ўқитишда ҳар бир мавзу бўйича тайёрланган кўргазмали воситалар тарихий билимларни ўқувчилар онгига етказиш ва сингдиришда муҳим манба ҳисобланади. Кўргазмалилик энг аввало ўқитиш ва ўрганишнинг кўргазмали усули, ўқитувчи баёнининг кўргазмали бўлиши, унинг ўқувчилардаги тайёр образларга суяна билиши, ўқув материалини баён қилиш вақтида кўргазмали қуроллардан фойдаланиш ва кўргазмали қуроллар воситасида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини жадаллаштириш ҳамда уларнинг ўрганилаётган

³² Мирзиёев Ш.М.Эркин ва фаровон демократик давлатни биргаликда барпо этамиз. “Ўзбекистон”, 2016 й. 5-бет.

³³ Ўша жойда.

³⁴ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Шарқ 1998 й. 12-бет.

тарихий жараёнларни, воқеа ва ходисаларни айнан ўзини ёки уларнинг тасвирларини кўриш ёрдамида ўрганишлари тушунилади.

Тарихий ҳужжатлар ва бадиий адабиётлардан фойдаланиш ўқитувчи баёнини образли қилиб конкретлаштирса, кўргазмали қурооллар воситасида ўқувчиларда ўтмиш тўғрисида ёрқин ва аниқ тасаввур ҳосил бўлади, ўқувчиларнинг эшитиш фаолиятига кўриш ва сезиш органларининг фаолияти ҳам қўшилади. Шу билан уларнинг билими янада чуқурлашади ва мустаҳкамланади. Кўргазмали қурооллар ўқувчиларнинг билим олишида муўим манба бўлиб хизмат қилади ҳамда ўқувчиларнинг тарихий тасаввурларига аниқлик киритади ва бу тасаввурларни конкретлаштиришга ёрдам беради. Кўргазмали қурооллар ўқувчиларнинг мураккаб тарихий ходисаларнинг, тарихий тушунчаларни маъносини осонроқ тушунишга ёрдам беради. Тарих ўқитишда қўлланиладиган кўргазмали қурооллар ўзининг мазмуни, тарихий образларининг характери, уларни тайёрланиш ва фойдаланиш усулларига қараб қуйидаги турларга бўлинади:

-буюм кўрсатмалилик тарихий ёдгорликлар, эсдалик жойлари, архитектура ёдгорликлари, хужаликка доир ва бошқа кўрилишлар, меҳнат қурооллари, қуроол-яроғлар, рўзгор буюмлари, шу жумладан археологик топилмалар.

-тасвирий кўргазмалар, ўқитишда фойдаланиш учун ишланган тарихий картиналар ва альбомлар, санъат асарлари, портретлар, расмлар, фотоҳужжатлар ва фотосуратлар, дарсликлардаги иллюстрациялар, ўқув диапозитивлари, диафильмлар ва кинофильмлар, макетлар, муляжлар, ҳар хил моделлар, мультимедиалар, интернет материаллари ва бошқалар.

-шартли кўрсатмали қурооллар, тарихий ва контур карталар, тарихий атласлар, схемалар, графика, диаграмма ва картограммалар, аппликациялар ва педагогик расмлар.

Мактабларда тарих фанини ўқитишда буюм кўрсатмалилик таълимда алоҳида касб этади. Физика, химия ёки ботаника ўқитувчилари ўрганилаётган мавзунини ўқувчиларга формула, шакл ва бошқаларда кўрсатиб тушунтирсалар тарих ўқитувчиси ундай имкониятлардан маҳрумдир. Тарих ўқитувчиси ўқувчиларга ибтидоий одамлар ҳаёти ва фаолиятининг айнан ўзини кўрсатиб бера олмайди, фақат гапириб беради, кўрсатса фақат ибтидоий кишилар ишлатган қуроолларни, яшаган жойларини, ёки айтайли ўрта асрлардаги ҳукмдорларни ўзаро урушларини эмас, урушда ишлатилган қуроолларни ва бошқа баъзи бир буюмларни, айрим саркардалар бошлиқ аскарларнинг жангларда кўрсатган жасорат ва қаҳрамонликларини эмас, балки улар туғрисидаги расомлар чизган айрим расм-картиналарни кўрсатиш мумкин, холос, лекин дар ҳолда кишилар ўтмишидан қолган бу ёдгорликларни тарихий воқеалар тўғрисида реал тасаввур қилишга сўзсиз ёрдам беради. Ўқувчилар орадан бир неча асрлар, ҳатто неча-неча минг

йиллар ўтиб кетган замондаги воқеалар тўғрисида маълумот берувчи ҳақиқий буюм ва нарсаларни жуда қизиқиш ва хаяжон билан ўрганадилар.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Ислон Каримов Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент. «Шарқ», 1998.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик давлатни биргаликда барпо этиш. «Ўзбекистон», 2016 й.
3. Бабанский Ю.К. «Хозирги замон умумий таълим мактабларида ўқитиш методлари» Тошкент. «Ўзбекистон», 1990.
4. Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси Тошкент. «Ўқитувчи», 1988

ИМОМ АБУЛ МУЪИН НАСАФИЙНИНГ АҚОИД ИЛМИ СИЛСИЛАСИДАГИ ЎРНИ

Жалолиддин Холмўминов

*Ўзбекистон халқаро ислом академиясининг
магистранти*

Мотуридийя мактабининг атоқли намояндаларидан бири Абул Муъин Маймун ибн Муҳаммад ан-Насафий, ал-Макхулийдир.

У зотнинг исмлари Маймун бўлсада, Абул Муъин куняси билан шунчалик танилганки, кунялари истеъмол қилинмаса ҳеч ким ёлғиз исмлари билан танимаган, яъни Абул Муъин куняси билан машҳур бўлган. Тўртинчи боболари Муҳаммад ибн Макхул (в.375х.) ҳам Абул Муъин куняси билан куняланган.

У зотга ан-Насафий нисбати берилиши Насафда таваллуд топгани учун бўлса, ал-Макхулий нисбати берилиши бешинчи боболари Макхул ибн Фазлга нисбат бериш учун қўлланган, яъни Макхулийлар оиласидан деган маънода истеъмол қилинган.

Абул Муъин Насафийнинг боболари Абу Мутъ Макхул ибн Фазл Насафий (204-395х) Имом Абу Мансур Мотуридий (р.а.)нинг шогирдларидан биридир. Макхул ибн Фазлнинг бир неча бебаҳо асарлари бор ва баъзилари бизгача сақланиб қолган.

Абул Муъин Насафийнинг тўлиқ насаблари Маймун ибн Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Макхул ибн Фазлдир³⁵.

Абул Муъин Насафий бошланғич илмни оилада ўз оталари ва боболаридан олганлиги табиий ҳолдир. Шу билан бирга илм учун Самарқанд, Бухоро шаҳарларига сафар қилганлар ва дарс бериш учун ушбу шаҳарларда яшаганлар. Илм сафарида замонанинг пешқадам имомларидан дарс олганлар.

Абул Муъин Насафийнинг устозларидан бири Абул Юср Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Ҳусайн ибн Абдулкарим ибн Муса ибн Мужоҳид ан-Насафий ал-Паздавийдир. (421-493х. 1030-1100м.) У зот Мотуридий эътиқодида муҳим асар саналган “Усул уд-дин” китобининг соҳибидир.

Абул Муъин Насафийнинг “Табсиратул адилла фи усулид дин”, “Ат-тамҳид ли қоваъидит тавҳид” ва “Баҳрул калом” асарлари бўлиб, уларнинг ўнлаб қўлёзма нусхалари дунё кутубхоналарининг фондида сақланмоқда. Бугунги асримизда мазкур уч асарнинг барчаси таҳқиқ қилиниб, дунёнинг турли жойларида нашр қилинди.

³⁵ Абдулқодир ибн Абулвафо ал-Қурайший. “Жавоҳирул музййа фи табақотил ҳанафия”. Байрут: “Дорул кутубил илмий”, 411-бет.

Мазкур уч асардан бошқа бизга етиб келмаган ёки бўлса ҳам ҳали нашр қилинмаган асарлари ҳам бор. Улар “Шарҳул жомеъул кабир лиш-Шайбоний”³⁶ (Имом Муҳаммад Шайбонийнинг “Жомеъ ул-кабир” китобига шарҳ), “Манохижу аимма фил фуруъ”³⁷ (Фарий масалаларда имомларнинг йўллари) “Изоҳул маҳажати ли кавнил ақли хужжата”³⁸ (Ақл хужжат қилинадиган хужжат эканлигининг изоҳи), “ал-ифсад ли хадъи аҳли илҳад”³⁹ (Куфр аҳлининг ёлғонлиги бузиш) ва “Сифатул калом”⁴⁰ (Калом сифати тўғрисида) каби асарлари.

“Табсиратул адилла” асари бугунгача дунё мусулмонлари ўқиб-ўрганиб, унинг устида турли даражадаги илмий ишлар қилинган ва қилинмоқда. Абу Мансур Мотуридийнинг “Тавҳид” китобини ва Абул Муъин ан-Насафий “Табсиратул адилла” китобини таҳқиқ қилган зотлар ёзган муқаддималарида “Табсиратул адилла” китобини қуйдагича этироф қиладилар: “Абул Муъин ан-Насафий шоҳ асари “Табсиратул адилла” Мотуридий мазҳабида Имом Абу Мансур Мотуридий (р.а.) нинг “Тавҳид” китобидан кейинги иккинчи китоб сананалади. Балки, “Табсиратул адилла” асари “Тавҳид” китобига шарҳ, тафсир ва баён деб эътибор қилинади. Чунки, “Табсиратул адилла” асари кўп ўринларда “Тавҳид” китобининг услубларини баён қилиб, унга нисбатан кенг қамровли ва тафсилотлар билан бойитилган асардир”.

Абул Муъин Насафий “Табсиратул адилла” асаридек буюк бир асарни тасниф қилиш билан бирга олий мартабадаги бир неча бутун оламга донг таратган шогирдларни ҳам тарбия қилганлар. Жумладан: Аъло уд-дин Муҳаммад ибн Аҳмад ас-Самалқандий (575х), Абул Музаффар Исмоил ибн Адий ал-Талқоний (540х), Садр ул-ислом Аҳмад ибн Муҳаммад Бухорий (482х-542х), Абул Ҳасан Али ибн Ҳасан ал-Балхий (548х), Абул Фатҳ Аҳмад ибн Муҳаммад ал-Хулмий (547х), Абдурашид ибн Нўмон ал-Валволий (540х), Маҳмуд ибн Аҳмад ас-Соғуржий (510х), Маҳмуд ибн Зайд ал-Ломиший ва бошқалар.

Абул Муъин Насафийнинг шогирдларидан бири Абул Ҳафс Умар Насафийдир (461-537х.). Абул Ҳафз Умар Насафий Абул Муъин Насафий ва бошқа кўплаб улуғ устозлардан дарс олиб Мотуридий мактабининг кўзга кўринган намояндаларидан биридир. У зот тасниф қилган асарлар юзта бўлгани учун “Юз китоб соҳиби” деб ҳам лақабланади. Тасниф қилган асарларининг ичида “Ақоид ун-Насафия” модуридия ақидасининг жавҳари саналади. Мотуридий таълимотини

³⁶ Ҳожи Халифа. “Кашфуз зунун ʻан асомил кутуб вал фунун”. Биринчи жуз. Байрут: “Ихёут туросил арабий”, 338-бет.

³⁷ Ҳожи Халифа. “Кашфуз зунун ʻан асомил кутуб вал фунун”. Иккинчи жуз. Байрут: “Ихёут туросил арабий”, 1846 бет.

³⁸ “Ат-тамҳид ли қоваъидит тавҳид” ва “Табсират ул-адилла” Биринчи жуз. 285-бет.”

³⁹ “Табсират ул-адилла” Биринчи жуз. 837-бет. Бу Ботинияларга раддия учун тасниф қилинган.

⁴⁰ “Табсират ул-адилла” Биринчи жуз. 281-бет.

тутган барча диёрларда “Ақоид ун-Насафий” китоби бирдек чиройли қабул қилинган, ўқиб-ўрганилган ва юздан ортиқ шарҳ ва ҳошиялан битилган. Шунинг учун бу асар асрлар бўйи бугунги кунгача мадарасаларда давомий дарслик бўлиб хизмат қилиб келмоқда.

“Ақоид ун-Насафий” китоби бугун ҳам дарслик бўлиб хизмат қилиб туриши, Абу Мансур Мотуридийнинг “Тавҳид” китобини ва Абул Муъин ан-Насафий “Табсиратул адилла” китобини мухтасар ҳолда ўқиш ва ўрганиш демакдир. Ҳожи Халифа ўзининг “Кашфуз зунун” китобида “Табсиратул адилла” асарини танитиш ниҳоясида: “Ким “Табсира адилла” китобига назарса солса, Умар Насафийний “Ақоид ун-Насафий” китоби “Табсира адилла” китобининг феҳриси эканлигини билади⁴¹”-дейди.

Умар ибн Муҳаммад Насафийнинг “ал-Қанд фи зикри уламои Самарқанд” (Самарқанд олимлари зикрида қанд китоби) асарида “Шарку Ғарбнинг олиму уламолари Абул Муъин Насафий илмининг денгизидан баҳра топиб, у таратган зиё нурларини кўзларига тўтиё қилиб суртганлар”- дейди.

Ҳа, ақоид илмида битилган барча манбаларда, шарҳ ва ҳошияларда Абул Муъин Насафий ва “Табсира адилла” асарининг зикри қайд қилинади. Унда баён қилинган нарсалардан иқтибос келитилади ёки ундаги баён қилинган ҳукмни эътироф этилади.

Хулоса шуки, Абул Муъин Насафий “Табсира адилла” асари ва Абул Ҳафз Умар Насафий сингари шогидлари билан мусулмонларни эътиқодини бир бирлаштириб келган. Тарих китобларининг барчасида жаннат макон диёримиз анҳорлари, боғу бўстонлари ва гўзал шаҳару кишлоқлари мадҳ қилиниши билан бирга мусулмонларнинг оммаси барчаси аҳли сунна вал жамоъа эътиқодида жам бўлганлиги билан макталади. Албатта, мусулмонларнинг бир эътиқоддан жам бўлишида Имом Абу Мансур Мотуридий, Абул Муъин ан-Насафий ва бошқа издошларининг катта хизматлари бор.

Ақоид илми илмлар ичида энг шарафлисидир. Фақат соф ва тўғри ақоид инсоннинг дунё ва охирада бахт ва нажотига эришишига сабаб бўлади.

Пайғамбаримиз Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васаллам мусулмонларнинг эътиқодини софлига хизмат қилганлар зотларни қуйдагича мадҳ қиладилар:

عَنْ إِبْرَاهِيمَ بْنِ عَبْدِ الرَّحْمَنِ الْعَدْرِيِّ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ، قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: "يَحْمِلُ هَذَا الْعِلْمَ مِنْ كُلِّ خَلْفٍ عُدُولُهُ، يَنْفُونَ عَنْهُ تَحْرِيفَ الْغَالِيْنَ، وَانْتِحَالَ الْمُبْطِلِينَ، وَتَأْوِيلَ الْجَاهِلِينَ" رَوَاهُ الْبَيْهَقِيُّ⁴²

Иброҳим ибн Абдурахмон ал-Узрий розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади: Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам: **“Ҳар бир замонларда адолатпеша**

⁴¹ Ҳожи Халифа. “Кашфуз зунун ған асомил кутуб вал фунун”. Биринчи жуз. Байрут: “Ихёут турсил арабий”, 338ва570 бетлар.

⁴² Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Хатиб табризий. “Мишкотул Масобих” Биринчи жуз. Байрут. “Дорул фикр”. 115-бет.

инсонлар (мўтадиллик) ҳаддидан ошганларнинг нотўғри талқинини, лаёқатсиз кимсаларнинг асоссиз тасдиқлашини ҳамда нодон кимсаларнинг таъвилларини инкор этган ҳолларида бу илмни ҳимоя қиладилар” – дедилар. Байҳақий ривоят қилган.

Мазкур ҳадиси шарифда тўғри йўлдан адашган, асоссиз нарсаларни ўзларига “ҳужжат” қилиб бошқаларни чалғитадиган ва илмсизликдан оят ва ҳадисларни нотўғри таъвил ва талқин қиладиган кимсаларни тўғри йўлга соладиган ва мусулмонларнинг оммасини соф ақоидга бошлайдиган инсонни ўз замонасининг адолатпеша инсонлари—деб зикр қилинмоқда.

Абул Муъин Насафий ўз замонасида барча адашган инсонларга ҳидоят йўлини баён қилган ҳадиси шарифда баён қилинганидек адолатпеша инсонлардан биридир. Узот Мотуридий ақоидини бизгача етиб келишида силсиласининг гўё катта ҳалқадекдир.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Ҳожи Халифа. “Кашфуз зунун ʼан асомил кутуб вал фунун”. Биринчи жуз. Байрут: “Ихёут туросил арабий”, 338ва570 бетлар.
2. Муҳаммад ибн Абдуллоҳ Хатиб табризий. “Мишкотул Масобих” Биринчи жуз. Байрут. “Дорул фикр”. 115-бет.
3. Абдулқодир ибн Абулвафо ал-Қурайший. “Жавоҳирул музийя фи табақотил ҳанафия”. Байрут: “Дорул кутубил илмийя”, 411-бет.
4. Ҳожи Халифа. “Кашфуз зунун ʼан асомил кутуб вал фунун”. Биринчи жуз. Байрут: “Ихёут туросил арабий”, 338-бет.
5. Ҳожи Халифа. “Кашфуз зунун ʼан асомил кутуб вал фунун”. Иккинчи жуз. Байрут: “Ихёут туросил арабий”, 1846 бет.

МОТУРИЙДИЙ ОЛИМ БАЁЗИЗОДА

Муҳибуллаев Саид-Маҳмадхон Довудхон-ўғли

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

магистранти

Мотуридия ақидавий таълимоти ислом динида икки таълимотдан бири бўлиб, ўзининг мўтадил йўлни тутганлини билан ажралиб туради. Бу таълимат 16, 17-асрларда дунёнинг барча жабҳасига етиб улгурган эди. Бунда асосан Усманий ва Темурийлар давлати катта ҳисса қўшган. Чунки бу икки давлад фикҳда ҳанафийликга, ақидада эса мотуридийликга асосланган ҳамда ўз даврининг алломаларини юксак эъзозлар эди. Шу сабаб бу давлат қайси ўлкага етиб борса, албатта ўша ерга ҳанафийлик ва мотурийлик ҳам кириб борарди. Шу билан бирга бу таълимотнинг кенг ёйилиши ва бизгача соф ҳолатда етиб келишига ҳар бир замоннинг буюк алломалари ўзларининг беқиёс хизматларини қўшганлар. Убу Ҳанифа (р.а) ҳаётининг илк даврларини ақида соҳаси ила шуғулланиш билан ва ақоиднинг асосий қоидаларини, келажакда ёзилиши керак бўлган асарл ўрнатқанди. Кейинчалик фикҳ соҳасига қизиқиш билдириб шу йўлга кириш ва кейинги фақиҳлар учун устоз ҳам йўлбошчи сифатида танилди.

Имом Аъзам Абу Ҳанифа (р.а) фикри бизнинг энг асосий қарашларимиздан биридир. У диннинг ҳам асли ҳам фаръий ҳукмлари биносини илк бор барпо қилган ва буларнинг асосий бўлимларини шакллантирди. Абу Ҳанифа (р.а)га нисбат бериладиган ақоид рисоалари бутун дунё мусулмонлари ярмини эгаллаган Мотуридия ақидавий мазҳабнинг асосий асарлари сифатида шаклланди. Усманий олим ва ҳарбийлар қозиси Баёзизода Аҳмад бу рисоаларни бирлаштириб, мавзуларга кўра шакллантирди ва шу орқали яна бир асар юзага келди⁴³.

Баёзизода Аҳмад билан батафсил танишиб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади деган умидда олим ҳақида келтириб ўтамиз. Мотуридий олимлар орасида ўчмас ўрнатқан ва намуна қолдириб кетган, адолатни ҳамда ҳақни ўзининг шиори қилиб олган, Усманий давлати салтанатида қозию-қуззот бўлган Камолиддин Баёзизода Румий Буснавий туради. Бу зот ҳижрий 11 ва 12 аср, милодий 16-17 асрлар яшаб ўтган ва ислом динига айниқса, ҳанафий мазҳаби ва мотуридия таълимотининг кучли ҳимоячиси ҳисобланган.

Алломанинг тўлиқ исми Камолиддин Аҳмад ибн Ҳасан (ваф. 1063/1653)⁴⁴ ибн Синоуддин Баёзизодазода Румий⁴⁵ Ҳанафий бўлиб, Асли Буснавийлик бу ердан

⁴³ Imam Azam Ebu Hanife'nin Itikadî Görüşleri. Dr. İlyas ÇELEBI. Istanbul – 1996. Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Vakfı Yayınları Nu. 114.

⁴⁴ Imam Azam Ebu Hanife'nin Itikadî Görüşleri. Dr. İlyas ÇELEBI. Istanbul – 1996. Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Vakfı Yayınları Nu. 114

⁴⁵ Бу нисбат шу ўлкада таваллуд топгани учун берилаган асл насаби учун эмас.

Истанбулга келган. 1044-ҳижрий, 1634-мийлодий санада Румда(Истанбул) таваллуд топган. Бобосини исмини нисбат қилиб Баёзизодазода деб аталган⁴⁶. Баёзизода Рум уламоларининг улуғларидан бўлиб, Усманий халифалигига қарашли ҳарбий қўшиннинг қозиси (ҳарбийлар орасида муоммоларни ҳал қилувчи суд раҳбари) бўлган. Турли илмлар соҳиби хусусан, фикҳ илмида ҳам машҳур эди. Унинг обрўси халқ орасида машҳур ҳамда қаерга борса, халқ уни илиқ кутиб олар эди. Олимнинг болалик ва мадраса ҳаёти Истанбулда ўтди. Аввалги илмни ўз шаҳрида отасидан (отаси Баёзизода Ҳасан Макка ва Истанбулда ҳам таниқли олимлардан бўлган⁴⁷.) сўнгра Румнинг фозил кишиларидан бўлмиш, Аллома Яҳё Минқорий⁴⁸ ва бошқалардан олган. Аҳмад Баёзизода отаси Ҳасан билан бирга ҳаж ибодатини бажариш учун Маккаи Мукаррамага бориб, шу ерда олим Шамсуддин Бобилийнинг⁴⁹ дарсида қатнашган. Отаси Ҳасан ҳам Маккаи Мукаррамада обрўга эга зот бўлиб, қозилик вазифасида ишлаган.

Баёзизодага устозлик қилганлар орасида бобоси Мулла Чалабий деб танилган Диёрбакрлик машҳур муҳаққиқ олим шайх Муҳаммад ибн Али Омидий (ваф. 1066/1656) турли илмлар бўйича ижоза берган. Шулар қаторида Шайх Узун Ҳасан (ваф. 1081/1670) ва Шайхулислом Абу Саид (ваф. 1072/1662) ҳам устозлик қилдилар. Баёзизодазода кўп вақтини Шайхулислом Абу Саид ёнида ўтказди. Шундан кейин Маккаи мукаррамага бориб юқорида айтиб ўтилганидек Шамсиддин Бобилийнинг дарсларига қатнашиб юради.

1056/1646-йилда 40 ахча маош билан Адирне Кади Сулаймон мадрасаига мударрис этиб тайинланди. 1065/1655-йилда Маҳмудзода Аҳмад Афанди (ваф. 1068/1658) ўрнига Юсуф Пошо Мадрасасига, 1067/1657-йилда Софиали Иброҳим Афанди (ваф. 1081/1670) ўрнига Капинчи Синан Мадрасасига, 1070/1660-йилда Шайх Ражабзода Муҳаммад Афанди (ваф. 1078/1667) ўрнига Иброҳим Пашайи Жадид Мадрасасига, 1072/1662-йилда эса Самти Муҳаммад Афанди (ваф. 1080/1669) ўрнига Нишончи Пашайи Мадрасасига, 1073/1663-йилда Қуддусзода Муҳаммад Афанди (ваф. 1097/1686) ўрнига Саҳни Саман Мадрасасига, 1074/1663-йилда Бўстонзода Абу Бакр Афанди (ваф. 1083/1672) ўрнига Залпошо Султон Мадрасасига, 1075/1665-йилда Исҳоқзода Муҳаммад Солиҳ Афанди (ваф. 1083/1672) ўрнига Аясофия Мадрасасига мударрисликга тарғиб этилиб шу ерларда фаолият олиб борди.

⁴⁶Imam AzamEbuHanife’ninItikadİGÖrÜ\$leri. Dr. İlyas ÇELEBI. Istanbul – 1996.Marmara Universitesiİlahiyatfakutesivakfiyayinlari Nu. 114.

⁴⁷Imam AzamEbuHanife’ninItikadİGÖrÜ\$leri. Dr. İlyas ÇELEBI. Istanbul – 1996.Marmara Universitesiİlahiyatfakutesivakfiyayinlari Nu. 114.

⁴⁸Ааломанинг тўлиқ исми Яҳё ибн Умар ибн Али Минқорий Румийдир. 1088/1677 йилда тав.

⁴⁹Абу Абдуллоҳ Шамсуддин Муҳаммад ибн Алоуддин ал-Бобилий. Тав.1000/1591. Ваф. 1077/1666. Мисрнинг Бобил қишлоғида таваллуд топиб, шу ерда яшаган ва Қоҳирада вафот этган.

Муҳиббий (ваф. 1111/1699) Баёзизода билан шу аснода учрашганини шундай деб хабар беради: “Мен Баёзизода билан Румда учрашиб, унинг илмидан истифода олдим. Уни илм тоғларидан бир тоғ ва мустаҳкам илм соҳиби эканига гувоҳ бўлдим. Олим сўзида давом этиб шундай дейди, Баёзизода 1086/1675- йилда Даббағзода Муҳаммад Афанди (ваф. 1114/1702) ўрнига Истанбул (Қустантиния)га қози этиб тайинланди фақат бир йилдан сўнгра бу қозиликдан бўшатилади.(Баёзизода бу ердан кейин Румилия қозиси бўлиб ишлаган. Бу қозилик 1091/1680- йилда бўлиб ўтди. Шу даврдаги баъзи ҳукмлар туфайли ҳа Баёзизодага анча машаққатли синовлар бўлиб ўтди. бу тарихда "катъий қарор” деб аталади ва Рўзномачи Патбурунзода Муҳаммад Афанди ҳақкига ўлим ҳукмлари бўлиб ўтган⁵³⁾⁵⁴. Бу вақтда мен ҳам шу ерда эдим. Мана шу жойдаги қозилик ишида унга

179

синов тарзида бир воқиа содир бўлди. Унинг ҳузурига зино қилган бир аёлни тўртта гувоҳ билан олиб келишди, қози унга барча шартлари топилгани учун тош бўрон қилинишга ҳукм қилди. Бу ҳукмни бошқа жой қозилари эшитиб, гарчи шаръий ҳукм бўлсада, олимни бу ҳукмидан тўхтатиб қолишга ҳаракат қилишди. Олим бу қаршиликларни рад этиб, шаръий ҳукмни эжро этилишига буйруқ берди ва ҳукм амалга оширилди. Олим бу иши билан ўз даврининг баъзи олимлари қаршилигига учраган бўлсада, лекин ўз Роббиси Аллоҳни рози қилиш учун ҳукмни ижро қилди. Бу иши билан йўқ бўлиб кетай деган шаръий амални тирилдтирди. Шундан сўнгра Қустантиния қозилигида кўп қолмади”⁵⁵, деган.

Ёзувчи Сарик Маҳмуд Пошо (ваф. 1129/1717) шаръий ҳад бўлмиш тошбўрон қилиш воқеасини эслаб шундай дейди: “Истанбулда Оксарой туманида Абдуллоҳ Чалаби исмли бир этикдўзнинг хотини бўларди, шу маҳаллада дўкандор бир яҳудий киши билан зино қилгани ҳақида шаҳар қозиси Баёзизода Аҳмадга шикоят келиб тушди. Қози Баёзизода зино қилинганига барча гувоҳлигини олгач, аёлни тошбўрон қилишга, яҳудийни эса қатл этишга ҳукм қилди. Султонмаҳмуд жомеи олдидаги отчопар майдонидаги бронза аждарҳо ёнида бир чуқур қаздириб, шу чуқурга аёлни белдан юқорисигача кўмдирди ва атрофдаги тўпланган оламон тош ота бошлади. Бу воқеани подшоҳ Назир Фозил Пошо саройидан кузатиб турди. Яҳуди эса ўлимдан қутилиш умидида бир кун аввал исломни қабул этди аммо барибир шаръий ҳаддан қочиб кетолмади”⁵⁶.

Бу воқеа туфайли Баёзизодага қуйидаги танқидлар келиб тушди: Бундай вазиятда тўртта гувоҳ айнан зино ҳолатини бирданига кўришлари имконсиз иш бўлиб, чиноятчилар ҳам иқрор бўлишлари керак. Бироқ, ушбу шахслар воқеа содир бўлганлигини рад этишни талаб қилишди. Шунга қарамай Румилия қозиси Баёзизода гувоҳларнинг гувоҳлигини қабул қилиб, ражм ва қатл ҳукмига буюрди⁵⁷. Ушбу танқидлар туфайли Баёзизода қозиликдан бўшатилади ва қолган умрини китоб ёзишга бағишлади. 14-Жумодул-увла 1098/1687-йил жума куни вафот этди. Ускудардаги Даъватчизода қабристонида дафн этилган⁵⁸. Шамсиддин Сами (ваф. 1322/1904) Баёзизоданинг вафотини 1086/1675-йили эканини ишончли деган⁵⁹.

⁵⁴Муҳаммад Ҳанчи. Ал-жавҳаротул-асна. 39 – Б.

⁵⁵Маҳбубий. Хулосатул-асар. 1/181 – б.

⁵⁶Ёзувчи Сарик Маҳмуд Пошо. Зубд-и воқат. 1/169-Б.

⁵⁷Ёзувчи Сарик Маҳмуд Пошо. Зубд-и воқат. 1/169-Б.

Konferensiyaning maqsadi:

Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

BOSH MUHARRIR:

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

MAS’UL KOTIB:

Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li

*Marg‘ilon shahar 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ma‘naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Xakimova Aziza Xaydaraliyevna

*Sirdaryo viloyati, Guliston tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universitet

“Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 3-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to‘plami, 15-noyabr, 2020-yil. – Farg‘ona shahri: Bestpublication, 2020. – 245 b.



Success
Business

Customer
Management
Standard
Development
Consistency
Business
Options

Innovation
Branding
Solution
Marketing
Analysis
Ideas
Success

